

JABBOROVA O.M., MATUPAYEVA SH.Z.,  
USMONOVA Q.S., UMAROVA G.M.

# ART TEXNOLOGIYA VA KREATIVLIK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JABBOROVA O.M., MATUPAYEVA SH.Z.,  
USMONOVA Q.S., UMAROVA G.M.

**ART TEXNOLOGIYA VA  
KREATIVLIK**

*(Oliy pedagogik ta'lif muassasalari boshlang'ich ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun darslik)*

«Renesains sari»  
Toshkent – 2024

Mazkur darslik oliy pedagogik ta'lif muassasalari 60110500-Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda yangi o'quv fani "ART texnologiya va kreativlik"ning nazariy xususiyatlari, didaktik asoslari va amaliy metodikasi masalalari tahlil etilgan. ART inglizcha atama bo'lib, so'z san'ati, musiqa san'ati, tasviriy san'at va texnologik yondashuvlarning uyg'unligiga asoslangan san'at tushunchasini anglatadi. Shu sababli davlat ta'lif standartlari va malaka talblariga binoan mazkur Darslikda ARTtexnologiya va kreativlikning so'z, musiqa va tasviriy san'at turlari tahlil qilingan. Darslikni tayyorlashda o'qitishning kredit-modul tizimi talablariga asoslanilgan.

**Mas'ul muharrir:**

**Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Karimjonov Alijon** – pedagogika fanlari nomzodi

**Pulatova Dildora Turgunovna** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

*Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 dekabrdagi 537-soni buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-780-16-5



## MUNDARIJA

<b>1-BOB "SO'Z SAN'ATI-ART TEXNOLOGIYA VA KREATIVLIKNING ASOSI"</b> .....	4
1.1. So'z san'ati asoslari .....	4
1.2. Ona tili – boshlang'ich sinflarda so'z san'atining asosi.....	14
1.3. O'qish – boshlang'ich sinflarda so'z san'atining omili.....	22
<b>2-BOB. "MUSIQA SAN'ATI – ART TEXNOLOGIYA VA KREATIVLIKNING OMILI"</b> .....	30
2.1. Musiqa san'ati asoslari.....	30
2.2. "Musiqa madaniyati" – boshlang'ich sinflarda musiqa san'atining asosi .....	40
2.3. Boshlang'ich sind o'quvchilarining ijrochilik ko'nikmasini shakllantirish .....	50
<b>3-BOB. «TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT – ART TEXNOLOGIYA VA KREATIVLIKNING NEGIZI»</b> .....	57
3.1. Tasviriy san'at asoslari.....	57
3.2. Tasviriy san'at boshlang'ich sind o'quvchilarining ART – kreativlik ko'nikmasini shakllantirish asosi.....	63
3.3. Tasviriy san'at bo'yicha boshlang'ich sind o'quvchilarining kryeativ layoqatini shakllantirish .....	71
3.5. Amaliy san'at boshlang'ich sind o'quvchilarining ART -kreativlik ko'nikmasini shakllantirish omili.....	78
3.5. Boshlang'ich sinflarda ART texnologiya va kreativlikning metodlari .....	84
3.6. ART texnologiyasi va kreativlikda amaliy to'garaklar .....	92
3.7. Boshlang'ich sind o'quvchilarining kreativlik layoqatini shakllantirish .....	100
Mustaqil ta'lif uchun mavzular va topshiriqlar .....	164
Glossariy .....	166
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	171

## 1-BOB “SO‘Z SAN’ATI-ART TEKNOLOGIYA VA KREATIVLIKNING ASOSI”

### 1.1. SO‘Z SAN’ATI ASOSLARI

#### REJA:

1. So‘z san’ati omillari
2. “Ona tili” so‘z san’atining asosi sifatida
3. “O‘qish” so‘z san’atining amaliy omili sifatida
4. So‘z san’atini o‘rganishning ahamiyati

**Tayanch tushunchalar:** *san’at, so‘z, asos, til, nutq, o‘quvchi, badiiylik, ong, bilim, ko‘nikma.*

**So‘z san’ati omillarni.** O‘zbekiston umumiyligi o‘rtalim mabkablarida gumanitar, tabiiy va aniq fanlarni uyg‘un o‘qitish konsepsiyasiga asoslaniladi. Shu jihatdan gumanitar fanlarning keng ko‘lamliligi, uning inson ongi va ahloqiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalada asrlar davomida ta’lim oluvchilarga gumanitar fanlarning asosiy negizlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malaka berishga amal qilib kelinmoqda. Shu ma’noda gumanitar fanlarning muhim negizlардан бири *so‘z san’atidir*.

So‘z san’ati – bu so‘z vositasida fikrni badiiy ifodalash bo‘lib, unda inson va jamiyat hayoti obrazlar vositasida tasvirlanadi.<sup>1</sup> So‘z san’ati til va adabiyotning uyg‘unlashgan shakli bo‘lib, unda badiiyat qonuniyatlariga asoslaniladi. Uning asosiy ob‘yekti inson ruhi, ongi, ahloqi va hayoti hisoblanadi. Mazkur san’at vositasida insonning ideal orzulari, baxtga intilish xarakatlari va hayotining mazmuni ifodalanadi. Shu sababli so‘z san’atining inson hayotidagi o‘rnini beqiyos bo‘lib, uning vositasida insonning odamiylik madaniyati rivojlantiriladi. Pedagog olimlarning fikrga kelishicha, so‘z san’ati inson hayotida umrbod hamrohlik qiladi.<sup>2</sup> Haqiqatan

<sup>1</sup> Карагнг: Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, 2005

<sup>2</sup> Стрельцова Л.Е. Искусство слова и младший школьник. // Искусство в жизни детей. Сборник. – М.: “Просвещение”, 1991. – С 102-125

ham inson yoshligidanoq so‘z san’atining devochasi bo‘lgan alla tinglab voyaga yetadi. Aynan allada musiqiylik, ohang, mazmun va obrazlilik mujassam bo‘lgan. Shu sababli alla so‘z san’atining ilk ko‘rinishi sifatida insonning ruhiyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘z san’atining muhim omillari mavjud. Bunday omillarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- til imkoniyatlardan foydalanish;
- obrazlilik;
- ma’naviy ta’sir.

Mazkur omillardan asosiysi *tildir*. Unga ko‘ra, har bir xalq o‘z ona tilisining imkoniyatlari vositasida fikrini, orzu-umidlarini va ideal maqsadlarini ifodalaydi. Bu borada misol uchun, ona tilimiz o‘zbek tilining imkoniyatlari kengligini alohida ta’kidlash lozim. Masalan, “yig‘lash” so‘zining 30 dan ortiq turlari mavjud. “ingramoq”, “yig‘lamoq”, “nola qilmoq”, “ko‘z yoshi to‘kmoq” kabilar shular jumlasidandir. So‘zlarning keng ma’noga ega bo‘lishi so‘z vositasida insonga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishning imkoniyatlari keng hisoblanadi. Bunday imkoniyatlar har bir tilga xos bo‘lib, u tillarda ham ohang, musiqiylik, ruhiy ta’sir omillari kabilar keng bo‘ladi. Shu sababli pedagog olimlar ona tili vositasida insonni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor berishadi. Misol uchun, dunyoda 200dan ortiq til mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va har bir xalqda allaning mavjudligini ta’kidlash lozim.

So‘z san’atining muhim omillaridan yana biri *obrazlilik*dir. Unga ko‘ra, fikr biror narsaga qiyoslanib ifodalananadi. Misol uchun, Oybekning “O‘zbekiston” she’ridagi quyidagi satrlarga e’tibor bering:

*Bir o‘lkaki tuprog‘ida oltin gullaydi,  
Bir o‘lkaki sal ko‘rmasa Quyosh sog‘inar.*

E’tibor berilsa, bu o‘rinda “oltin gullaydi” iborasi bilan Yurtimizning go‘zalligi va maftunkorligi ifodalangan, “sal ko‘rmasa Quyosh sog‘inar” iborasi bilan esa ona Vatanimizning serquyosh o‘lka ekanligi ta’kidlangan. Mana shu satrlar insonning ruhiyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi va kishida Vatan bilan g‘ururlanish hissini uyg‘otadi. Shu sababli so‘z san’atida obrazlilik eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, onalar Makkaga, otalar

qibлага, opalar bahorga, singillar chamanzorga qiyoslanadi. Buning natijasida inson ruhiyatiga o‘ziga xos ko‘tarinkilik, hurmat, ehtirom va izzat-ikrom tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. So‘z san‘atining navbatdagi omillaridan biri *mazmundir*. Unga ko‘ra, til vositasida obruzli shaklda ifodalanayotgan fikr chinakam mazmunga ega bo‘lishi kerak. Shu jihatdan mazmunsiz fikr insonning ongi va ruhiyatiga ta’sir qilmaydi. Masalan, “shamol esdi” iborasi “shamol g‘ir-g‘ir esdi” deb ifodalansa mazmun kuchayadi. Mazkur o‘rinda ta’kidlash lozimki, mazmun chuqur va haqqoniy bo‘lsa, uning shakli ham nafis bo‘ladi. Ko‘p hollarda asarlar ham mazmun va shaklning uyg‘unligiga e’tibor beriladi. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan olingen quyidagi lavhaga e’tibor bering:

*Homid Otabekdan Hasanaliga ishora qilib so‘radi:*

*Bu kim?*

*Otabek Hasanalining uzoqlashib ketishini kutib turdi-da, sekin dedi:*

*Qulimiz.*

E’tibor berilsa bu o‘rinda, quyidagi mazmun berilgan: birinchidan, Homidning salbiy xarakteri ifodalangan, chunki u Hasanalining oldida uning kim ekanligini so‘raydi; ikkinchidan, Otabekning odobli va madaniyatli ekanligi ifodalangan, negaki u Hasanalining uzoqlashib ketishini kutib turib javob berdi, agar u Hasanalining oldida qulimiz deb javob bergenida odobsiz hisoblanar edi; uchinchidan, yozuvchi odam qul bo‘lsa ham hurmatga sazovor ekanligini ifodalagan. Mana shunday mazmun vositasida so‘z san‘ati insonni tarbiya qiladi va ideal qahramonlar vositasida ularni yaxshilikka undaydi.

E’tibor berilsa, so‘z san‘atining til, obruzlilik va mazmuniylilik omillari insonni tarbiyalashning muhim asoslari ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shu sababli milliy va jahon pedagog olimlari so‘z san‘atining mazkur imkoniyatlari vositasida ta’lim oluvchilarni tarbiyalash masalasiga asosiy e’tiborni qaratishadi.

***Ona tili” so‘z san‘atining asosi sifatida.*** Har bir xalqning so‘z san‘atida Ona tili asosiy negiz hisoblanadi. Chunki ona tilining inson ruhiyati va ongiga ta’siri ilmiy isbotlangan bo‘lib, unga ko‘ra, inson aynan ona tili vositasida ma’naviy shakllanadi. Uning natijasida ijtimoiy hayot va jamiyatda faoliyk ko‘rsatadi. Bu borada so‘z san‘ati o‘zining asoslariga ega bo‘lib, ikki jihatdan muhim imkoniyatlarni

beradi: birinchidan, ona tilining keng imkoniyatlarini namoyon qiladi va uning targ‘ibotini amalga oshiradi; ikkinchidan, ona tilining lug‘at boyligini kuchaytiradi. Shu jihatdan Ona tilining so‘z boyligi shevalar va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarni vositasida ko‘payib boradi, bunda so‘z san‘ati muhim vazifani bajaradi.

Ona tili so‘z san‘atining asosi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) so‘z boyligini (lug‘atni) taqdim qiladi;

2) tasvirlash vositalarini beradi;

3) fikrni ikkinchi shaxsga yetkazadi.

So‘z san‘atining ona tili so‘z boyliklaridan foydalanishida muhim qonuniyatlar mavjud. Unga ko‘ra, tasvirlanayotgan fikr adabiy tilda bo‘lishi va barchaga bir xil tushunarli bo‘lishi kerak. Shu jihatdan adabiy til ona tilining me’yorlashgan shaklidir. Masalan, “ona” so‘zi adabiy til so‘z boyligi hisoblanadi, uning shevalarda aya, oyi, ena kabi shakllari mavjud. Ba’zida ijodkorlar fikrning ta’sirchanligini oshirish maqsadida shevalardagi bu kabi shakllardan ham foydalaniladi, biroq ularni ifodalashda adabiy til me’yorlariga amal qiladi. Har bir xalqning ona tilisi keng so‘z boyligiga ega va bunday so‘zlarning bir necha ma’noda shakllari mayjudligini eslatib o‘tish joiz. So‘z san‘atida ana shu shakllar imkoniyatlaridan muntazam foydalanib boriladi va natijada asarning mazmun va obruzligi ortadi. Ba’zida shunday hol kuzatiladiki, o‘zga xalqlar ona tilisida yozilgan asarlar boshqa xalqlar vakiliga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning sababi asarning asl adabiy tilda yozilganligidadir. Shu sababli mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 132 dan ortiq millat va elat vakillari bir necha ona tillarda uyg‘un foydalanib kelmoqda. Yurtimizda o‘zbek tilidan tashqari rus, qozoq, qirg‘iz, ukrain, belorus tillarida ham asarlar bitilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Bu hol mamlakatimiz so‘z san‘atining muhim boyligi hisoblanadi va insonni tarbiyalashning eng muhim ma’naviy poydevori sifatida qaraladi.

So‘z san‘atining asoslaridan birni *tasvirlashdir*. Unga ko‘ra, mazmunni ifodalashda o‘quvchi uchun qulay, oson, tushunarli va hayajonli shakllarga tayanilishi kerak. Bunda Ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalaniladi. Shu sababli so‘z san‘atida qiyoslash, o‘xshatish, namuna qilib ko‘rsatish kabi tasvir vositalaridan foydalanishga asosiy e’tibor beriladi. Biror narsaga qiyos qilinganida

fikr ishonchli chiqishi kerak, masalan, Quyoshni Alisher Navoiy nonvoyning tandiriga qiyoslaydi va bunda Quyoshning issiqligiga etiborni qaratadi. Chunki o'quvchi uchun tandirning issiqligi tanish hodisa. Shuningdek, o'xshatishda ham mantiqli fikrga asoslaniladi, masalan, qabog'i uyulgan kishi bulutli kunga o'xshatiladi, bunda bulutning Quyoshni to'sib qo'yishiga ishora qilinadi va insonning ochiq yuz bo'lishi charog'onlikni, uning tund bilan berishi qorong'ulikni ifodalaydi. So'z san'atida namuna vositasidan ham oqilona foydalaniladi va unda yaxshi-yomon farqlab ko'rsatiladi. Shu sababli ijobji qahramonlardan inson ibrnat oladi va salbiy qahramonlarga o'xshamasalikka intiladi, bu hol namunaning muhim ko'rinishidir. Diqqat qilinsa, so'z san'atida ona tilining bunday tasvirn vositalaridan oqilona foydalanish bilan insonning ruhiyati va ahloqiga ta'sir ko'rsatadi. Bu borada ayniqsa, she'riy asarlarning imkoniyatlari keng ekanligini ta'kidlash lozim. Shu jihatdan Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ridan olingan quyidagi parchaga e'tibor bering:

Besh asrkim nazmi saroyni,  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig'i yetmagan joyni,  
Qalam bilan oldi Alisher.

Bu o'rinda shoir she'riyat olamini saroya, ulug' bobomiz Alisher Navoiyni sherga o'xshatgan va qiyoslagan. Buning natijasida fikr ta'sirli chiqib, o'quvchining ongiga tez o'rashib qoladi.

So'z san'atining muhim vositalaridan biri *fikrni* yetkazishdir. Unga ko'ra, ifodalangan fikr ikkinchi shaxsga nafis shaklda yetkaziladi. Bu borada so'z san'atining muhim shakllaridan biri maqollar juda keng imkoniyatlarni beradi. Maqollarda fikr quyma, obrazli va mazmunli shaklda ifodalanadi, natijada insonning xotirasida uzoq saqlanadi. Misol uchun, Ish ishtaha ochar-Dangasa ishdan qochar, Sho'x bola – Yaxshi bola, O'qib o'rgangan olim – o'qimagan o'ziga zolim va h.k. Mazkur maqollarda fikrlar obrazli, ohangli va oddiy shakllarda ifodalangan, lekin ularda mazmun juda chuqr hisoblanadi. Shu sababli so'z san'atidagi asosiy vosita fikrni uzg'atish muhim omillardan biridir.

E'tibor berilsa, so'z san'atining bunday imkoniyatlari shaxs tarbiyasida muhim ahamiyatga ega va ular ko'p hollarda ona tiliga

asoslanadi. Shu sababli mamlakatimiz ta'lif tizimida boshlang'ich sinflardan boshlab "Ona tili" o'quv fani o'qitiladi.

**"O'qish" so'z san'atining amaliy omili sifatida.** So'z san'atining muhim qonuniyatlaridan biri o'qish va uqishdir. Unga ko'ra, she'r, qissa, roman, hikoya, doston, maqol, matal kabi janrlarda bitilgan badiiy asarlar mustaqil o'qilishi va ularning mazmuni uqib olinishi lozim. Shu sababli boshlshang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning o'qish ko'nikmasi va madaniyatini shakllantirishga, ularni kitobxonlikka ko'niktirishda asosiy e'tibor qaratiladi.

So'z san'atida o'qishning o'ziga xos qonuniyatları mavjud. Bunday qonuniyatlarining asosiyalarini quyidagilar tashkil etadi:

- yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlari mos asarlarni tanlash;
- mutolaa jarayoni uchun vaqt va joy tanlash;
- o'qishning estetik va gigiyenik talablariga rioxva qilish.

So'z san'atining asosiy qonuniyatlaridan hisoblangan o'qish madaniyatida insonning yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlariga mos asarlarni tanlash muhim o'rinn tutadi. Unga ko'ra, o'qish uchun tanlanayotgan asarning inson imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tanlshangan badiiy asarlar qisqa hajmli, til jihatidan ravon, ifoda jihatidan obrazli va mazmun jihatidan quyma xususiyatlarga ega bo'lishi taqozo etiladi. Aslida mazkurn masala asrlar davomida pedagoglar va katta yoshlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Masalan, Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" (Qush tili) asarida eslab yozadi: "Esimda, 7-8 yoshlarda edim. Menga Farudiddin Attorning "Mantiq ut-tayr" (Qush nutqi) asari yoqib qoldi. Natijada meni o'rtoqlarimga qo'shilgim ham kelmay qoldi va hamma narsadan ko'nglim sovidi. Buni sezib qolgan ota-onam asarni tortib olib, yashirib qo'yishdi. Lekin men asarni yodlab olgan edim va ichimda takrorlab yurardim". Chunki bu asarda inson ruhiyatining ichki kechinmalari tasvirlangan bo'lib, u yosh Alisherga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli otanonasi uning yoshligini hisobga olib, bu asarni o'qishini ta'qilaydi. Demak, o'qish uchun tanlanadigan asar va uni to'g'ri tanlash masalasi asrlar davomida pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Negaki insonning yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlariga mos ravishda tanlangan asarlar uning so'z san'ati asoslaridan to'g'ri bahramand bo'lishiga olib keladi. Shu sababli

boshlang'ich sinf o'quvchilariga kitob tanlashda yordam ko'rsatish bugungi kundagi eng muhim pedagogik vazifalardan biri bo'lib, uning vositasida o'quvchilar so'z san'ati olamiga olib kiriladi.

So'z san'atining muhim qonuniyatlaridan biri mutolaa uchun vaqt va joy tanlashdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda inson bo'sh vaqtlarida kitob mutolaa qiladi. Biroq pedagog olimlar o'quvchilarni mutolaa uchun vaqt va joy tanlash ko'nikmasini shakllantirish lozimligini ta'kidlashadi. Masalan, tong payti mutolaa uchun eng qulay vaqtadir va bunda tabiatning sokin bo'lishi, inson miyasining yorqin ishlashi hamda mutolaaga xalaqit beruvchi omillarning bo'imasligi muhim o'rinn tutadi. Yoki, mutolaa uchun shinam, bahavo va yorqin nurga ega joyning tanlanishi tavsiya etiladi. Aksincha, nimqorong'u xonada mutolaa qilish insonga jismoniy va ruhiy jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining mutolaa asoslari bo'yicha ko'nikmasini shakllantirish taqozo etiladi.

So'z san'atining yana bir muhim qonuniyatlaridan biri o'qishning estetik va gigiyenik talablariga rioya etishdir. Unga ko'ra, nashr mahsulotlari o'quvchiga jismoniy va ruhiy ta'sir o'tkazmaydigan shaklda tayyorlanishi, kitobxonlarning gigiyenik talablarga javob beradigan kitoblarni tanlashi taqozo etiladi. Chunki bunday talablar mutolaa jarayonining sifati, mazmuni va salmog'i bilan bog'liq hodisadir. Shu sababli keyingi paytlarda kitob dizayni tarkib topdi, mazkur yondashuvga ko'ra, kitoblarning estetik va gigiyenik talablar asosida nashr etishidan tortib, kitobxonning mutolaa jarayoniga bo'lgan shartlarni ham o'rganadi. Buning natijasida so'z zavqlanish, matn mazmunidan chuqur ma'nolarni o'qish va o'qish vositasida aqlning rivojlanishi kabi imkoniyatlarga ega bo'linadi. Shu sababli so'z san'atining mutolaa qiluvchilar toifalari asosida targ'ibot qilish tarkib topgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan Qoidalarga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljalangan o'quv adabiyotlari, ilmiy va metodik ishlanmalar estetik va gigiyenik talablarga javob berishi shart. Buning natijasida o'quvchilarning so'z san'ati bilan kutilgan darajada tanishtirishga erishiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinflarda so'z san'ati asoslari bilan o'quvchilarni tanishtirish ART texnologiya va kreativlik muhim

asoslaridan hisoblanadi. Mazkur san'atning muhim negizlaridan biri sifatida "Ona tili va o'qish savodxonligi" o'quv fani o'qitiladi. Ushbu o'quv fani o'quvchilarni so'z san'ati olamiga olib kirishning debochasi hisoblanadi.

**So'z san'atini o'rganishning ahamiyati.** Ta'lim tizimi vositasida so'z san'atini o'rganish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda "Ona tili va o'qish savodxonligi" o'quv fani vositasida so'z san'atining ilk asoslari bilan tanishiladi.

Boshlang'ich sinflarda so'z san'atini o'rganishning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) o'quvchilarning his-tuyg'ularini shakllantirish;
- 2) o'quvchilarning estetik ongini tarkib toptirish;
- 3) o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.

Boshlang'ich sinflarda so'z san'ati o'quvchilarning *his-tuyg'ularini* shakllantirish omili hisoblanadi. Chunki aynan hissiyot, tuyg'u va ruhiy kechinmalar o'quvchilarning ahloqi, aqli va ongingin shakllanishi uchun asos hisoblanadi. Mazkur masala hozirgi zamон texnologik rivojlanish jarayonida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi texnik imkoniyatlardan keng foydalananmoqda va ulardagi pedagogik ishlov berilmagan ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmoqda. Buning natijasida o'quvchilarning his-tuyg'ularida nisbatan qotish yuzaga kela boshlagan. Sharq pedagog mutafakkirlari insonning his-tuyg'ulari qotib qolsa, ularning ongida yomonlik va yovuzlik illatlari paydo bo'ladi deb hisoblaydi.<sup>3</sup> Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsnинг his-tuyg'ularini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi va bunda so'z san'ati muhim vazifani bajaradi. Masalan, bolalar adabiyotining she'riyatini kuzatsak, o'quvchilarning his-tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgan juda ko'p g'oyalar, obrazlar va tavsiyalar o'z ifodasini topgan. Misol uchun, Oybekning "Qutlug' qon" asarida keltirilgan bolalarning qo'shig'idan olingen quyidagi parchaga e'tibor bering:

Oymojon pilla,  
Qanotlari tilla.

<sup>3</sup> Каранг: Юсуф Хос Жожиб. Кутадгу билиг. – Тошкент, 2005

Oymomoning pillaga o'xshatilishi to'g'ri, ayni paytda uning qanotlari yo'qligi ma'lum. Shu o'rinda o'quvchi mazkur masalaning yechimini topishga xarakat qiladi va o'qituvchi yordamida Oyning "taralayotgan nurlari" uning qanogtlari ekanligini anglaydi va 15 kunlik to'lin oyning nurlari tilla-zar rangida bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bunday o'xshatishlardan zavqlanadi, chunki ularning his-tuyg'ulari beg'uborligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan Quyoni bobo, Yerni ona, Tabiatni makon kabi sifatlash boshlang'ich omillar sinf o'quvchilarining his-tuyg'ularini rivojlantiruvchi omillar hisoblanadi. E'tibor berilsa, so'z san'atining bunday imkoniyatlari hali rivojlanishda bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining beg'ubor his-tuyg'ularini o'ziga xos o'xshatishlar va mazmunlar vositasida boyitib boradi.

So'z san'atini o'rganishdagi yana bir amaliy jihat bu o'quvchilarining *estetik ongini* shakllantirishdir. Unga ko'ra, o'quvchilarda go'zallikni his qilish va uni sevish, inson va tabiatning go'zal ekanligini anglash, nafosat insoniylikning muhim omillaridan biri ekanligi to'g'risidagi ko'nikmalarni shakllantirish tushuniladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilar butun olamga nisbatan zavq va shavq bilan munosabatda bo'ladi, ular uchun xunuk narsaning o'zi yo'q. E'tibor berilsa, o'quvchilar uchun uy hayvonlarining barchasi do'st hisoblanadi. Bunday munosabat o'quvchilarda estetik ongning shakllana boshlaganidan dalolat beradi. Yoki kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar toifasi orasida boshlang'ich sinf o'quvchilar gullarni eng yaxshi ko'ruvchi shaxslar hisoblanadi. Shu sababli pedagoglar aynan mana shu ko'nikmani shakllantirish bilan o'quvchilarda estetik ongini shakllangan o'quvchida ruhiy ko'tarinkilik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik ko'nikmalarini paydo bo'ladi va aksincha, estetik ongi shakllanish jarayonida bo'lgan o'quvchilarda ikkilanish, o'ziga ishonmaslik, lanjlik kabi xususiyatlar uchraydi. Bularning barchasi so'z san'ati vositasida o'quvchilarining estetik ongini shakllantirish zaruriyatini ko'rsatadi.

So'z san'atini o'rganishning ahamiyatlaridan biri o'quvchilarining *kitobxonlik madaniyatini* shakllantirish bilan belgilanadi. Unga ko'ra, o'quvchilarining kitobxonlik madaniyati ular ma'naviy olamining shakllanish asosi hisoblanadi. Keyingi paytlarda boshlang'ich sinf

o'quvchilarida "Kitobim-oftobim", "Kitobim-qadrdon do'stim", "Kitobim-hamkorim" kabi g'oyalarning tarkib topganligi muhim hisoblanadi. Ayni paytda, keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilar o'rtasida o'ziga xos kitobxonlik paydo bo'lganligini eslatib o'tish joiz. Bu borada o'qituvchilar, mutaxassislar, ota-onalar va katta yoshlilarning o'quvchilarga kitob tanlash masalasida amaliy yordam berishiga ehtiyoj yuqori ekanligini eslatib o'tish joiz. Shuni ta'kidlash lozimki, xalqimiz genofondida kitobga bo'lgan muhabbat azaliy hisoblanadi. Ilgari mutafakkirlarimiz minglab kitoblarni mutolaa qilishgan va buning natijasida ularning fikr doirasini kengaygan. Shu jihatdan kitobxonlik madaniyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, ularning o'z fikrlarini mustaqil ifodalashi va o'qigan kitoblarining mazmunini tushunishi bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Bularning barchasi so'z sanatini o'rganishning kitobxonlik madaniyatidagi ahamiyatini belgilaydi. Shunday qilib so'z san'ati asoslari ART texnologiya va kreativlikning eng muhim omillaridan biridir. Mazkur masalani idrok etish va uni boshlang'ich sinflarda amaliyotga joriy etish asoslarini egallash zaruriyat hisoblanadi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. So'z san'ati omillari nimalardan iborat?
2. "Ona tili" so'z san'atining asosi sifatida qanday o'rinn tutadi?
3. "O'qish" so'z san'atining amaliy omili sifatida qanday imkoniyatlarni beradi?
4. So'z san'atini o'rganishning ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?

## 2.2. ONA TILI – BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SO‘Z SAN‘ATINING ASOSI

### REJA:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Ona tili vositasida milliy tilga hurmat ruhida tarbiyalash.
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish.
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq ko‘nikmasini tarkib toptirish.
4. Ona tili – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z san‘ati bo‘yicha layoqatini shakllantirish omili sifatida.

**Tayanch so‘zlar:** so‘z san‘ati, ona tili, o‘quvchi, boshlang‘ich, milliylik, nutq, ko‘nikma, bilim.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Ona tili vositasida milliy tilga hurmat ruhida tarbiyalash.** So‘z san‘atining eng muhim negizi bu milliy tildir. Milliy til muayyan halqning asrlar davomida rivojlanib kelgan, ilmiy va badiiy yozuvda foydalilanidigan tilning shaklidir. Inson milliy til vositasida milliy ong, milliy tuyg‘u va milliy xarakterga ega bo‘ladi. Shu sababli so‘z san‘ati milliy til vositasida insonni tarbiyalashga alohida e’tibor beradi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, har bir halqning o‘ziga xos milliy tili mavjud. Mazkur masalani idrok etish ta’lim tizimi vositasida o‘quvchilarni milliy tilga hurmat ruhida to‘g‘ri tarbiyalash imkonini beradi.

Milliy tilning asoslari quyidagilardan iborat:

1. shevalar;
2. so‘z boyligi (lug‘at);
3. adabiy til.

Milliy tilning *shevalari* o‘zbek tilida keng ko‘lamli bo‘lib, ular til xazinamizning boyligi hisoblanadi. Keyingi paytlarda mamlakatimizda shevalarni o‘rganish va ulardagi so‘zlarni ilmiy muomalaga olib kirish jarayoni kuchaydi. Buning natijasida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan va turli shevalarda so‘zlaydigan halqimizning milliy birligi kuchayib bormoqda. Adabiy va badiiy asarlarda ba’zida shevalar nomlari ishlatilib, ular muomalaga

olib kiriladi. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asarida Toshkent shevasining go‘zal namunalari ishlatilgan yoki uning “Mehrobdan chayon” asarida esa Qo‘qon shevasining o‘ziga xos namunalari badiiy ifodalangan. Buning natijasida asarni o‘qiganlarning so‘z boyligi rivojlanib boradi.

Milliy tilning eng muhim asoslaridan biri uning *so‘z boyligi (lug‘ati)*dir. So‘z boyligi milliy tilning asosiy hazinasi hisoblanadi va uning asosida so‘zlash, asarlar bitish hamda muloqotga kirishish imkoniyatlari kengayib boradi. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mpilliyl tilimizning 80 000dan ortiq so‘z va so‘z birikmalari izohlab berilgan. Bu lug‘at boyligi tilimizning so‘z boyligidan namuna xolos. Shuning o‘zi milliy tilimizda so‘z boyligining naqadar keng ekanligini ko‘rsatadi. So‘z san‘atida so‘z boyligining bir necha ma’nodoshlaridan oqilona foydalaniladi. Buning natijasida insonning ongida milliy tilga bo‘lgan hurmat va muhabbat paydo bo‘лади.

Milliy tilning shevalari va so‘z boyligi sayqallanib *adabiy til* shaklini oladi. Adabiy til barchaga tushunarli bo‘lgan, so‘zlash va yozish qonuniyatlariga asoslangan til ko‘rinishidir. Shu sababli inson qandan sheva so‘zlashidan qat‘iy nazar ilmiy va amaliy muloqotlarda adabiy tildan foydalanadi. Keyingi paytlarda mamlakatimizda adabiy tilning rivojlanishi shevalardan tashqari chetdan o‘zlashgan so‘zlar hisobiga ham boyib bormoqda. Biroq, bu o‘zlashgan so‘zlar odamlarga tushunarli tarzda adabiy til qoidalariga binoan ifodalanishi kerak.

Boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” o‘quv fani o‘quvchilarda milliy tilga hurmat ko‘nikmasini shakllantirshning eng muhim omili hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor beriladi:

1. o‘quvchilarni so‘zlarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish;
2. o‘quvchilarining lug‘at boyligini rivojlantirish;
3. o‘quvchilarni adabiy tilda yozish ko‘nikmasini tarkib toptirish.

Mazkur fan vositasida o‘quvchilar eng avvalo *so‘zlarni to‘g‘ri yozishga* o‘rganadi. Chunki so‘zlarni to‘g‘ri yozish til savodxonligining muhim asosi hisoblanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nafaqat milliy til, balki xorijiy til so‘zlarini ham to‘g‘ri yozishga ko‘niktiriladi. Buning natijasida

o'quvchilarda milliy til vositasida o'zga tillarni o'zlashtirish ko'nikmasi tarkib topadi. To'g'ri yozishga ko'nikkan o'quvchining ongi va ruhiyatida o'z ona tilisiga bo'lgan tuyg'u shakllanadi. Bunday tuyg'uning mavjud bo'lishi o'quvchilarini to'g'ri tarbiyalash uchun asos bo'ladi.

"Ona tili" o'quv fani vositasida o'quvchilarining *lug'at boyligini* rivojlantirish ularni so'z san'ati olamiga olib kirishning eng muhim negizlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun tez aytishlar, topishmoqlar, maqollar kabilarni o'zlashtirish davlat ta'lim standartlari tomonidan belgilab qo'yilgan. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilar tez aytish vositasida nafaqat so'zlarning to'g'ri talaffuzini, balki ularning ma'nosini ham o'zlashtirib boradi. Tez aytishlar bolalar so'z boyligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida qabul qilinganligini eslatib o'tish joiz.

Ushbu fan vositasida o'quvchilarining *adabiy tilda* yozish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy til qoidalarini o'zlashtirishi va nashr mahsulotlaridan qiyinchiliksiz foydalanishi yuzaga keladi. Adabiy tilda yozish ko'nikmasi o'quvchilarining ongida ruhiy birlik ko'nikmasini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi. Masalan, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nisbatan ko'p foizi adabiy tilda yozish ko'nikmasiga ega. Bu borada faqatgina fonetik savodxonlikni kuchaytirish taqozo etiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarining "x" va "h" harflarini farqlay olmasligi yoki "da" qo'shimchasi o'rniда "ga" qo'shimchasini ishlatishi kuzatiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy tilda yozish ko'nikmasini yanada kuchaytirish bilan ularning so'z san'ati olamidan bahramand bo'lishiga erishish mumkin.

"Ona tili" aynan mana shu jihatlar bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tilga hurmat ruhida tarbiyalash omili hisoblanadi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish.** So'z san'atining eng muhim ehtiyojlaridan biri insonning nutq madaniyatiga ega bo'lishini ta'minlashdir. Unga ko'ra, nutq madaniyati – bu insonning so'z boyligi va uning go'zalligidan unumli foydalanishidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilar aynan nutq

madaniyati vositasida so'zni his qiladi, uning mazmunini anglaydi va aynan so'z vositasida kechinmalarini ifodalaydi. Shu jihatdan "Ona tili" o'quv fani vositasida o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda mazkur fan muhim vosita hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

1. o'quvchilarini so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish;
2. o'quvchilarini gap tuzishga o'rgatish;
3. o'quvchilarini o'z fikrini ifodalashga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirish zaruriyat hisoblanadi. Chunki o'quvchilar oilalardagi turli so'zlashuv va shevalar ta'sirida so'zlarni ko'p hollarda nogto'g'ri talaffuz qilishga ko'nikkan bo'ladi. Masalan, bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilar ko'p hollarda oilalardagi so'zlarni talaffuz qilishning rang-barang shakllarini o'zlashtiradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahrida "votti" qo'shimchasini, Toshkent viloyatida "yapti", mamlakatimizning janubiy viloyatlarida "j" harfini qo'shib ishlatish kabi holatlar ko'p uchraydi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi adabiy til qonuniyatlari asosida o'rgatiladi. Buning natijasida o'quvchilarining til madaniyati shakllanadi va so'zning ma'nosidan zavqlanish tarkib topadi. E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida she'r yozishga qiziqish kabilar ko'p uchraydi va qizig'i shundaki, o'quvchilarining o'z she'rlerida so'zlarni adabiy til asosida yozishi kuzatiladi. Demak, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish taqozo etiladi.

"Ona tili" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap tuzish ko'nikmasini shakllantirish ularni so'z san'ati olamiga olib kirishning muhim asoslaridan hisoblanadi. Bunda o'quvchilarining yozma va og'zaki gap tuzish ko'nikmasini shakllantirish muhim omillardan biridir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma gap tuzish ko'nikmasi tez shakllanadi, chunki bunda o'qituvchining ijobjiy ta'siri mavjud va o'quv dasturi ana shu yo'naliшhga yo'naltiriladi. Ayni paytda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki gap tuzish ko'nikmasida morakkabliklar

uchraydi va bu hol ularning o‘z fikrlarini erkin ifodalashga mone’lik qiladi. O‘quvchilar ko‘p hollarda o‘zlarining so‘z boyligidan foydalanishda qiynaladi va ba’zida tortinchoqlik tufayli ularda duduqlanish holati ham yuzaga keladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma va og‘zaki gap tuzish ko‘nikmalarini uyg‘un shakllantirish taqozo etiladi. Mazkur masalaga e’tibor berish dolzarb bo‘lib turibdi va oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari aynan mana shunday masalalar bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini egallashi muhimdir.

“Ona tili” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘z *fikrlarini* to‘liq ifodalashga o‘rgatish muhim masalalardan biridir. Buning uchun o‘quvchilarda tortinchoqlik, bilmaganini so‘ramasalik, uyatchanlik kabi holatlarni o‘z vaqtida bartaraf etib borish taqozo etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ayni ana shunday holatlar tufayli fikrlarini kutilgan darajada ifodalay olmaydi. Natijada bu holat ularda odat tusiga kirib qoladi. Bunda o‘qituvchining asosiy vazifasi individual yondashuvlar vositasida o‘quvchilarni fikrlarini ifodalashga o‘rgatishdan iborat bo‘lishi kerak. Buning natijasida o‘quvchilarning so‘z san’ati asoslarini o‘zlashtirishi qulaylashadi.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq ko‘nikmasini tarkib toptirish.** So‘z san’ating eng muhim negizlaridan biri insonning og‘zaki nutqqa ega bo‘lishidir. Unga ko‘ra, inson o‘z ona tilisi yoki milliy tilining imkoniyatlaridan foydalangan holda go‘zal og‘zaki nutqqa ega bo‘lishi kerak. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi.

“Ona tili” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq ko‘nikmasini kutilgan darajada shakllantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. o‘quvchilarni obrazli so‘zlashga o‘rgatish;
2. o‘quvchilarning nutqidagi ijobiylarini rivojlantirish;
3. o‘quvchilarning nutq ko‘nikmasini shakllantirishda turli vositalardan foydalanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarida o‘quvchilarni *obrazli so‘zlashishga* o‘rgatish birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Bunda ko‘p hollarda ular qiyoslash, o‘xshatish kabi tasviriy ifodalar vositasida so‘zlashga ko‘niktiriladi. Masalan, qorni oppoq qor, ko‘kni ko‘m-

ko‘k kabi kuchaytirish tasviriy vositalari bilan so‘zlash nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘p hollarda obrazli so‘zlash ko‘nikmasini katta yoshlilardan, darsliklardan va multfilmlardan o‘zlashtiradi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining obrazli so‘zlashish ko‘nikmasini kuzatib borish va uni tartibga solish muhim hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilar sariq so‘zini kuchaytirish maqsadidi sapsariq deb ishlatishadi. Biroq aynan “sapsariq” so‘zi ma’noga ega emas, uning o‘rniga “juda sariq” sifatini ishlatish to‘g‘ri hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni to‘g‘ri so‘zlashishga o‘rgatish muhim hisoblanadi, aslida to‘g‘ri so‘zlash ham san’atdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining *nutqi* rivojlanib borish jarayonida bo‘lganligi ularda judo‘a ko‘p yangi holatlar va xususiyatlar uchraydi. Masalan, o‘quvchi sinfdoshining shevasini o‘zlashtirishi yoki muayyan hududning so‘zlashuv ko‘nikmasiga qiziqliki kuzatiladi. Bunday holatlarda o‘quvchi nutqidagi to‘g‘ri talaffuz, to‘g‘ri so‘zlash, adabiy til qoidalariga amal qilish kabi jihatlar rivojlantirilishi va ularning nutqidagi shevada so‘zlash, jargonda gapirish kabi hususiyatlar korreksiya qilinishi taqozo etiladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq faoliyatini to‘g‘ri rivojlantiriladi va fiziologlarning fikricha, nutqning to‘g‘ri rivojlanishi inson miyasining to‘g‘ri taraqqiy etishiga asoslardan biri hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yorqin nutqqa ega bo‘lishi ularning so‘z san’atidan zavqlanishi asoslaridan hisoblanadi.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq ko‘nikmasini shakllantirishda** turli vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday vositalarning asosiyları sifatida quyidagilarni ta’kidlab o‘tish lozim:

- o‘quvchilarning so‘zlashuv nutqini muntazam kuzatib borish;
- o‘quvchilarni so‘zlayotganda gapini bo‘imaslik;
- o‘quvchilarning so‘zlarni talaffuz qilishiga e’tibor berish;
- o‘quvchilarni imkon qadar adabiy tilda so‘zlashishga ko‘niktirish va h.k.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq ko‘nikmasini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi.

**Ona tili – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z san’ati**

**bo'yicha layoqatini shakllantirish omili sifatida.** So'z san'ati eng avvalo insonning ijodiy layoqatlariiga tayanadi va ularni rivojlantirishning badiiy-estetik omili hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda Ona tili o'quvchilarning so'z san'ati bo'yicha layoqatini rivojlantirishning eng muhim asosi hisoblanadi. Mazkur fan vositasida o'quvchilarning quyidagi layoqatlarini rivojlantirishga e'tibor beriladi:

- o'quvchilarning badiiy ijod va san'atga bo'lgan qiziqishini shakllantirish;
- o'quvchilarni dastlabki bosqichda badiiy ijod va san'at negizlari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarning so'z san'ati bo'yicha layoqatini yo'naltirish.

Ona tili o'quv fani o'quvchilarning *badiiy ijod* va san'atga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda asosiy e'tiborni til asoslaridan zavqlanish, so'zlarning ma'nolarini anglash va ravon so'zlash ko'nikmalarini o'zlashtirish masalalariga qaratadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarlarning tili va mazmunini tushunish ko'nikmasi tarkib topadi. Shu sababli mazkur o'quv fani mashg'ulotlarida asosiy e'tibor bolalar adabiyoti namunalarini o'rganishga qaratiladi. Bu borada tez aytish, topishmoqlarning javobini topish, she'rlar yodlash kabi metodlardan foydalangan holda o'quvchilarning badiiy idroki va tasavvurini shakllantiradi. Ayni paytda, ushbu o'quv fanining kutilgan darajada o'qitilishini o'quvchilarning tabiatida mavjud bo'lgan ijodkorlik tuyg'ularini shakllantirishga ham hizmat qilishini eslatib o'tish joiz.

Ona tili o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy ijodning eng muhim *negizlari* bilan tanishtirilishi muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki mazkur masala keyinchalik ta'lim bosqichlarida chuqurlashtirilgan tarzda davom ettiriladi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining she'r yodlash ko'nikmasining shakllanishi ta'limning keyingi bosqichlarida ularning dostonlarning o'rganishga tayyorlaydi. O'zbek so'z san'atida dostonlarning nisbatan ko'pchiligi she'riy janrda yozilgan va bu hol o'quvchilarda estetik tuyg'ularni kutilgan darajada rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli keyingi paytlarda ushbu o'quv fani bo'yicha tayyorlanayotgan yangi avlod darsliklarida imkonqadar so'z san'atining turli janrlaridan namunalar berish va shu namunalar asosida so'z turkumlariga

ta'rif hosil qilish metodikasiga amal qilinmoqda. Buning natijasida o'quvchilarning amaliyotdan nazariyaga tamoyili asosida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tarkib topdi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning 3-4-sinfdan boshlab mustaqil ijod qilishga qiziqishi yuzaga keladi. Dastlabki bosqichda bo'lsa-da o'quvchilar kichik hajmdagi she'r va hikoyalarni yozishga intiladi. Shu jihatdan Ona tili o'quv fani mashg'ulotlarida o'quvchilarning mazkur *layoqatlarini* rivojlantirish ularning so'z san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirishga asos bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich sinflarda yoziladigan bayon va insholarning o'quvchilar ijodiy layoqatini maqsadli rivojlantirish imkonini beradi. Chunki bayon yozishda o'quvchilar asosiy e'tiborini o'z fikrlarini ravon ifodalashga, insho yozishda esa mazmunni to'liq tasvirlashga qaratadi. Buning natijasida o'quvchilarning ijodiy layoqatlari tadrijiy rivojlanib boradi hamda aynan mana shu tajribalar vositasida ulardagi mustaqil badiiy ijod qilish ko'nikmasi tabiiy shakllanadi. Shunday qilib Ona tili boshlang'ich sinflarda so'z san'atining asosi sifatida muhim o'rinn tutadi. Mazkur o'quv fani o'quvchilarni dastlabki bosqichda amaliy, nazariy va uslubiy jihatdan so'z san'ati olamiga olib kiradi. Bularning barchasi boshlang'ich sinflarda mazkur o'quv fanini butunlay yangi yondashuvlar asosida o'qitish zaruriyatini ko'rsatadi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Ona tili vositasida milliy tilga hurmat ruhida tarbiyalash deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq ko'nikmasini tarkib toptirish qanday yo'l tutilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi?
4. Ona tili – boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z san'ati bo'yicha layoqatini shakllantirish omili sifatida nimalarni ko'rsatish mumkin?

### **3.3. O'QISH – BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z SAN'ATINING OMILI**

#### **REJA:**

1. O'qish – boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish asosi sifatida.
2. O'qib tushunish – badiiy asarning mazmuni va badiyatini idrok etish omili.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tushunish va tahlil qilish layoqatini shakllantirish.
4. O'qish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy ijodkorlik ko'nikmasini tarkib toptirish.

**Tayanch so'zlar:** so'z san'ati, o'qish, boshlang'ich, o'quvchilar, sinf, omillar, janrlar, bilim, ko'nikma, amaliyot.

**O'qish – boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish asosi sifatida.** Boshlang'ich sinflarda "ART texnologiya va kreativlik" fanining muhim tarkibiy qismi bo'lgan so'z san'ati negizlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu bilan o'quvchilarining his-tuyg'ulari, estetik ongi va orzu-maqsadlarini to'g'ri shakllantirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan O'qish o'quv fanining mazkur masaladagi nazariy va amaliy ahamiyati muhim hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini so'z san'ati omillari bilan tanishtirish nazariyasi va metodikasini o'zlashtirishi taqozo etiladi.

O'qish o'quv fani eng avvalo o'quvchilarda so'z san'atining birlamchi unsurlaridan bo'lgan *mustaqil fikrlash* ko'nikmasini shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qigan badiiy asarlar namunalarini asosida o'zlarining mustaqil fikriga ega bo'lishi kerak. Bu masala boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasida muhim o'rinni tutadi. Chunki badiiy asar namunalarini o'qishdan asosiy maqsad insonning o'z mustaqil fikriga ega bo'lishidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikma-

sin shakllantirishda O'qish o'quv fani keng imkoniyatlarga ega. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- 1) mazkur o'quv fanida berilgan badiiy asar namunalarining mazmunini tushuntirish;
- 2) ushbu o'quv fanidagi eng muhim badiiy asar namunalarini o'qitish;
- 3) bu o'quv fanidagi baditiy asar namunalarini mazmunini so'zlab berishga o'rgatish.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan O'qish o'quv fanida badiiy asarlarning eng yaxshi namunalarini taqdim etilgan va imkon qadar o'quvchilarining imkoniyatlariga mos mazmunga ega asrlarni tanlash amalga oshirilgan. Buning natijasida o'quvchilarining badiiy asar namunalarini *mazmunini tushunishi* tabiiy ravishda tarkib topadi. Misol uchun, amaldagi 1-sinf o'qish kitobida o'ziga badiiy asar namunalarini berilgan. Mazkur namunalarning ko'pchiligin she'riy shakldagi asarlar tashkil etadi. Buning natijasida o'quvchilarining badiiy estetik ongini kutilgan darajada shakllantirishga erishilmoqda. Shuningdek, mazkur vositasida badiiy asar namunalarining eng yaxshilarini o'qitish masalasi ham muhim o'rinni tutadi. Chunki aynan o'qitish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z san'ati olamiga olib kiriladi. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bu fan vositasida o'zlar o'qigan badiiy asar namunalarining mazmunini *so'zlab berishga* o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Buning vositasida ularning xotirasi kutilgan darajada shakllantiriladi va o'quvchilar badiiy so'z san'atining ruhiyatga ijobjiy ta'siridan bahramando' bo'ladi. E'tibor berilsa, O'qish o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy asar mazmunini tushunishi, ko'proq o'qishi va o'qigan asarlarining mazmunini *so'zlab berishga* o'rgatish bilan ularning mustaqil fikrini kutilgan darajada shakllantirishga erishish mumkin.

Pedagogik tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilk sinflardayoq mustaqil fikrlashga bo'lgan layoqati mayjudligi alohida ta'kidlanadi. Misol uchun, bu borada mashhur pedagog olimlardan Konstantin Chukovskiyning quyidagi fikri ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan: "Har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi –

buyuk tilshunos, ulug' aql kishisi va shoirdir".<sup>4</sup> Buning ma'nosi shuki, boshlang'ich sinf o'quvchilar so'zning ma'no mazmuni va shakllarini tushunish imkoniyatiga ega, ular badiiy so'z ustida ishlay oladi hamda o'z imkoniyatlari darajasida ijod qiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini O'qish kabi o'quv fanlari vositasida so'z san'ati olamiga olib kirish va mazkur san'atning negizi bo'lgan mustaqil fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari mavjud. Butun dunyo xalqlari boshlang'ich ta'lif jarayonida aynan ana shunday yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrni shakllantirishga e'tibor berib kelmoqda.

**O'qib tushunish – badiiy asarning mazmuni va badiyatini idrok etish omili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z san'ati asaoslardan bahramand bo'lishi eng avvalo ularning *o'qib tushunish* ko'nikmasini kutilgan darajada shakllantirishga bog'liq. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi o'qigan matnlarining ma'no mazmunini to'g'rnii tushunishi kerak va uning tushunchalari asarning mazmuniga mos bo'lishi lozim. Bu masakla bo'yicha keyingi yillarda jahon pedagogikasida baxs-munozaralar olib borilmoqda. Chunki Internet global takrmog'i orqali uzatilayotgan badiiy matnlar qisqaligi va obrazlardan xoliligi bilan tushunarsiz mazmunga ega bo'lib qolmoqda. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni o'qib tushunmaslik holatlari tarkib topmoqda. Shu sababli TIMSS kabi halqaro ta'lif dasturlarida o'quvchilarining matematik savodxonligi bilan bir qatorda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish masalasi asosiy talablardan biri sifatida aks etgan. Chunki insonning o'zi o'qigan matnining mazmunini tushunmasligi uning fiksatsizligiga olib keladi va bu o'rinda unda mustaqil fikrning shakllanishi murakkab kechishini ta'kidlash lozim. Shu jihatdan O'qish o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

1. o'quvchilarini tez o'qishga ko'niktirish;
  2. o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish;
  3. o'quvchilarini mazmunli o'qish ko'nikmasini tarkib toptirish.
- Bizning yondashuvimizga ko'ra, aynan mana shunday ko'nik-

malarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish bilan ularni asar mazmunini o'qib tushunishga tayyorlash mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining *tez o'qish* ko'nikmasini shakllantirish muhim metodik masalalardan biri bo'lib, uning vositasida o'quvchilar vaqt tejamkorligiga o'rgatiladi. Tez o'qish ko'nikmasi aynan boshlang'ich sinflarda shakllantiriladi, mazkur ko'nikmaning ahamiyati shundaki, o'quvchilar tez o'qish ko'nikmasi vositasida asar bilan kutilgan darajada tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi va tez o'qish o'quvchilarining fikrlash tuyg'ularini tezlashtiradi. Tez o'qish jarayonida aynan inson miya faoliyatining faollashuvi ilmfanda isbotlangan.<sup>5</sup>

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini *ifodali o'qitishga* o'rgatish ularni o'qigan matnlarini tushunib olishiga asos bo'ladi. Ifodali o'qish – bu so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, belgilarni o'z joyiga qo'yib o'qish va matnning obrazlariga urg'u berib o'qishdan iborat. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilar Vatan, Ona, Tabiat kabi mavzulardagi she'rlarni yoki hikoyalarni o'qishda o'z his-hayajonlarini namoyon qiladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda O'qish vositasida o'quvchilarining barcha badiiy matnlarni ifodali o'qishga o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ta'lifning keyingi bosqichlarida aynan ifodali o'qish o'quvchilarining so'z san'ati bo'yicha ko'nikmakga egaligini belgilashdagi asosiy mezonlardan biri sifatida qabul qilingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining *mazmunli o'qish* ko'nikmasini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, o'quvchilar o'qiyotgan matnlarini kerakli ohang, zavq va qiziqish bilan o'qishi kerak bo'ladi, shunda ularning matn mazmunini tez tushunishi uchun imkoniyatlar yuzaga keladi. Mazmunli o'qish masalasi Sharq pedagogikasi tarixida alohida tahlil qilib o'tilgan. Misol uchun, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida yozishicha, o'g'li Komron Mirzoning mazmunli o'qishi uchun uning o'zi alohida shug'ullangan. Chunki Komron Mirzo valiahd sifatida Ustozining ko'rsatmalariga erkin qaragan va shu sababli Bobur o'g'lining mazmunli o'qish ko'nikmasini shakllantirish bilan alohida shug'ullangan, natijada keyinchalik Komron Mirzo ham

<sup>4</sup> Искусство в жизни детей. –Москва, 1991. – С 102

<sup>5</sup> Карапт: Новикова Е. Человеческий моск. – Санкт-Петербург, 2016

hukmdor, ham shoir bo'lib voyaga yetgan.<sup>6</sup> Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni mazmunli o'qishga o'rgatish bilan ularni so'z san'atining sirli olamiga olib kirish mumkin.

E'tibor berilsa, tez o'qish, ifodali o'qish va mazmunli o'qish ko'nikmalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy idrokini shakllantirishdagi asosiy tayanchlardan biridirn. Shu sababli darsliklardagi matnlarni va qo'shimcha o'qiladigan matnlarni o'qish jarayonida bu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish taqozo etiladi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tushunish va tahlil qilish layoqatini shakllantirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilar nafaqt badiiy matnnning mazmunini tushunishi, balki ularni o'z imkoniyatlari darajasida tahlil qila olishi kerak. Bu borada pedagog olimlar yakdil fikrga ega ekanliklarini ta'kidlash lozim.<sup>7</sup> Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi matn mazmunini tahlil vositasida tushuntirib bera olishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

1. o'quvchilarni so'zlar ma'nosini his qilishga o'rgatish;
2. o'quvchilarni matnning tuzilishini tushunishga o'rgatish;
3. o'quvchilarni o'z tahlillarini so'zlab berishga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini so'zlar ma'nosini *his qilishga* o'rgatish muhim amaliy masalalardan biridir. Unga ko'ra, o'quvchilar badiiy matndagi har bir so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lishi kerak va shunda ular so'zlarning mazmunini his qilishga o'rganadi. Masalan, agar o'quvchi "go'zallik" so'zini beparvo va shunchaki o'qisa u mazkur so'zning ma'nosini his qilmaydi, aksincha, ushbu so'zni his-hayajon bilan va e'tibor bergen holatda o'qisa, shu so'z zamiridagi ma'noni to'liq his qiladi hamda bundan zavqlanadi. Yoki, "bahor" so'zini ko'pchilik o'quvchilar zavq bilan o'qiydi va talaffuz qiladi, bunga sabab ularning bahorni tasavvur qilishidir.

So'z san'atining eng muhim asoslaridan biri *matn tuzilishini tushunishdir*. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi o'zi o'qiyotgan

<sup>6</sup> Қаранг: Комрон Мирзо. Девон. – Тошкент, 2003

<sup>7</sup> Стрельцова Л. Искусство слова и младший школьник. // Искусство в жизни детей. – С 106

matnning tuzilishini, ya'ni matndagi kirish, eng muhim va asosiy qism hamda hulosalarni ajrata bilishi kerak. Matnning kirish qismida beriladigan axborotning mazmuni ifodalanadi, asosiy qismida esa aytiladigan eng muhim fikr tasvirlanadi va hulosa qismida matndan chiqariladigan yo'nalishlar belgilanadi. Shujihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari she'riy asarlarda tuzilish ixcham bo'lishi, hikoyalarda tuzilish o'rtacha ko'rinishda bo'lishi va yirik asarlarda esa matnning tuzilishi keng ko'lamli bo'lishini anglashi kerak. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nisbatan ko'pchiligi o'zi o'qigan matnning tuzilishini tez anglaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zları o'qigan va tahlil qilgan matnni so'zlab berishga o'rgatish muhim masalalardan hisoblanadi. Pedagogik tajribadan ma'lumki, o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar o'qigan badiiy matn mazmunini ravon va tushunarli so'zlab berishadi. Chunki qiz bolalar matnni qiziqish va e'tibor bilan o'qishi kuzatilgan, aksincha, ko'p hollarda o'g'il bolalarda tezroq matnni o'qib tugatish hissi mavjud bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vqazifalaridan biri o'quvchilarni matnni to'g'ri, ishonarli va ravon so'zlab berishga o'rgatishdan iborat. Bu ko'nikma keyinchalik o'quvchining butun faoliyati davomida tayanch vazifasini bajaradi. Shu sababli mutafakkir Abu Nasr Farobi "Fozillar shahri" asarida o'quvchilarni ko'proq so'zlab berishga o'rgatish, bunda o'qituvchining "qattiqqo'llik qilmasligi va me'yorsiz yumshoq bo'imasligi"ni tavsiya etgan.<sup>8</sup> Demak, o'qituvchi o'quvchini so'zlab berish ko'nikmasini shakllantirishda o'rta yo'lni tutishi lozim, unga ko'ra, kezi kelganda qat'iyatlik va kezi kelganda yumshoqlik qilishi taqozo etiladi.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tushunish va tahlil qilish layoqatini shakllantirishda muhim asoslar hisoblanadi.

**O'qish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy ijodkorlik ko'nikmasini tarkib toptirish.** So'z san'atining negizlaridan biri badiiy idrok masalasi hisoblanadi. Unga ko'ra, inson badiiy asarning mazmuni, obrazlari va undan olinadigan taassurotlarni tasavvur qilishi kerak. Shu jihatdan badiiy idrok inson

<sup>8</sup> Фаробий А.Н. Философские трактаты. – Алма-Ата, 1970. – С. 13

shaxsini so‘z san’ati, umuman, san’at vositasida tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.<sup>9</sup> Badiiy idrok boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini so‘z san’ati sehri bilan tanishtirishning muhim vositalaridandir. O‘quvchilarda badiiy idrokni shakllantirishda O‘qish muhim o‘rin tutadi va buning uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) o‘quvchilarining tasavvurini shakllantirish;
- 2) o‘quvchilarining taassurotlarini tarkib toptirish;
- 3) o‘quvchilarni idrok qilishga o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining *tasavvurini* shakllantirish ularni so‘z san’ati asoslari bilan tanishtirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi o‘qiyotgan matnining mazmunini va uning tuzilishini aniq tasavvur qilishi kerak. Misol uchun, 4-sinf O‘qish kitobi darsligida juda ko‘p badiiy matnlar berilgan. Ularda tabiat hodisalaridan tortib, ona Vatan madhiga doir matnlar mavjud. Shu jihatdan o‘quvchi tabiat to‘g‘risida matn o‘qiyotganida atrofdagi olamni tasavvur qilishga o‘rganishi kerak yoki Vatan haqida she‘r o‘qiyotganida inson uchun vataparvarlik muhim fazilat ekanligini his etishi lozim. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining tasavvurini to‘g‘ri shakllantirilsa, bu hol ularning keyingi faoliyatida ko‘nikma darajasiga ko‘tariladi.

So‘z san’ating muhim asoslardan biri matndan *taassurot* olishdir. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har qanday matndan yaxshiri va estetik taassurot oladi. Ayni paytda ular matndagi yomonlik va yomonlikka undovchi obrazlarni tez sezadi. Shu sababli o‘quvchilar badiiy asardan yaxshi taassurot olish va undagi salbiy jihatlarni farqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Bu borada ayniqsa, ertaklar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining taassurot ko‘nikmasini kutilgan darajada shakllantirish mumkin. Misol uchun, mashhur “Ur to‘qmoq” ertagidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining to‘g‘ri taassurot olishi kuzatildi. Bunga sabab o‘quvchilarining ertak matnni o‘qiganligi va u asosda ishlangan multfilmning ko‘rganligidir. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarining badiiy asardan to‘g‘ri

<sup>9</sup> Караг‘: Жабборова О.М. Бўлажак ўқитувчилар бадиий идрокини шаклантариши. – Тошкент, 2019

taassurot olishi ko‘nikmasini shakllantirishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining *idrok* etish ko‘nikmasini shakllantirish ham so‘z san’ati nuqtai nazaridan muhim masala hisoblanadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar o‘zлari o‘qigan badiiy asarning voqeilik jarayonini va undan olinadigan hulosani idrok etishga o‘rganishi kerak. Ko‘p hollarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asar voqeligini yetarli darajada idrok etmasligi sababli ular o‘qigakn matnlarini tez unutishadi. Shu sababli dars mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarining idrok ko‘nikmasini shakllantirish muhim masalalardan biridir. Chunki bu masala asar voqeligini xotirada uzoq saqlash bilan bog‘liq hisoblanadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasavvur, taassurot va badiiy idrok ko‘nikmalarini to‘g‘ri shakllantirish vositasida ularni so‘z san’ating asoslardan bahramand bo‘lishga tayyorlash mumkin.

So‘z san’ati o‘quvchilarni tarbiyalashning eng muhim manbalaridan biri va u “ART texnologiya va kreativlik”ning asoslardan hisoblanadi. Shu sababli so‘z sakn’atining dastlabki asoslari boshlang‘ich sinflarda “Ona tili va o‘qish savodxonligi”, “Tarbiya” kabi o‘quv fanlari mashg‘ulotlarida hamda qo‘sishmcha o‘qishlar vositalari asosida o‘quvchilarida tarkib toptiriladi. Bundan maqsad boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik ongini shakllantirish, ularning yaxshilik va yomonlikni farqlash ko‘nikmasini tarkib toptirish hamda so‘z sehridan zavqlanish tuyg‘ularini rivojlantirishdir. Mazkur masalalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tomonidan nazariy va metodik jihatdan chuqur o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O‘qish – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish asosi sifatida qanday vazifani bajaradi?
2. O‘qib tushunish – badiiy asarning mazmuni va badiyatini idrok etish omilining asoslарini nimalakr tashkil etadi?
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy matnni tushunish va tahlil qilish layoqatini shakllantirish deganda nimalarni tashunasiz?
4. O‘qish vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy ijodkorlik ko‘nikmasini tarkib toptirish qanday bo‘ladi?

## 2-BOB. "MUSIQA SAN'ATI – ART TEKNOLOGIYA VA KREATIVLIKNING OMILI"

### 2.1. Musiqa san'ati asoslari

**Reja:**

1. Musiqa, qo'shiq va raqs – musiqa san'atining asosi sifatida.
2. Musiqaning o'ziga xos xususiyatlari va turlari.
3. Qo'shiq turlari va uning xususiyatlari.
4. Raqs va uning xususiyatlari.

**Tayanch so'zlar:** *musiqa, san'at, qo'shiq, raqs, o'quvchi, o'qituvchilar, ko'nikma, cholg'u, ijrochilik, malaka*.

**Musiqa, qo'shiq va raqs – musiqa san'atining asosi sifatida.** Inson tarbiyasida musiqa san'ati muhim o'rinn tutadigan hodisalardan biridir.<sup>10</sup> Mazkur san'at "ART texnologiya va kreativlik"ning muhim omillaridan hisoblanadi. Shu sababli asrlar davomida musiqa san'ati vositasida insonni tarbiyalashga alohida e'tibor berib kelingan. Misol uchun, Abu Nasr Farobiy "Musiqa to'g'risida katta kitob" asarida insonning ijtimoiylashuvi, uning ahloqiy yetuklashuvi va hatto, ruhiy sog'lom bo'lishida musiqa san'atining alohida o'rni borligini ta'kidlab ko'rsatadi. Shu sababli keyinchalik XX asrning boshlarida jadid pedagoglari tomonidan "Musiqa" yangi tipdagi mакtablarning asosiy o'quv fanlaridan biri sifatida amaliyotga kiritilgan. Bunga qadar mamlakatimiz Pedagogika fani tarixida musiqa san'ati individual tarzda Ustozlar tomonidan shogirdlariga o'rgatib kelingan. Misol uchun, Alisher Navoiy "Majolis un-nafoyis" (Nafis majlislar) asarida musiqa san'atini Yusuf Andijoniydan o'rganganligini yozadi va bundan hulosa qilish mumkinki, o'sha davrda ham mamlakatimizda, jumladan, Andijonda musiqa san'ati bo'yicha muhim bilim va ko'nikmalarga ega ustozlar faoliyat ko'rsatgan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqa san'atining asoslari bilan dastlabki bosqichda tanishtirish va uning vositasida o'quvchilarni ma'naviy, ruhiy hamda estetik tarbiyalash

<sup>10</sup> Фароби А. Н. Философский трактаты. -Алма-Ата, 1970

muhim hisoblanadi.<sup>11</sup>

Musiqa madaniyatining asosini musiqa, qo'shiq (ashula) va raqs tashkil etadi.<sup>12</sup> *Musiqa* – bu cholg'ularda ijro etiladigan muayyan ohang, ritm va mazmunga ega bo'lgan asardir, *qo'shiq* – bu she'riy matn asosida ohang va kuya solib ijro etiladigan asar (ashula – keng hajmli, qo'shiqqa nisbatan avj nuqtalari ko'p bo'lgan asar hisoblanadi), *raqs* – bu muayyan ritm va usullar asosidagi xarakat bilan amalga oshiriladigan asar.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, musiqa, qo'shiq va raqsning bolalarbop turlari mavjud. Shu sababli "bolalar musiqa san'ati" atamasi qo'llaniladi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur san'at yo'nalishini chuqr o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Bolalar musiqa san'atining *musiqa* asarlarida ohanglar yengil, mazmunli va kishini harakatlarga boshlovchi ritmlar boy bo'ladi. Butun dunyo kompozitorlari bolalar musiqa asarlarini yaratishga muhim e'tibor beradi va o'zlarining iste'dodlarini aynan ana shunday asarlar bilan baholashga xarakat qilishadi. Mamlakatimizda bolalar musiqasining ikki turi mavjud:

- 1) xalq musiqa og'zaki ijodi namunalari;
- 2) kompozitorlarimiz tomonidan yaratilgan bolalar musiqa asarları.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "Musiqa madaniyati" o'quv fani darsliklarida mazkur janrlardagi eng yorqin va serxarakatga boy musiqalar kiritilgan. Bunday musiqalar o'quvchilarining tinglashi, ijro etishi va ular asosida raqslarga tushishiga mo'ljallangan. Misol uchun, 2-sinfda "Andijon polkasi" musiqasi berilgan bo'lib, u tinglash va raqs tushish uchun belgilangan. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bu o'rindagi "polka" so'zi polyakcha bo'lib, tez va mazmanli xarakat ma'nosini anglatadi hamda bu asar XX asrning 60-yillarda andijonlik xalq bastakori Yusufbek Shakarjonov tomonidan tizimlashtirilganligi e'tirof etiladi.<sup>13</sup> Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda bunday musiqa asarlarini o'qitish vositasida o'quvchilarining ma'naviy va estetik ruhiy yetuklashtiriladi. Chunki

<sup>11</sup> Мусика маданийти. 1,2,3,4-синфлар дарслеклари. – Тошкент, 2018

<sup>12</sup> Акбаров И. Мусика лугати. – Тошкент, 1997

<sup>13</sup> Акбаров И. Ўзбек халқ музикаси. // Ўзбек халқ музикаси. 1-том. – Тошкент, 1970

o'quvchilar bunday asarlarni tinglash vositasida ruhiy-ma'naviy oziq oladilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarga musiqa asarlarini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- 1) musiqaning tuzilishi haqida tushuncha berish;
- 2) musiqaning mazmunini tushuntirish;
- 3) musiqa tinglash ko'nikmasini shakllantirish.

Musiqaning tuzilishida kirish, avj va yakuniy qismlar mavjud bo'ladi. Musiqa asarining mazmunida turli ma'nolar – ruhlantirish, xarakatga da'vat qilish, zavqlantirish kabi xususiyatlar ifodalanadi. Musiqa tinglash ko'nikmasida o'quvchilarning o'z yosh, ruhiy va estetik xususiyatlariga moga asarlarni tinglashga o'rganishi muhim o'rinn tutadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'limgarayonida eng avvalo o'quvchilarning musiqa tinglash ko'nikmasini shakllantirish metodikasini o'zlashtirishlari taqozo etiladi. Chunki bugungi kunda axborot-kommunikasjon vositalari asosida turli musiqa asarlari targ'ibyu qilinmoqda va ularning ko'pchiligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatlari to'g'ri kelmaydi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning musiqa tinglashini to'g'ri shakllantirish uchun ularni musiqa tanlashga o'rgatishi kerak bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy musiqamiz namunalari va jaxon xalqlarining eng yaxshi bolalar musiqasi asarlari tinglash uchun taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan o'quvchilarning milliy va jahon xalqlari musiqa san'atidan baxramand bo'lishi tarkib topadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadi, shahar joylarida istiqomat qilayotgan ko'p oilalarda jahon xalqlarining G'arb yo'nalihidagi musiqasini tinglashga rag'bat kuchli va o'quvchi ham bunga ko'nikib bormoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi bunday musiqalarning eng yaxshilarini tanlab o'quvchilarga tinglash uchun tavsiya etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning *cholg'u ijrochiligi* ko'nikmasini shakllantirish davlat ta'limgarayonida standartlarining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil .....dagi 134-soni "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorda umumiy o'rta ta'limgarayonida bitiruvchilarini kamida ikkita milliy cholg'uda

kuy ijro eta olishi va uning Shahodatnomada yozilishi belgilab qo'yilgan, mazkur Qaror asosida umumiy o'rta ta'limgarayonida "Musiqa madaniyati" o'quv fani soatlari doirasida kuchaytirilgan "Amaliy to'garaklar" tashkil etish va ularning mashg'ulotlariga mashhur san'atkori larni jalb etish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, Qarorda 2022-2023 o'quv yili pedagogik ta'limgarayonida yo'naliishi bitiruvchilarining kamida uchta milliy cholg'uda kuy ijro eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishi belgilab qo'yilgan. Buning uchun bugungi kunda umumiy o'rta ta'limgarayonida maktablari milliy cholg'ular – Doira, Dutor, Tanbur, Rubob, G'ijjak, Nay va Do'mbra bilan ta'minlanmoqda hamda mazkur masala umumiy o'rta ta'limgarayonida maktablari Davlat hisobidan darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash toifasiga kiritilgan. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'limgarayonida mazkur milliy cholg'ular bo'yicha o'quvchilarning kuy ijro etish ko'nikmasini shakllantirishi o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Musiqa san'atida *bolalar qo'shiqlari* keng ko'lamli va muhim turlardan hisoblanadi. Bolalar qo'shiqlariga ohangdorlik, yengil vaznlik, qisqalik, obrazlilik va o'ziga xos mazmundorlik xosdir. Shu sababli boshlang'ich sinflar "Musiqa madaniyati" darsliklarida o'ziga xos bolalar qo'shiqlarini o'rganish tavsiya etilgan. Bunday qo'shiqlar tinglash, ijro etish va bolalar tomonidan ommalashtirishga mo'ljallangan. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarning qo'shiq ijrochiligini ikki shaklda tarkib toptirishga asosiy e'tibor qaratiladi:

1. yakkaxon tartibda ijro etish;
2. ansambl tartibida ijro etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yakkaxon tartibda qo'shiq ijro etishga bo'lgan qiziqish va intilish yuqori bo'ladi. ularning ansambl tartibida ijro etishga o'rgatish milliy qo'shiqlar va Xor qo'shiqlari vositasida amalga oshiriladi. Bundan maqsad o'quvchilarning yakkaxon tartibda va ansambl tartibida qo'shiq kuylash bilan ma'naviy va estetik zavq olishini tarkib toptirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning qo'shiq kuylash ko'nikmasini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor berishi tavsiya etiladi:

- bolalarbop qo'shiqlarni tanlash;
- qo'shiq kuylovchi bolalarning ovozini tarbiyalash;

– qo'shiq kuylashga iste'dodi bor bolalarning layoqatini rivojlantirish.

Bolalarbop qo'shiq tanlashda eng avvalo "Musiqa madaniyati" darsliklarida berilgan asarlarga tayaniladi va ayni paytda, o'qituvchi tomonidan o'ziga xos qo'shimcha qo'shiqlarni tanlash va ijro etishga o'rgatish ham mumkin. Bunda tanlanayotgan qo'shimcha bolalar qo'shiqlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatlariga va pedagogik talablarga mos bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuylash ovozini tarbiyalash ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ularning ovozini zo'riqishiga, o'rinsiz shovqinli tovush chiqarishiga va kattalarga tahlid qilib kuylashiga yo'l qo'ymaslik muhim hisoblanadi. Shuningdek, layoqati bor o'quvchilarini tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Chunki ko'p san'atkorlar aynan 8-9 yoshlaridan boshlab kuylash ko'nikmasini egallay boshlashgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bolalar qo'shiqlari bilan tanishtirish va ularni kuylashga o'rgatishda pedagogik qonuniyatlarga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinflarda maqom yo'llaridagi ashulalarni kuylash tavsiya etilmaydi. Chunki bunday ashulalar bolalarning ovoz psychalarini zo'riqtiradi, ularning akustik xususiyatlarini buzadi va natijada bolalarning ovozida illatlar paydo bo'ladi. Negaki maqom yo'llaridagi ashulalarda musiqa yo'li og'ir, matnlarda avjlar keng ko'lamli va kuylovchidan katta diapozonni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini *raqs san'ati* asoslari bilan tanishtirish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalar raqsi – bu yengil xarakatli, zavq beruvchi mimikalarga boy va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqs tushish ko'nikmasini tez o'zlashtiradilar. Shu sababli bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- 1) o'quvchilarning kuya mos yengil va to'g'ri xarakat qilishi;
- 2) raqs xarakatlari vositasida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- 3) o'quvchilarning raqs tushishdan estetik zavq olishiga erishish.

E'tibor berilsa, raqs san'atining boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyasida muhim jismoniy va ma'nnaviy ahamiyati mavjud. Ayni

paytda, raqs tushishga layoqatli bo'lgan o'quvchilarini alohida tarbiyalash taqozo etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilar aynan boshlang'ich sinflarda o'zlashtirgan raqs xarakatlarini ta'limning keyingi bosqichlarida rivojlantirib boradi.

Diqqat qilinsa, musiqa san'atining bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqslari o'ziga xos asoslarga ega bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'nnaviy, estetik va jismoniy tarbiyasida muhim omillardan hisoblanadi.

**Musiqaning o'ziga xos xususiyatlari va turlari.** Musiqa o'zida musiqiy tilga asoslangan badiiy asar va san'at hisoblanadi. Eng qadimgi zamonalardan boshlab musiqa xususiyatlari va turlarining inson kamolotida tutgan o'rni idrok qilib kelingan. Shu jihatdan musiqa quyidagi *xususiyatlar* xos:

- 1) ohang va ritm vositasida kuyning sadolanishi;
- 2) cholg'ularning davr talablari asosida rivojlanib borishi;
- 3) musiqa ijrochiligining o'ziga xos uslublarining shakllanganligi.

Musiqa mazmunini oxang va ritm tashkil etadi, unga ko'ra, cholg'udan sadolanayotgan kuylar oxangga boy bo'lishi hamda muayyan o'lchovlar (ritm) bilan taralishi kerak. Shunda musiqiy asarda sur'at, jadallik yoki sustlik xususiyatlari paydo bo'ladi hamda ularning birligi sifatida insonga kuy shaklida eshitiladi. Aynan musiqa xos bo'lgan ohang, ritm va sur'at inson ruhiyatiga ta'sir qilish kuchlariga ega, buning natijasida inson musiqani tinglaydi va idrok etadi. Shu jihatdan har bir davrda musiqa ijrochiliginining tayanchi bo'lgan cholg'ular rivojlanib kelgan. Xalqimizning musiqa madaniyati tarixida 30 ga yaqin musiqa cholg'ulari amalda bo'lganligi qayd etiladi. Bunday cholg'ular musiqa ijrochiliginining asosi sifatida inson, halq va jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelmoqda. O'zbek halqi musiqa cholg'ulari orasida urma – zarbli (Doira, Nog'ora kabi) va torli – chertma (Tanbur, Dutor, Rubob kabi) cholg'ular turlari muhim o'rin tutadi. Bu hol milliy musiqa san'atimizning jarangdorlik, ohangdorlik va badiiylikka asoslanishini ko'rsatadi. Musiqa ijrochiliginining o'ziga xos uslublari asrlar davomida shakllanib kelmoqda. Bunda musiqiy asarni cholg'ular vositasida yuksak darajada ijro etish, ijro jarayonida turli bezaklar vositasida kuylarni tinglovchiga yetkazish va musiqiy asarning avj

o‘rinlarini yuksak darajada sadolantirishga asosiy e’tibor qaratiladi. Shu sababli o‘zbek musiqa ijrochilik uslublari jahon xalqlari va musiqa san’ati vakillari tomonidan e’tirof extilgan.

Musiqa asarining xalqimixga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlaridan va turlaridan biri bu usullardir (Doira asarlari). Doira, Nog‘ora kabi urma zarbli cholg‘ular vositasida ijro etiladigan asarlar usullar deb ataladi.<sup>14</sup> Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, dunyo halqlari ichida usul shaklidagi musiqa asarlari o‘zbek xalqida va Lotin Amerikasining tubjoy xalqlarida uchraydi xolos. Shu jihatdan Doira yoki Nog‘orada ijro etiladigan bunday asarlar o‘zbek musiqa san’atining negizlari hisoblanadi.

Musiqa san’atimizda musiqa asarlarining turli ta’sirlari idrok etiladi. Bunda musiqaning insonni ruhiy tetiklashtirish, zavqlantirish, ilhomlantirish, yomonlikdan qaytarish va uning sog‘ligiga ijobiy ta’sir qilish xususiyatlariga asosiy e’tibor qaratiladi. Misol uchun, Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” qomusiy asarining “Musiqa ilmi” bo‘limida musiqaning inson salomatligiga ijobiy ta’siri to‘g‘risida keng ma’lumotlar bergen va beshikdagi bolaning uxlashi uchun mayin musiqa qo‘yib qo‘yilishini tavsiya qilgan. Ibn Sinoning bu yondashuvi XX asrda Yevropa mamlakatlari olimlari tomonidan e’tirof etilgan va bugungi kunda ham ruhiy bemor insonlarni davolash tashhisida musiqadan foydalanish amaliyoti yashovchan bo‘lib kelmoqda. Shu jihatdan musiqa asarining inson uchun <sup>15</sup>jismoniy, ruhiy va estetik ozuqa ekanligi idrok etiladi.

***Qo‘sinq turlari va uning xususiyatlari.*** Musiqa san’atining asosiy turlaridan birini qo‘sinqlар tashkil etadi. Abu Nasr Farobiydan boshlab to bugungi kunga qadar musiqa san’ati mutaxassislari dastlab qo‘sinq paydo bo‘lganligi va keyinchalik uning asosida kuy yuzaga kelganligini ta’kidlashadi. Bunga sabab dastlab inson tomonidan hirgoyi kashf etilgan va aynan ana shu hirgoyi ohang vositasida muayyan matnni keltirib chiqargan. Shu jihatdan qo‘sinqni she’riy matn va musiqiy tuzilmaning uyg‘unlashgan shakli sifatida qabul qilish mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan.

Bugungi kunda o‘zbek musiqa san’atida qo‘sinqning quyidagi

<sup>14</sup> Акбаров И. Мусика лугати. – Тошкент, 1997

<sup>15</sup> Матёкубов О. Ўзбек классик мусиқаси. Икки томли. – Тошкент, 2015

*turlari* mavjud:

- bolalar qo‘sinqlari;
- xalq hayoti va turmush tarzini ifodalovchi qo‘sinqlari;
- mutaxassislar tomonidan maxsus yaratilgan turli mavzulardagi professional qo‘sinqlari.

Bolalar qo‘sinqlariiga she’riy matnning yengilligi, ohangdorligi va talaffuzning osonligi xos (masalan, Oybekning “Bolalar” qo‘sinqi). Xalq hayoti va turmush tarzini aks ettiradigan qo‘sinqlarga esa ilhom beruvchi, insoniy kechinmalarni ifodalovchi va orzumidlarni bildiruvchi xususiyatlar xos (masalan, “Yor-yor”, turli laparlar va duet shaklida aytildigan hazil qo‘sinqlari va h.k.). Mutaxassislar tomonidan maxsus yaratilgan turli mavzulardagi professional qo‘sinqlari she’riy matn va musiqiy obrazlarning uyg‘unlashgan ko‘rinishida bo‘lib, ular professional qo‘sinqlari deb ataladi (masalan, Vatan haqidagi qo‘sinqlari “O‘zbekiston”, “Seni hech kimga bermaymiz O‘zbekiston va h.k.”). Umuman bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qo‘sinqlarning bu turlari bo‘yicha zarur darajadagi tushuncha va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

Musiqa san’atimizdagи qo‘sinqlarda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud bo‘lib, ularning asosiyalarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) ohangdorlik;
- 2) kuychanlik;
- 3) jo‘shqinlik.

Halqimizning qo‘sinqlariiga xos bo‘lgan bu xususiyatlar o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Unga ko‘ra, masalan, bolalar qo‘sinqlari musiqiy ohanglariga juda boy bo‘lishi, ularda kuychanlikning, ya’ni musiqiya tuzilmalarining ravon bo‘lishi va albatta, qo‘sinqlari g‘oyasida jo‘shqinlik mavjud bo‘lishi taqozo etiladi. Shu sababli jahon musiqa san’ati mutaxassislari o‘zbek qo‘sinqchilik an’analarining uslublari, ijrochiligi va ta’sirchanligini yuksak baholaydi.

***Raqs va uning xususiyatlari.*** Musiqa san’atining asosiy turlari dan biri – bu raqsdir. Raqs – inson vujudi a’zolarining ma’noli xattixarakatlari va insonning ochirimli mimikalari asosida ijro etiladigan musiqiy asardir. Bunda asosiy e’tibor inson vujudi a’zolarining ma’noli xattixarakat qilishiga qaratiladi. Shu jihatdan bolalar raqs san’ati bu san’at turining eng muhim turlaridan biri bo‘lib, unga

quyidagi xususiyatlar xosdir:

1. bolalar vujudining a'zolari plastik xarakat qilishi;
2. amalga oshirilayotgan xatti-xarakatlarda muayyan ma'noring bo'lishi;
3. ijro jarayonining qulayligi.

Bolalarning bosh, qo'l va oyoqlarining ma'noli xatti-xarakati nati-jasida raqs yuzaga keladi. Masalan, XIV asr mutafakkiri Qutbiddin She'roziy "Musiqa ilmi" risolasida raqs xatti-xarakatlarining ma'nolarini quyidagicha sharhlab o'tadi: ikki qo'lning xarakati orzu-umidlar majmuini, oyoqlarning xarkati inson umrining mazmunini va boshning xarakatlari insonning fikrlarini ifodalaydi. Shuningdek, raqsga tushuvchi tomonidan amalga oshiriladigan turli mimikalar ham ma'nolarga ega. Masalan, qoshni o'ynatish taklifni, kulimsirash qanoatni, qo'zdan yosh chiqishi dardchanlikni, lablarning xatti xarakatlari do'stlikni va yuzning yuqoriga ko'tarilib tushishi xaqiqatni anglatadi. Shu jihatdan raqs san'ati boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafaqakt jismoniy jihatdan, balki ma'naviy va ruhiy jihatdan tarbiyalash omili ham hisoblanadi. Raqs san'atining bu xususiyatlarini hisobga olingan holda uning gimnastika turi asrlar davomida ta'lim jarayonida amalda bo'lib kelmoqda.

Bolalar raqs san'atida poklik, o'ktamlik, hushchaqchaqlik, irodalik va do'stlik tuyg'ularini takrib toptiruvchi xususiyatlar ustuvor hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda raqs skan'ati bo'yicha maxsus mashg'ulotlar qo'yilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Bizning yondashuvimizga ko'ra, oliv pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalar raqs san'atining turli asarlarini chuqur o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Andijon polkasi", "Lazgi", "Oq kerakmi, ko'k terak", "Kichik tanavvor" kabi bolalar raqlari jozibadorligi, yengilligi bolalarni o'ziga jalb etuvchanligi va qiziqarli ekanligi bilan e'tiborni tortadi. Umuman boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar raqlarining asoslardan zaruriyatli darajada ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Shunday qilib musiqa san'ati "ART texnologiya va kreativlik"ning muhim turi sifatida o'zida musiqa, qo'shiq va raqs turlarini mujassam etadi. Mazkur san'at boshlang'ich sinf o'quvchilarini ruhiy, jismoniy, ma'naviy va estetik tarbiyalashning muhim omillaridan hisoblanadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bogshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa san'ati bo'yicha ta'lim berish mamlakatimiz ta'lim tarixida yuz yillik davrga ega va bu yo'nalish o'z davrida jadid pedagoglari tomonidan boshlab berilganligini eslatib o'tish joiz.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Musiqa, qo'shiq va raqs – musiqa san'atining qanday asosini tashkil etadi?
2. Musiqaning o'ziga xos xususiyatlari va turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Qo'shiq turlari va uning xususiyatlarida qanday jihatlar ustuvor hisoblanadi?
4. Raqs va uning xususiyatlari nimalardan iborat?

## 2.2. “MUSIQA MADANIYATI” – BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA SAN’ATINING ASOSI

### Reja:

1. “Musiqa madaniyati” – boshlang‘ich ta’limning asosiy o‘quv fanlaridan biri sifatida
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga musiqa san’ati asoslarini o‘rgatish xususiyatlari
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy – estetik layoqatini rivojlantirish
4. “Musiqa madaniyati” fanining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik ongini shakllantirishdagi ahamiyati

*Tayanch tushunchalar: musiqa, madaniyat, bolalar, san’at, o‘rganish, o‘rgatish, bilim, ko‘nikma.*

**“Musiqa madaniyati” – boshlang‘ich ta’limning asosiy o‘quv fanlaridan biri sifatida.** Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limida “Musiqa madaniyati” o‘quv fani asosiy va tayanch fanlardan biri hisoblanadi. Mazkur o‘quv fanining davlat ta’lim standartlari va malaka talablariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqa san’atining musiqa, qo‘shiq va raqs turlari bilan tanishtirilishi hamda ular vositasida o‘quvchilarining tarbiyasi kuchaytirilishi lozim. Bundan tashqari, o‘quv fani o‘quvchilardagi musiqiy layoqatni dastlabki bosqichda rivojlantirishga ham asosiy e’tiborni qaratadi.

“Musiqa madaniyati” o‘quv fani rejasи, dasturi va darsliklari quyidagi yondashuvlar asosida tuzilgan:

- 1) xalqimizning musiqa san’ati ijodi namunalari bilan tanishtirish;
- 2) jahon halqlarining musiqa san’atidagi eng yaxshi asarlar to‘g‘risida ma‘lumot berish;
- 3) o‘quvchilarini musiqiy asarlarni ijro etishga o‘rgatish.

Halqimizning musiqa san’ati ijodi *namunalari* bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday namunalarda xalqimizga xos bo‘lgan o‘ziga xos mintalitet o‘z ifodasini topgan. Masalan, 2-sinf “Musiqa” darsligida xalqimizning “Andijon polkasi” asarini o‘rganish berilgan. Bu o‘rindo‘a ta’kidlash

lozimki, darslikda mazkur asarning nota yozuvini berish bilan va tasvir vositasida uning ijro namunasini ko‘rsatish bilan cheklanilgan. Biroq, asarning musiqiy tahlili to‘g‘risida tafsilot berilgan emas. Shu sababli ko‘pgina boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur asarning ijrosini o‘rgatish bilan cheklanadi xolos. Lekin oliy pedagogik ta’lim jaaryonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ushbu asar musiqiy tahlili to‘g‘risida ko‘nikmaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan bu asarga quyidagi xususiyatlar xos ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz:

- a) asar musiqasi yengil, kuychan va raqsbop usullarga boy;
- b) asarni ijro etish qulaylikka ega va shu sababli o‘quvchilarining har biri mazkur asarni ijro eta oladi;
- v) asarda jo‘sinqinlik, mardlik, chaqqonlik va o‘ktamlik g‘oyalari mujassam bo‘lgan;
- g) asarni ijro etish xalqimizga xos bo‘lgan milliy cholg‘ular – Doira, Rubob, G‘ijjak va imkon bo‘lganida Pianino jo‘rligida ijro etiladi (eslatib o‘tish joizki, xalqimiz musiqa san’ati va ta’lim tizimiga Pianino cholg‘usi o‘tgan asrning 20- yillarda kirib kelgan, mazkur cholg‘uning mayin sadolanishi musiqa asarning jozibadorligini kuchaytiradi va bunga qadar xalqimiz musiqa san’atida Ud cholg‘usi ana shunday vazifani bajargan);
- d) asar ijrosida bolalarning sho‘h va shodon, jozibali hamda hushchaqchaq xarakatlari tabiiy ravishda yuzaga keladi;
- ye) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tomonidan bu asarni o‘zlashtirish oson va yengil kechadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinflarda musiqa asari namunalarini ana shunday tahlil asosida o‘zlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmasi tarkibiga kiradi.

Ushbu o‘quv fanida jahon xalqlarining eng yaxshi musiqa mambilari o‘rganish ham nazarda tutilgan. Misol uchun, bugungi kunda dunyo halqlari musiqa san’atida keng amalda bo‘lib kelayotgan Nota yozuvini o‘rganish 2-sinfdayoq boshlanadi. 2-sinf “Musiqa” darsligida bu borada shunday tushuncha berilgan: “Musiqa tovushlari nota bilan yoziladi, notalar yoziladigan 5 ta chiziqqa nota yo‘li deyiladi”. Biroq, bu o‘rinda “Nota” tushunchasiga izoh berilmagan, shu jihatdan mazkur atama olmonchadan olingan bo‘lib, “kuylar

tuzilmalarini yozuvda ifodalayman” degan ma’noni anglatadi. Ayni paytda bu o’rinda musiqiy asarning kaliti hisoblangan Sol kaliti va nota chiziqlari tasviri taqdim etilgan. Lekin ularning ham izohlari berilgan emas. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilar boslang’ich sinf “Musiqa” darsliklarining mazmunlarini chuqur o’zlashtirishi va ular bilan nazariy-metodik jihatdan ishlay olish ko’nikmasini egallashi taqozo etiladi. Bu borada talabalar uchun Ilyos Akbarovning “Musiqa lug’ati” kitobini (Toshkent, 1997) tavsiya etish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunday asarlar vositasida boshlang’ich sinf o’quvchilariga musiqa san’atini o’rgatish bo’yicha muhim metodologiyaga ega bo’lish keng imkoniyatlarni berishini eslatib o’tish joiz.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilar o’quvchilarining musiqa asarlarini namunalarini ijro etish ko’nikmasini shakllantirishi muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

- a) o’quvchilarining musiqa, qo’shiq yoki raqs ijro etishga bo’lgan qiziqishlarini aniqlab olish;
- b) o’quvchilarni mazkur turlar bo’yicha guruhlarga bo’lish;
- v) o’quvchilarda umumiyo ijrochilik ko’nikmasini shakllantirish.

Bunday yondashuv boshlang’ich sinf o’quvchilarida musiqa muhim imkoniyatlarni beradi. Eslatib o’tish joizki, o’quvchilar umusiqi san’atining qaysi turiga bo’lgan qiziqishlariga ega bo’ladi. Shuningdek, ularni mazkur turlar bo’yicha guruhlarga bo’lish, masalan, cholg’u ijrochilar guruhi, kuylovchilar guruhi yoki raqs tushuvchilar guruhi kabilar bu boradagi imkoniyatlarni kengaytiradi. Ayni paytda, boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’quvchilarining umumiyo musiqiy ijrochilik ko’nikmasini shakllantirishi taqozo etiladi. Chunki turli tadbirlar jarayonida sinf o’quvchilarining guruh bo’lib ijro etishi mazkur o’quv fani malaka talablarida belgilab qo’ylgan.

**Boshlang’ich sinf o’quvchilariga musiqa san’ati asoslarini o’rgatish xususiyatlari.** Boshlang’ich sinf o’quvchilarining jismoniy, ruhiy, ma’naviy va estetik jihatdan rivojlanish jarayonida bo’lganligi uchun ularga musiqa san’ati asarlarini o’rgatish o’ziga xos pedagogik va psixologik qonuniyatlariga asoslanadi. Shu jihatdan bu boroda quyidagi metodikaga tayanish kutilgan samarani beradi:

#### A. Musiqa ijrochiligin o’rgatish bo’yicha:

- 1) dastlabki bosqichda musiqiy bilim berish;
- 2) musiqa ijrochiliga o’rgatish;
- 3) musiqa tinglashni o’rgatish.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini dastlabki bosqichda *musiqiy bilim* bilan tanishtirish o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, u “musiqa” tushunchasining mazmuni bilan tanishtirish, xalq musiqasi to’g’risida ma’lumot berish, bolalar musiqasi haqida tushunchalar berish, dastlabki bosqichda nota belgilari bilan tanishtirishga asoslanadi. Masalan, “musiqa” tushunchasi yunoncha bo’lib, san’at ma’budi Muza nomidan olingan va o’zbek tilida u tarona deyiladi. Shu sababli bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilar mazkur masala bo’yicha nazariy bilimlarga ega bo’lishi taqozo etiladi. Ushbu o’quvchilarga musiqa *ijrochiligin* o’rgatish ham muayyan xususiyatlarga ega. Unda o’quvchilar cholg’ular bilan tanishtiriladi, cholg’ularning xususiyatlarini o’rganadi va ijrochilik asoslarini o’zlashtiradi. Masalan, milliy cholg’ularimiz bo’lgan Dutor, Rubob, Tor kabi chertma-torli cholg’ular ijrochiligin tez o’zlashtirish mumkin va ayni paytda o’quvchilar ko’proq qiziqadigan Nay, Surnay, Bulomon kabi puflama cholg’ular ijrochiligin o’zlashtirish nisbatan murakkab hisoblanadi. Shu sababli boshlang’ich sinflarda imkon qadar urma-zarbli va cherta-torli cholg’ular ijrochiligin o’rgatish samarali hisoblanadi. Shuningdek, boshlang’ich sinf o’quvchilar musiqa *tinglashga* ham o’rgatilishi mazkur fanning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunday ko’nikma yosh xususiyatlariga mos musiqalarni tanlay olish, ularni tinglash vaqtlarini belgilash, tinglaganda musiqa ohanglariga e’tibor berish, musiqani diqqat bilan tinglash va musiqa ohanglaridan zavqlanish kabilarni o’zlashtirish natijasida tarkib topadi. Shu sababli boshlang’ich sinflar “Musiqa” o’quv fanida nisbatan vaqt musiqa tinglashga ajratilgan. Bunda o’qituvchi o’quv fanida ko’rsatilgan musiqalardan tashqari bolalar musiqalarini tanlashi va ularni tinglashga o’rgatishi taqozo etiladi.

#### B. Qo’shiq ijrochiligin o’rgatish bo’yicha:

- 1) qo’shiq haqida tushuncha berish;
- 2) qo’shiq kuylashni o’rgatish;
- 3) qo’shiq tinglashga ko’niktirish.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga *qo’shiq* haqida tushuncha

berishda ularning yorqin va ohangli she'rlarni tanlashi, bolalar qo'shiqlari bo'yicha tushuncha berish hamda bolalar qo'shiqlari ijodkorlari to'g'risida axborot berish kabilarga e'tibor qaratish kutilgan samarani beradi. Masalan, "qo'shiq" tushunchasining ma'nosi qo'shilib kuylayman demakdir, bunda musiqaga jo'r bo'lib kuylash nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini *kuylashga* o'rgatishda to'g'ri nafas olish va chiqarishga ko'niktirish, tabiiy ovoz bilan va ohangli talaffuz qilish, zo'riqmaslik va tomoqni har xil salbiy ta'sirlardan asrash, jo'r bo'lib kuylaganda ovozni o'z sherigi bilan to'g'ri yo'naltirish kabilarga asoslaniladi. Hozirgi amaldagi o'quv dasturida asosiy e'tibor bolalarni xor bo'lib kuylash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan, shu sababli bunda jamoa bo'lib kuylash ko'nikmasaini shakllantirishga urg'u beriladi. Jamoa bo'lib kuylashda bolalarda uchraydigan muayyan ovoz kamchiliklari bilinmaydi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qo'shiq *tinglashga* o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan qo'shiq tinglash bilan o'quvchilarining musiqiy estetik didi kutilgan darajada shakllanadi va qo'shiq tinglashda uning mazmuni, ohanglari, musiqasining jozibadorligi hamda qo'shiq matnidan zavqlanish kabilarga asoslaniladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar uchun qo'shimcha qo'shiqlar tanlashi va tinglashga tavsiya etishi mumkin. Masalan, Oybek she'ri va xalq kuyi bilan ijro etiladigan quyidagi qo'shiqqa e'tibor bering:

*Quyosh nuring sochaver mo'l-mo'l,  
Bahor ketma bizni boshlardan.  
Yurtimizda qolmasin dasht-cho'l,  
Chechak unsin hatto toshlardan.*

Mazkur qo'shiq chuqur mazmun, yuksak ohang va bolalarning talaffuzi uchun qulay so'z-obrazlardan iborat. Shu sababli u o'quvchilar ongida va qalbida uzoq saqlanib qolish xususiyatiga ega. Bunday qo'shimcha jozibali qo'shiqlarni kuylash va tinglashga o'rgatish metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini eslatib o'tish joiz.

V. Raqs o'rgatish bo'yicha

- 1) raqs haqida tushuncha berish;
- 2) raqs ijrochilagini o'rgatish;
- 3) raqs bo'yicha iste'dodi bor o'quvchilarini individual tarbiyalash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga *raqs* haqida tushuncha berishda mazkur atamaning mazmuni, raqsning inson rivojidagi o'rni, xalqimizda raqs san'atining turlari ko'pligi va raqsni o'rganishning estetik ahamiyati kabi masalalar to'g'risida ko'nikma beriladi. Masalan, "raqs" tushunchasi arabcha bo'lib, ma'nosi xarakat qilaman demakdir va bunda raqlarning insонning ma'noli xatti xarakatlari nazarda tutiladi. O'quvchilarga raqs *ijrochilagini* o'rgatishda bosh, qo'l, oyoq kabi a'zolarning to'g'ri harakatlanishi va musiqaga mos bo'lishiga diqqat qilinadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining deyarli barchasi raqs tusha oladi va unga qiziqadi. Bu borada ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim olganlar muayyan ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'kidlab o'tish joiz. Shuningdek, raqs bo'yicha *iste'dodi* bor o'quvchilar bilan individual ishlar amalga oshirilishi kerak. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilarining yordamida yoki raqs bo'yicha mutaxassislar ko'magidan foydalanishi kutilgan samarani beradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida raqs san'ati bo'yicha iste'dodning mavjudligi kuzatiladi va shu sababli musiqa san'atida raqqoslarni juda yoshlikdan tanlab tarbiyalash amaliyatiga e'tibor beriladi. Negaki, 6-7-sinfdan boshlab bolalarning organizmida elastiklik qobiliyati yo'qola boshlaydi. Bolalar raqlari ijrosida ohangli musiqalarga asoslanish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa san'ati asoslarini o'rgatish o'ziga xos metodikaga tayanadi. Shu sababli mazkur metodikani oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish maqsadiga muvofiq bo'ladi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy – estetik layoqatini rivojlantirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik layoqatini shakllantirish "musiqa" o'quv fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan musiqa vositasida o'quvchilarining qalbida beg'ubor tuyg'ularini asrash, ularni yovuz illatlardan saqlash va qalbining qotib qolishini oldini olish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Mazkur sabablarga ko'ra, ushbu fan vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik didini rivojlantirish masalasi eng muhim metodik yondashuvlardan biri sifatida tanlangan. Keyingi paytlarda o'quvchilarining mobil

aloqa vositasi, kompyuter kabi texnik-o'quv vositalardan keng foydalanayotganligi ularning musiqiy-estetik didini shakllantirishda maxsus yondashishni taqozo etmoqda. Chunki texnik vositalar inson qalbida texnokratik (biryoqlama) his qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik layoqatini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- 1) o'quvchilarining estetik tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash;
- 2) o'quvchilarining musiqaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish;
- 3) o'quvchilarining musiqa bo'yicha tabiiy layoqatini maxsus yo'naltirish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarining estetik *tashabbuskorligini*, ya'ni ularning didi, his-tuyg'ulari va kechinmalarini to'g'ri shakllantirishi kerak. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida insoniy ichki kechinmalar tezkor rivojlanadi va u jo'shib turadi. Shu sababli ko'p hollarda o'quvchilar serxarakat va qiziquvchan bo'lishadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining estetik tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash ularning musiqa san'atiga bo'lgan ko'nikmpasini tabiiy shakllantirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqaga bo'lgan *qiziqishlarini* rivojlantirish alohida masala hisoblanadi. Avvalo ta'kidlash lozimki, o'quvchilarda musiqaga bo'lgan qiziqish tabiiy bo'lib, ular maxsus tarbiya qilishga ehtiyoj sezadi. Mashhur rus bolalar musiqasi bastakori Rimsko-Kovsakov uzoq yillar davomida yaratgan bolalar musiqa asarlarini aynan o'quvchilarining qiziqishlaridan kelib chiqib yozganligini ta'kidlab o'tadi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqaning milliy, jahon halqlari musiqa san'atida uchraydigan janrlariga qiziqadi. Masalan, rep-band janrida musiqaga inson ovozini rechitativ qo'shish an'anasi mavjud va boshlang'ich sinf o'quvchilarini mazkur janrdagi musiqaning jarangdorligiga mahliyo bo'lib, uni tinglashga qiziqishadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi bunday qiziqishlarni to'g'ri rivojlantirishga e'tibor berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligidagi musiqa bo'yicha *layoqat* mavjud bo'ladi. Masalan, ular ko'p hollarda cholg'u ijrosiga, qo'shiq kuylashga yoki raqs tushishga qiziqish bilan qarashadi. Bunda

boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasi o'quvchining qiziqishlariga binoan musiqiy layoqatini shakllantirishdan iborat. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchisida o'ziga musiqiy-estetik did va ahloqiylik tarkib topadi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'quvchilarining musiqiy layoqatini shakllantirish va rivojlantirish muhim metodik masalalardan hisoblanadi.

E'tiborn berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik layoqatini rivojlantirishda o'ziga xos individual yondashish metodikasiga tayanish taqozo etiladi. Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu borada musiqa san'ati mutaxassislaringim imkoniyatlaridan oqilona foydalanadi, ya'ni o'quvchilarni qiziqishi bo'yicha mutaxassislargacha yo'naltiradi. Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida zamonaviy talablariga javob beradigan va qo'shimcha ta'limni amalga oshiradigan bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat yuritmoqda. Mazkur ta'lim muassasalarining pedagog mutaxassislarini imkoniyatlaridan amaliy foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan har bir mahallada Madaniyatlar klublar tashkil etilgan va bunday tuzilmaning mutaxassislaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda asosiy maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik layoqatini kutilgan darajada rivojlantirishdan iborat.

**"Musiqa madaniyati" fanining boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ongini shakllantirishdagi ahamiyati.** Estetik ong – bu insonning ichki kechinmalarini va his-tuyg'ularining to'g'ri shakllanganligidir, estetik ongga ega inson ongi va qalbida go'zallikka muhabbat, yaxshilikka rag'bat hamda yomonliklardan tiyilish ko'nikmalari mavjud bo'ladi. Shu sababli "Musiqa" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ongini shakllantirish mazkur mashg'ulotlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ongini shakllantirishda musiqa san'atidan foydalanish quyidagi metodikaga asoslanishini eslatib o'tish joiz:

1. o'quvchilarining estetik ongi darajasini aniqlab olish;
2. o'quvchilar bilan individual ishslash;
3. o'quvchilarining estetik ongi rivojlanishini kuzatib borish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining *estetik ongi* darajasini aniqlashda ularning musiqa, qo'shiq yoki raqsga bo'lgan qiziqishlari aniqlanadi. Aniqlangan ma'lumotlarga asosan o'quvchilar bilan tarbiyaviy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday tadbirlarning negizini o'quvchilarining o'z qiziqishlari bo'yicha musiqa, qo'shiq yoki raqs ijro etishi tashkil etadi. Ayni paytda, bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va estetik imkoniyatlari birlamchi darajada e'tiborga olinishi kerak. Chunki o'quvchilar o'z imkoniyatlaridan tashqari bo'lgan ijrochilikka juda qiziqishadi, yoki mashhur san'atkorlarga havas bilan qarab, ularga taqlid qilishga intiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi bunday holatlarda ularning estetik ongini to'g'ri yo'naltirishni bilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ongini shakllantirishda ular bilan imkon qadar *individual ishslash* samarali hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarining musiqiy layoqati va qiziqishlariga qarab ularni to'garaklarga jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldag'i "Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga asosan har bir mакtabda maxsus musiqa to'garaklari tashkil etilgan va ularda taniqli san'atkorlarning faoliyat yuritishi yo'lga qo'yilgan. Shu jihatdan bunday to'garaklarning imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual ishslash kutilgan va samarani beradi va uning vositasida o'quvchilarining estetik ongini maqsadli shakllantirishga erishiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ongi rivojlanib borishini *kuzatish* muhim vazifalardan biridir. Bunda o'quvchilarining o'z qiziqishlarini namoyon qilishi, ularning musiqiy tadbirlardagi faolligi va tarbiyaviy tadbirlardagi tashabbuskorligiga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Chunki estetik ongi rivojlanish jarayonida bo'lgan o'quvchilar ko'p hollarda o'z layoqatlari va qiziqishlarini omma oldida namoyon qilishga intiladi. Shuningdek, ba'zi o'quvchilarda tortinchoqlik odati kuzatilakdi va bunday hollarda boshlang'ich sinf o'qituvchisi ularni faollashtirishi kerak. Chunki estetik ongi kutilgan darajada shakllangan o'quvchining ahloqiy va o'quv faoliyatida ijobiy o'zgarishlarning ustuvor bo'lishi kuzatiladi.

Shunday qilib "Musiqa madaniyati" boshlang'ich sinflarda musiqa

san'atini o'rganishning eng muhim asosi hisoblanadi. Mazkur o'quv fanining boshlang'ich sinflardagi shakli o'quvchilarining ma'naviy, estetik, jismoniy va ruhiy xususiyatlarga asoslanishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur masalalar bo'yicha nazariy va metodik ko'nikmalarni o'zlashtirishi taqozo etiladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. "Musiqa madaniyati" – boshlang'ich ta'limning asosiy o'quv fanlaridan biri sifatida o'quvchilarga qanday asoslar bo'yicha ta'lim va tarbiya beradi?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa san'ati asoslarini o'rgatish xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy – estetik layoqatini rivojlantirish bo'yicha nimalarni bilasiz?
4. "Musiqa madaniyati" fanining boshlang'ich sinf o'quvchilari estetik ongini shakllantirishdagi ahamiyati nimalardan iborat?

## 2.3. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJROCHILIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

### Reja:

1. Bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqslari xususiyatlari.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'shiq ijrochiligi ko'nikmasini shakllantirish.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqs san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish.

**Tayanch so'zlar:** boshlang'ich, musiqa, ijrochilik, ko'nikma, shakllantirish, o'rgatish, ko'niktirish, odatlantirish.

**Bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqslari xususiyatlari.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijrochilik ko'nikmasini shakllantirishda musiqaga oid nazariy va amaliy tushunchalar berish samarali hisoblanadi. Musiqa – ohangli tovushlardan tuzilgan bo'lib, yuqori, past va bir tekis balandlikda bo'ladi. *Bolalar musiqasida* yuqori balandlikdagi ohanglardan foydalanish cheklanadi, lekin yuqori tovush ohangli bo'lsa-da, bolalarning eshitish qobiliyati va miya faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan bolalar musiqasining quyidagi xususiyatlarga e'tibor berish lozim:

- a) ohanglarga boy bo'lishi;
- b) past tovushga ega bo'lishi;
- v) ohanglarning bir tekis sadolanishi.

Mazkur xususiyatlarga e'tibor berish nafaqat boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy ko'nikmasiga, balki o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash ishiga xizmat qildi. Chunki bolalar musiqasi o'quvchilarni ruhlantirishi va ularning miya faoliyatida motivasiyalar paydo qilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

*Bolalar qo'shiqlarida* o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ularda ham ohang, mazmun va ravonlik muhim o'rinn tutadi. Bolalar qo'shiqlarini yaratishda eng ohangli va undoshlarga boy so'zlar tanlanadi, unli tovushlarni faqat cho'ziq tovush yoki qo'shiqlarning avj pardalarini ijro etish uchun ishlatiladi. Shu sababli mamlakatimizda

eng iste'dodli shoirlarning she'rlari bolalarning qo'shiqlari sifatida tanlanadi va bastakorlar ularga kuy bastalaydi. Ayniqsa, bu borada xalq qo'shiqlariga ustuvor darajada ahamiyat beriladi. Chunki xalq qo'shiqlari ohanglar va qochirimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan bolalar qo'shiqlarini tanlashda quyidagi xususiyatlarga e'tibor berish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi:

- a) jarangdor va qisqa talaffuzli so'zlarga boy so'zlarni tanlash;
- b) qo'shiqlarning mazmunga boy bo'lishiga e'tibor berish;
- v) qo'shiq matnining o'zida musiqiylikning mavjud bo'lishi.

Mazkur xususiyatlar bolalar qo'shiqlarining o'ziga xos janr sifatida shakllanishiga asos bo'lган. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab bolalar shoirlari va kompozitorlari professional kishilar sifatida mazkur janrnii jahon xalqlari bolalar qo'shiqlari darajasida takomillashtirib kelmoqda. Ta'kidlash lozimki, xalq she'rlarini bolalar qo'shiqlari sifatida tanlanib, ularga musiqa yozuvchilarni baskatorlar va shoirlarning she'rlariga musiqa yozuvchilarni esa kompozitorlar deb ataladi. Shu sababli musiqa san'atining muhim muassasalaridan biri O'zbekiston bastakorlar va kompozitorlar uyushmasi deb ataladi. Avaz Mansurov, Oydin Abdullayeva kabilar kompozitor, Nodim Norxo'jayev, Mahmud Tojiboyev kabilar esa bastakorlar hisoblanadi.

*Bolalar raqslari* ham o'ziga xos bo'lib kattalar raqsidan butunlay farq qiladi. Kattalar raqsida pa (yurish), sa (xarakat) kabi atamalar ishlatilsa, bolalar raqslarida esa o'yin, xarakat, serxarakat, tezlanish, sustlanish kabi atamalar ishlatiladi. Shu jihatdan bolalar raqslariga quyidagi mezonlar asosida yondashish pedagogik talablarga rioya qilish hisoblanadi:

- a) raqsga tushayotgan bolalarning muskullari, paylari va asab tolalari cho'zilmasligi;
- b) boshni aylantiradigan va ko'zni tindiradigan xarakatlarning kam bo'lishi;
- v) bolalarda hayajon, zavq va shijoat uyg'otuvchi mazmunning ustuvor bo'lishi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur masalalarni chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa o'qituvchilari

va mashhur san'atkorlar faoliyat yuritmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur mutaxassislarning yordamidan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa, qo'shiq va raqs xususiyatlarini amaliy o'zlashtirib olishi yoki amaliy faoliyatda ularning yordamiga tayanishi kutilgan samarani beradi. Bundan tashqari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalar musiqa va san'at muktablarining pedagoglari bilan ham hamkorlik qilishi bolalar musiqasi, qo'shiqlari hamda raqslarining xususiyatlarini o'zlashtirib olishida qo'l keladi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish "Musiqa" o'quv fanining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki musiqani to'g'ri tinglash bola ma'naviyati va aqliy imkoniyatlarining kengayishiga hizmat qiladi, shuningdek, musiqa ijro etish ularning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillardan biridir. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi «Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori bilan har bir umumiyl o'rta ta'lim muktablarida "Amaliy musiqa to'garaklari" faoliyat yuritishi va ularda atoqli san'atkorlarning mahorat darslarini o'tish belgilab qo'yilgan. Bundan maqsad bolalarning musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirish bilan ularning ma'naviy va estetik olamini yanada boyitishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) o'quvchilarni ularga mos cholg'ular bilan tanishtirish va musiqaning nota kabli eng asosiy tushunchalari bo'yicha ko'nikma berish (masalan, "Musiqa" darsliklarida musiqaning asosiy belgisi bo'lgan sol (skripka) kaliti bilan tanishtirishga diqqat qaratilgan);

b) o'quvchilarni musiqa tanlashga o'rgatish va ularni tinglashda kamida qoidaga ko'ra bir yarim qarich naridan turib eshitishga odatlanish (masalan, bugungi kunda qulochchin (naushnik) kabi qurilmalar bola miyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, xatto ularda karlik alomatlarini paydo qilishi ma'lum);

v) o'quvchilarni musiqa ijrosiga ko'niktirishda ularning qiziqqan

cholg'ularini tanlash va cholg'ularning bolalarga mos tarzda ishlab chiqilganligiga e'tibor berish, cholg'u ijrosida bolalarga jismoniy va ma'naviy zarar yetkazmaydigan xarakatlarga o'rgatish (masalan, keyingi paytlarda ko'p o'quvchilarining katta yoshlilargi mos ishlab chiqarilgan cholg'ulardan foydalanishi kuzatilmoqda, mashhur cholg'umiz Doiraning ham bolalarbop ishlab chiqilganligi mavjud).

Bularga amal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilariningmusiqa tinglash va ijro etish ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirishga asos bo'ladi. Unutmaslik lozimki, aynan musiqa san'ati bolalarni ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ma'lumotlardan himoya qiluvchi eng muhim vositalardan hisoblanadi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'shiq ijrochiligi ko'nikmasini shakllantirish.** Mutafakkir bobomiz Abu Nasr Farobi "Katta musiqa kitobi" asarida bolalarni qo'shiq ijrosiga o'rgatish ularning iste'dodini rivojlantirishdagi muhim qadamlardan biridir, deb ta'kidlagan edi va buning misoli sifatida qadimgi Yunonistonda Musiqa fani aynan boshlang'ich sinflarda muhim fanlardan biri sifatida o'qitilganligini ko'rsatib o'tgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini qo'shiq ijrosiga o'rgatish ularda shijoat, ruhiy ko'tirinkilik va mardlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'pincha Madhiya so'zini ishlatmaydi, aksincha, "Bugun Serquyoshni kuyladik" deb so'zlaydi. Haqiqatan ham madhiyamiz Serquyosh hur o'ljam kabi eng jarangli va ohangli so'zlar bilan boshlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini qo'shiq ijrosiga ko'niktirishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) imkonqadar o'quvchilarining o'zlari tanlagan qo'shiqlarni kuylashga o'rgatish;

b) o'quvchilarining jismoniy, yosh va ma'naviy xususiyatlariga mos qo'shiqlarni kuylashga ko'niktirish;

v) o'quvchilarining ovozi va tovush psychalariga zarar keltirmaydigan qo'shiqlarni kuylashga yo'naltirish.

Bularga amal qilish boshlang'ich sinf o'qituvchisining dars mashg'ulotlari samaradorligiga olib keladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, turli konkurslar va tanlovlarda o'quvchilarining imkoniyatlariga mos kelmaydigan og'ir vaznli Katta ashula, Maqomlar

kabilarni kuylashi kuzatiladi. Bunday ashulalar yuqori avjlarga egaligi bilan o'quvchilarining imkoniyatlari mos kelmasligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli oliv pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bunday kasbiy ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishi tavsiya etiladi.

Bolalar san'at tanlovlari keyingi paytlarda keng o'tkazilmoqda. Bunday tanlovlarning imkoniyatlardan foydalanish bolalarning qo'shiq ijrochiligiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi va ularning kuylash ko'nikmasini sayqallashtiradi. Shu jihatdan mashg'ulotlarda eng mashhur bolalar ansamblarining kuylash ko'nikmalarni namuna yoki misol sifatida ko'rsatish samarali hisoblanadi. Misol uchun, keyingi paytlarda "Tomosha" bolalar ansambl o'zining ijrochilik ko'nikmasi bilan nafaqat mamlakatimizda, balki jahon halqlari orasida ham mashhurdir. Chunki ansambl aynan bolalar qo'shiqlarini kuylash tajribasiga egaligi bilan mutaxassislarining e'tirofiga sazovor bo'lgan. Yoki "Boychechak" bolalar ansambl musiqa va raqs ijrochiligidagi o'ziga xos tajribalarga ega. Shu jihatdan bunday ansamblarining ijrochilik ko'nikmalaridan amaliy foydalanib, mashg'ulotlarni o'tish o'quvchilarini qiziqtiradi va ularning qo'shiq ijrochilik ko'nikmasining to'g'ri shakllanishiga asos bo'ladi.

Keyingi paytlarda milliy televideniyamizning "Navo" hamda "Madaniyat va ma'rifat" telekanallarida bolalar qo'shiq ijrochiligi bo'yicha o'ziga xos ko'rsatuvar efiriga uzatilmoqda. Bunday amaliy materiallardan ham dars mashg'ulotlarida foydalanish kutilgan samarani beradi. Chunki kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini nazariy jihatdan muhim tajribalarga ega, shu sababli ular bu borada amaliyot namunalaridan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

***Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqs san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish.*** Raqs jismoniy, ma'naviy va estetik jihatdan muhim san'at turidir. Shu sababli XV asrda temuriylar davrida boshlang'ich ta'lifda mashhur raqqoslar ta'lim oluvchilarini raqsga o'rgatishi an'ana tusini olgan. Shuningdek, jadid mutafakkirlari aynan yangi tashkil etilgan maktablarda bolalarni raqsga o'rgatish bo'yicha maxsus yondashuvlarni amalga oshirgan. Misol uchun, buxorolik mashhur raqqos Isoxor Oqilov (bu kishi Mukarrama Turg'unboyeva asari), Ma'mura Ergasheva, Rushana Sultonova kabi

mashhur raqqosalarning ustozni bo'lgan) Buxoro jadid maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga raqs ijrochiligi bo'yicha saboqlar olib borgan. Aynan mana shu pedagogning usullari va usublari keyinchalik mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lif maktablarida "Musiqa" darslarining raqs asoslari bo'yicha bo'limlarida asos sifatida olingan. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqs san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish pedagogik, psixologik va estetik vazifalar toifasiga kiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqs san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) raqlar mazmuni va xarakatlarining ma'nolarini tushuntirish;
- b) raqs san'atining bolalar rivojlanishida tutgan o'rnni sharhlab berish;
- v) butun dunyoda bolalar raqlari bo'yicha o'quvchilarining zaruriy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi madaniyatlilikning belgilardan biri sifatida qaralishini o'rgatish.

Bularga amal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqs san'ati asoslari bo'yicha kerakli tushunchalarga ega bo'lishiga imkoniyatlardan yaratadi. O'quvchilar ta'lifning keyingi bosqichlarida aynan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalaridan to'g'ri foydalanishadi. Shu sababli barcha fanlar qatorida boshlang'ich ta'lifda "Musiqa" o'quv fanini o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'g'il va qiz bolalar uchun mo'ljallangan raqlar mavjudligini o'zlashtirishi kerak. Shu jihatdan o'g'il bolalar uchun mo'ljallangan raqlarda tana xarakatlari ko'proq bo'ladi, qiz bolalarga mo'ljallangan raqlarda esa tana xarakatlardan ko'ra yuz mimikalariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bular haqida tushunchaga ega bo'lish boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqs san'atining chinakam asoslari bilan tanishtirish imkonini beradi.

Keyingi paytlarda raqqos ustozlar va baletmestrlar tomonidan bollaarbop raqlar sahnalashtirilmoqda. Bunday raqlarda ko'pincha jamoa bo'lib ijro etishga asosiy e'tibor qaratiladi. Masalan, "Tanavor" (Mukarrama Turg'unboyeva asari), "Doira raqsi" (Usta Olim Komilov asari), "Andijon polkasi" (xalq raqsi) kabilalar shular jumlasidandir. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilar javon

xalqlarining bolalar raqslaridan ham tushunchaga ega bo'lishlari kerak. Balet, Tango, Lezginka, Vals kabi jahon halqlarining raqslari bo'yicha o'quvchilarining tushunchalarga ega bo'lishi dars mashg'ulotlarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Chunki bugungi kunda mamlakatimiz jahon halqlari bilan integrasiyasi mavjud bo'lib, bu hol ularning madaniyati va san'atidan ham xabardor bo'lishni taqozo etadi.

"Musiqa san'ati – ART texnologiya va kreativlikning omili" sifatida ijodkorlik, ijrochilik va iste'dodni namoyon qilish xususiyatlari bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oliv pedagogik ta'limgarayonida musiqa san'atining asoslari, bolalar musiqa san'atining xususiyatlari va musiqa san'atining ijrochilik asoslari bo'yicha nazariy bilim hamda metodik ko'nikmalarini egallash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasida muhim o'rinni tutadi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqslari xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'shiq ijrochiligi ko'nikmasini shakllantirish qanday asoslarga ega?
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqs san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun nimalarga ahamiyat berish lozim.

### **3-BOB. «TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT – ART TEXNOLOGIYA VA KREATIVLIKNING NEGIZI»**

#### **3.1. Tasviriy san'at asoslari**

##### **Reja:**

1. "Tasviriy san'at" – boshlang'ich ta'limgarayonida ART texnologiyaning asosi sifatida.
2. Tasviriy san'atning xususiyatlari va uning amaliy hamda haykaltaroshlik san'atlari bilan bog'liqligi.
3. Tasviriy san'atning san'at turlari bo'yicha ko'nikma berish asoslari.

**Tayanch tushunchalar:** tasviriy san'at, boshlang'ich ta'limgarayonida ART texnologiya, xususiyatlari, san'at turlari.

**"Tasviriy san'at" – boshlang'ich ta'limgarayonida ART texnologiyaning asosi sifatida.** Tasviriy san'at – bu borliqda mavjud bo'lgan mavjudot, narsa va hodisalarini tasvirlovchi san'at turidir.<sup>16</sup> Bu san'at turi boshlang'ich ta'limgarayonida ART texnologiyaning So'z san'ati va Musiqa san'ati bilan birgalikda asosini tashkil etadi. Xorijlik pedagoglar ART tushunchasida ko'p hollarda amaliy san'at turlarini tushunadi va shu jihatdan tasviriy san'at ma'naviy hamda amaliy san'at asoslarini o'zida mujassamlashtirgan. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab mamlakatimizning boshlang'ich ta'limgarayonida tasviriy san'at asosiy o'quv fanlaridan biri sifatida o'qitila boshlangan va uning vositasida bolalarning badiiy idrokini shakllantirish estetik didini tarkib toptirish va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga asosiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limgarayonida tasviriy san'atni o'qitish, o'rganish va o'zlashtirish insonning ijodiy fikrashi hamda layoqati bilan bog'liq g'olda idrok etiladi. Mana shu jihatdan o'zga san'at turlariga nisbatan tasviriy san'at ta'limgarayonida kreativlikni tarkib toptirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Milliy ta'limgarayonida tasviriy san'at bir necha bosqichlar va

<sup>16</sup> Ҳасанов Р. Тасвирий санъат асослари. – Тошкент, 2009. 193-бет.

yo‘nalishlar asosida rivojlanib kelgan. Uning tadrijiy bosqichlarini quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

- 1) eramizdan avvalgi davrdan VIII asr oxirigacha bo‘lgan davr;
- 2) o‘rta asrlar davri (IX-XIX asrlar);
- 3) yangi davr (XX-XXI asrlar).

*Birinchi davrga* oid namunalar mamlakatimizning Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy va Ayritom va Farg‘ona viloyatidagi Parkana adirliklarida ioriogriflar, ya’ni qoya toshlar hamda temirlarga o‘yib ishlangan suratlar shaklida yetib kelgan. Bu manbalarda xalqimizning turmush-tarzi, o‘simlik va hayvonot dunyosi tasvirlangan hamda bu tasviriy san‘at namunalari bugungi kunda olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Mazkur manbalar YUNESKOning umuminsoniy milliy madaniy merosi Ro‘yxatiga kiritilgan. *Ikkinci davrga* oid namunalar haykaltaroshlar va rasssom musavvirlarning asarlari vositasida yetib kelgan. Bu borada ayniqla, Kamoliddin Behzodning (XVI asr) miniatyura, ya’ni inson tasviri va turmush-tarzining ifodasi bo‘lgan asarlari orqali bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular milliy merosimiz hisoblanadi. *Uchinchi davrda* professional rassomlarning voyaga yetishi va ularning tasviriy san‘atning turli janrlarida asarlar yaratishi muhim xususiyat hisoblanadi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, mazkur davrlarda tasviriy san‘atning bir necha yo‘nalishlari amalda bo‘lgan. Ulardan eng muhimlari romantizm, ya’ni hayol va fikrning ustuvor tasvirlanishi, realizm, ya’ni borliqning aniq tasvirlanishi, syuralizm, ya’ni mavjud va borliqni tasavvur va fantaziya orqali tasvirlanishi hamda eksestalizm ya’ni, tasvida inson kechinmalari va his-tuyg‘ularining psixologik ifodalanishi kabi yo‘nalishlar amalda bo‘lib kelgan. Bugungi kunda milliy tasviriy san‘atimizda bu yo‘nalishlarning barchasida ijod qilinayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tasviriy san‘atning asoslariga doir bunday nazariy ma‘lumotlarni chuqur o‘zlashtirishi taqozo etiladi. Chunki nazariy bilimga ega bo‘lish boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga Tasviriy san‘atni o‘qitishda keng imkoniyatlardan biri bo‘lib hizmat qiladi. Negaki, insonning tasviriy san‘atga bo‘lgan layoqati juda yoshlikdan boshlab namoyon bo‘ladi va shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqish hamda layoqatlarning yaqqol

mavjud bo‘lishi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan yetuk kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Pedagog olimlar tasviriy san‘atning ijobiylik va insonni tarbiyalashning boy imkoniyatiga egaligiga ko‘ra, uni ART texnologiyaning asoslaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Bunda ayniqla mazkur san‘at turini boshlang‘ich sinflarda chuqurlashtirilgan holda o‘qitishni tavsiya etishadi.

*Tasviriy san‘atning xususiyatlari va uning amaliy hamda haykaltaroshlik san‘atlari bilan bog‘liqligi.* Tasviriy san‘atning mashhur quyidagi uch turi mavjud:

- 1) Rangtasvir;
- 2) Haykaltaroshlik;
- 3) Grafika (qalam tasvir);<sup>17</sup>

*Rangtasvir* deb tekit yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytildi. Unda asosan moyli bo‘yoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalamlar kabilardan foydalaniladi. Rangtasvirning quyidagi mashhur turlari mavjud: 1) dastgohli rang tasvir; 2) monumental rangtasvir; 3) miniatyura rang tasviri; 4) dekarativ rang tasvir; 5) teatr dekarativ rang tasviri. Boshlang‘ich ta’limda rang tasvirning mazkur turlaridan ko‘proq dekarativ, ya’ni bezak rangtasviri keng ishlatiladi hamda o‘quvchilarning jismoni va ruhiy imkoniyatlari mos ravishda zararsizlantirilgan bo‘yoqlardan foydalaniladi. Misol uchun guash yoki akvarelning hidi nihiyatda o‘tkir, shu sababli boshlang‘ich sinflarda imkon qadar rangli qalamlardan foydalanish metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi.

*Haykaltaroshlik* ham rang tasvir kabi hayotiy voqeilik va hodisalarini turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida narsalardan buyumlar yasash, haykalchalar yaratish kabi layoqatlar yuqori bo‘ladi. Shu sababli maxsus gil (loy), plastilin kabi materiallardan foydalangan holda o‘quvchilarga haykaltaroshlik asosları bo‘yicha ko‘nikmalar beriladi. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining haykaltaroshlik namunalarining mazmunini bilishiga e’tibor qaratiladi. Agar o‘quvchi o‘zi yasayotgan buyumning

<sup>17</sup> Қаранг: Ойдинов М. Рассом-ўқитувчилар тайёrlashi муаммолари. – Тошкент, 1997. Ҳасанов Р. Тасвирий санъат асослари. – Тошкент, 2009 ва х.к.

ma'nosini anglasa u kutilgan darajada haykaltaroshlik namunalarini yarata oladi. Shu jihatdan mashhur san'atshunos pedagog M. Chernyavskaya boshlang'ich sinf o'quvchilarining buyumlar va narsalar yasashiga xalaqit bermaslik hamda ularni o'zları yasagan buyumlarning mazmunini so'zlab berishga o'rgatishni tavsiya etadi.<sup>18</sup>

Tasviriy san'atning *grafika* turi lotincha bo'lib, yozaman, chizaman ma'nolarini bildiradi va bu turda narsalar va buyumlar chizish orqali ifodalanadi. Masalan, metall, yog'och, linoleum, togsh kabi materiallarda ishlanib keyin undan qog'ozga ko'chiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar narsalar va buyumlarni avval yasab keyin ularning tasvirini chizishga o'rgatiladi. Grafika san'at asari katta o'chamda bo'lmasligi va bo'yoqlar sonining chegaralanganligi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Mazkur san'at turining yorqin misoli miniyatyrulardir.

E'tibor berilsa, san'atning bu turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega va ayni paytda ular muayyan bog'liqlik bilan xarakterlanadi. Boshlang'ich sinflarda Tasviriy san'atni o'qitish va u orqali o'quvchilarining ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Mazkur vazifalarning ijrosi jarayonida quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi.

*Tasviriy san'atning san'at turlari bo'yicha ko'nikma berish asoslari.* Boshlang'ich sinflarda Tasviriy san'atni o'qitish va u orqali o'quvchilarining ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Mazkur vazifalarning ijrosi jarayonida quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

- 1) o'quvchilarining tasviriy san'at turlari bo'yicha tushunchalarga ega bo'lishi;
- 2) o'quvchilarining tasviriy san'atga doir layoqatlarini rivojlantirish;
- 3) o'quvchilarining tasviriy san'at mazmunini so'zlab berish ko'nikmalarini shakllantirish.

<sup>18</sup> Чернявская Н.С. Изобразительное искусство и младший школьник. // Искусство в жизни детей. Сборник. – Москва, 1991. – С. 51

Bunday yondashuv boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at turlari vositasida tarbiya jarayonini kuchaytirishga erishiladi. Pedagog olimlarning fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilarini quyidagilarga o'rgatish ta'kidlangan vazifalarni amalga oshirishda asos bo'ladi:

- a) o'quvchilar narsalarni oddiy va ijodiy yondashuv asosida yasashga ko'niktirish;
- b) o'quvchilar narsa va hodisalarini kuzatishga o'rgatish;
- v) o'quvchilarining ijodiy layoqatini namoyon qilishga ko'niktirish.<sup>19</sup>

Haqiqatan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini narsalar va voqeilikni oddiy tasvirlashga o'rgatish hamda ularni ijodiylikka ko'niktirish muhim metodika hisoblanadi. Bu bilan ular narsa va hodisalarini kuzatishga o'rganadi. Shuningdek, o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha ijodiy layoqati tadrijiy rivojlanib boradi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini narsa va hodisalarini kuzatishga o'rgatish ularning tasvirlash ko'nikmasini tez shakllantiradi. Masalan, o'quvchilarga bahor tasvirini chizinglar deb topshiriq berish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi, aksincha, avval ularga bahor kuzatish topshirig'i berilib va keyin tasvirlash topshirilsa o'quvchilar bahor tasvirini kutilgan darajadan ham munosib tasvirlab berishadi. Shu sababli o'quvchilarga narsa va hodisalarini kuzatish, ularni o'rganish va keyin tasvirlash bo'yicha ko'nikmalar berish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, o'zingiz yaxshi ko'rgan narsaning haykalini yasang degandan ko'ra, haykalchalarni ko'rsatib ularni tasvirlash topshirilsa kutilgan samaraga erishiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilar ko'p hollarda o'z tajribalariga tayangan holda o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan narsalar va buyumlarni yasash yoki chizish topshirig'ini berishadi. Masalan, o'quvchilar Onalar tasvirini juda to'laqonli chizishadi va o'zları yaxshi bilgan narsalarni to'g'ri yasay olishadi. Shu jihatdan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining tasviriy san'at bo'yicha individual metodikaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'llimda Tasviriy san'atni o'qitish reallikka asoslanishi kerak.

<sup>19</sup> Каранг: Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. – Москва, 1992. Левин С.Д. Ваш ребёнок рисует. – Москва, 1999 ва.х.к.

Shunday qilib tasviriy san'at asoslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u ART texnologiya va kreativlikning muhim negizlaridan hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lilda mazkur san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika turlarining imkoniyatlaridan foydalangan holda uyg'un o'qitilishi kutilgan samarani beradi.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. "Tasviriy san'at" – boshlang'ich ta'lilda ART texnologiyaning asosi sifatida qanday pedagogik vazifalarni bajaradi?
2. Tasviriy san'atning xususiyatlari va uning amaliy hamda haykaltaroshlik san'atlari bilan bog'liqligi deganda nimalarni tushunasiz?
3. Tasviriy san'atning san'at turlari bo'yicha ko'nikma berish asoslari bo'yicha ta'lim berishda nimalarga e'tibor beriladi?

**3.2. Tasviriy san'at boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART – kreativlik ko'nikmasini shakllantirish asosi**

**Reja:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.
2. Tasviriy san'at vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy idrokini tarkib toptirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha layoqatini rivojlantirish.
4. Tasviriy san'atning o'quvchilar estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** tasviriy san'at, boshlang'ich sinf, o'quvchi, ART texnologiyasi, kreativlik ko'nikmasi, shakllantirish.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida ART va kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Mazkur masalada quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

1. bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy san'at asoslari bo'yicha nazariy bilimlarini kuchaytirish;
2. mazkur toifa talabalarning rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlash ko'nikmalarini tarkib toptirish;
3. talabalarning tiasviriy san'at bo'yicha layoqatlarini rivojlantirish.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy san'at asoslari bo'yicha nazariy bilimlarini kuchaytirishda bu san'atning turlari, xususiyatlari va o'quvchilarni tarbiyalashdagi ahamiyati masalalariga e'tibor berish kutilgan samarani beradi. Chunki tasviriy san'atning turlari keng ko'lamli bo'lib, ular bo'yicha tushunchalarga ega bo'lish boshlang'ich sinf o'quvchilarini uning asoslari bilan tanishtirishda qo'l keladi. Shuningdek, talabalarning rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlar ko'nikmalarini shakllantirishda profilaktik asoslar, pedagogik yondashuvlar va individual ijodiylikni tarkib toptirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Foydalanimadigan loy

va plastilin tibbiy-ijtimoiy qoidalarga mos bo‘lishi taloab etiladi, negaki bugungi kunda mazkur ashyolarni ishlash chiqish bo‘yicha turli texnologiyalardan foydalaniladi. Shu sababli talabalar tasviriy san’at mashg‘ulotlarida foydalaniladigan ashyolarning xususiyatlari bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida rasm chizish bo‘yicha muayyan ko‘nikmalar shakllangan hisoblanadi. Ammo ular rasm chizishning nazariy asoslari bilan qurollantirilishi davlat ta’lim standartlari va malaka talablarining ijrosini ta’minalash bilan bog‘liq hodisadir. Rasm chizishning zamonaviy texnologiyalari, usullari va uslublari bo‘yicha keng nazariy bilimlarga ega bo‘lish taqozo etiladi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, ko‘pchilik talabalar rasm chizishning umumiy jihatlaridan xabardor va bu boradagi mashhur uslublarni o‘rganishgan emas. Masalan, mashhur rassom Ro‘zi Choriyev Rasm chizishda avval oddiy qalamdan foydalanib, keyin unga rang bergan.<sup>20</sup> Bugungi kunda ko‘pchilik iste’dodli talabalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri moybo‘yoqlardan foydalanib rasm chizishi kuzatiladi. Shu jihatdan Ro‘zi Choriyevning uslubining ahamiyati shundaki, chizilayotgan tasvirni oddiy qalam bilan takomillashtirish imkoniyatlari mavjud va moybo‘yoq kabi vositalar bunga imkon bermaydi. Natijada chizilgan tasvirlar xomaki varianti taqdirm etiladi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda oddiydan murakkablikka tamoyiliga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun boshlang‘ich ta’limda sinflar kesimida ishlash kutilgan samarani beradi. Misol uchun, 1-sinfda o‘quvchilarining rasm chizish ko‘nikmasini shakllantirish, 2-sinfdan boshlab esa ularning loy va plastilin bilan ishlashga odatlantirish metodikasi muhim ahmiyatga ega. Tasviriy san’at bo‘yicha mutaxassis-o‘qituvchilarining umumiy fikricha, bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rasm chizish, ularning loy va plastilin bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda ko‘p hollarda tajribyuali o‘qituvchilarining individual uslublariga tayanish amaliy natijani beradi. Chunik amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilar o‘z

<sup>20</sup> Рўзи Чориев. Ижодим хақида ўйларим. – Тошкент, 2009

tajribalari asosida o‘quvchilarining ko‘nikmalarini shakllantirishda muayyan uslublarda tajriba-sinovdan o‘tkazgan hisoblanadi. Shu jihatdan oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar haftalik pedagogik amaliyat davrida bunday uslublarni o‘zlashtirishga xarakat qilishi tavsiya etiladi.

**Tasviriy san’at vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy idrokini tarkib toptirish.** Badiiy idrok – bu tasviriy san’at asarlarini tushunish, tahlil qilish va uning mazmunini tasavvur etish majmuidir.<sup>21</sup> Shu jihatdan badiiy idrokning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini aqliy, ruhiy va estetik jihatdan tarbiyalashda muhim o‘rnii mavjudligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasviriy san’at vositasida badiiy idrokini shakllantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘quvchilarini tasviriy san’at asarlari mazmunini tushunishga o‘rgatish;
- o‘quvchilarini tasviriy san’at asarlari namunalarini tahlil qila olishga ko‘nkitirish;
- o‘quvchilarini tasviriy san’at asarlari bo‘yicha o‘z tahlillarini so‘zlab berishga o‘rgatish.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda o‘ziga xos tasviriy san’at asarlari namunalari o‘rganish va ular asosida o‘quvchilarining badiiy idrokini shakllantirishga e’tibor berish kutilgan darajada yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda tasviriy san’at asarlarining keng ko‘lamli *namunalari* berilishi amaliy jihatdan muhim ahmiyatga ega. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tasviriy san’at asarlari mazmunini tushunishga o‘rgatish bu boradagi ta’lim va tarbiya jarayonining negizlaridan birini tashkil etadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar asarni ilk ko‘rishi dayoq u haqida tasavvurga ega bo‘lishadi va o‘zlarini tushungan mazmunni hikoya qilib berish imkoniyatiga ega. Buning uchun o‘qituvchi ularga tasviriy san’at asarlarining turlari, ranglari, ramzlari va obrazlari to‘g‘risida tushuncha berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tasviriy san’at asarlari

<sup>21</sup> Жабборова О.М. Бўлажак ўқитувчилар бадиий идрокини шакллантириш. – Тошкент, 2019

namunalarini *tahlil qilishga* o'rgatish ham katta ahamiyatga ega. Bunda tasviriy san'at asarlari namunalarining mazmuni, chizilish texnikasi, ranglar tanlash asoslari va rassomning o'ziga xos uslubini tushuntirish hamda ular asosida asarlarni *tahlil qilish* o'quvchilarining badiiy-estetik didini kuchaytiradi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasviriy san'at asarlariga bo'lgan qiziqish judi yuqori bo'ladi va bu omil ularni asarlar mazmunini *tahlil qilishga* o'rgatish uchukn tayanch hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchisining *tahlil bo'yicha* fikri o'qituvchi tomonidan to'liq qabul qilinishi kerak, ayni paytda, bu fikrning to'laqonli bo'lishi uchun o'ziga xos yondashuv asosida korreksiyalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchining fikri qabul qilinsa, uning fikrlashi va tasavvuri rivojlanib boradi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqlari shakllanish jarayonida bo'lishi ma'lum. Shu jihatdan ular tasviriy san'at asarlari *tahlili* bo'yicha fikrlarini yozma va og'zaki bayon qilib bera olishi metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadi, ba'zi o'quvchilar tasviriy san'at asarlari *tahlilini* yozma ravishda juda to'liq ifodalaydi va ayrimlari esa og'zaki nutq vositasida fikrlarini yorqin tushuntiradi. Shu jihatdan bu borada o'quvchilarining yozma va og'zaki nutqini uyg'un shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, aynan asar mazmunini tushunish, uni *tahlil qila* olish va *tahlillarni ifodalab* berish badiiy idrokning muhim asoslaridan biridir. Bularning natijasida o'quvchilarida tasviriy san'at asarlarini his etish, uning obrazlarini tasavvur qilish va o'zlarining hulosalarini asar ko'rinishida ifodalash ko'nikmalarini hosil bo'ladi. Bu hol badiiy idrokning mazmunini ifodalaydi. Shu jihatdan olyi pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'quvchilarining badiiy idrokini tasviriy san'at asarlari vositasida shakllantirish bo'yicha o'ziga xos nazariy bilim va metodlarni o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Takrorlash lozimki, bunda ham pedagogik amaliyat davrida amaliy faoliyatdag'i o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishslash kutilgan samaranı beradi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha layoqatini rivojlantirish.** Mamlakatimizning ko'p yillik boshlang'ich

ta'lif pedagogikasi shuni ko'rsatadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'ziga xos tasviriy san'at bo'yicha *layoqat* mavjud. Aslida Sharq pedagogikasida insonda *layoqatning tug'ma bo'lishi* e'tirof etilgan.<sup>22</sup> Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha tabiiy *layoqatga* ega ekanligini mazkur soha-pedagog mutaxassislari e'tirof etishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha tabiiy *layoqatini* rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quvchilarining rasm chizish ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish;
- 2) o'quvchilarida ijodiylikni rivojlantirish;
- 3) o'quvchilarida badiiy idrokni tarkib toptirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy *layoqatini* rivojlantirishda muhim metodik asoslarni beradi. Jumladan, ularni rasm chizishning barcha asoslari bilan tanishtirish *layoqatlarini* to'g'ri yo'naltirishga asos bo'ladi va bunda o'quvchilar bilan individual ishslash tasviya etiladi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadi, *layoqati* mavjud boshlang'ich sinf o'quvchilar rasm chizishda juda ko'p xarakatlarni bajaradi va bu hol ba'zida o'quvchilarining chizgan rasmlarining sayoz mazmunga ega bo'lishiga omil bo'lib qoladi. Shu sababli o'quvchilarga kam xarakat bilan mazmunli rasm chizishni o'rgatish ularning *layoqatini* rivojlantirishdagi birinchi qadamdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha *layoqatini* rivojlantirishda ularda ijodiylikni tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Ijodiylik aslida aniq va ko'rinish turgan voqeilkni individual yondashuv asosida *tasvirlashdir*. Buning dalili sifatida muayyan ashyolarni o'quvchilarining xilma-xil *tasvirlashini* ko'rsatish mumkin. Misol uchun, bahor fasli aks etgan *tasvirga* qarab o'quvchilarga uni chizish topshirig'i berilsa, har bir o'quvchi *tasvirni* individual tarzda ifodalaydi. Bunga sabab ularning o'z tushunchalariga ko'ra va estetik didlariga asosan ranglarni tanlashidir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiylikni shakllantirish uchun yagona tipdag'i metodikaga asoslanish kutilgan samarani bermaydi. Buning uchun har bir o'quvchining *layoqat*

<sup>22</sup> Мухаммад Фаззолий. Кўнгилларнинг севгани. – Тошкент, 2005

darajasiga ko'ra ijodiylik ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha layoqatini shakllantirishdagi eng muhim omillardan biri ularda badiiy idrokni kutilgan darajada shakllantirishdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'quvchilarning badiiy idroki ularning g'oyaviy tasavvuri, estetik didi va estetik ongining o'ziga xos majmuidan iborat. Layoqatga ega o'quvchilarda bunday omillar rivojlanish jarayonida bo'ladi. Shu sababli bu borada eng asosiy vazifalardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini asarlardagi badiiy obrazni idrok etishga o'rgatishdir. Misol uchun, ular tasviriy san'at asarlarida tasvirlangan manzara, o'simlik va hayvonot dunyosi voqeilik va hodisalardagi obrazlarni idrok eta olishi kerak. Shunda ularning layoqatni shakllantirishda muhim pedagogik kalitga ega bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha layoqatini rivolantirish nazariyasi va metodikasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi kerak.

**Tasviriy san'atning o'quvchilar estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahaniyati.** Estetik madaniyat bu shaxsning munosib his-tuyg'u, did va estetik ong majmuidir.<sup>23</sup> Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik madaniyatini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quvchilarning estetik his-tuyg'usini rivojlantirish;
- 2) o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish;
- 3\_ o'quvchilarning estetik ongini tarkib toptirish.

O'quvchilarining estetik his-tuyg'usi bu tug'ma layoqatning tarkibiy qismi bo'lib, u bevosita voqeilik va xarakatlarni his-qilishga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik his-tuyg'ulari poklik, ozodalik va haqqoniylik xususiyatlariga ega bo'ladi. Misol uchun, ular xunuk narsadan ham zavqlanishi mumkin, chunki bu hissiyotning rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarining aynan mana shu xususiyatlaridan foydalangan holda, ularning estetik his-tuyg'usini to'g'ri rivojlantirishi kerak. Buning uchun o'quvchilarda

hissiyotning tartibga solinishi, go'zallikdan zavqlanish va ularni ifodalay olish ko'nikmalarini to'g'ri tarkib toptirish oqilona metodikalardan hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan estetik his-tuyg'u masalasida individual ishslash kutilgan samarani beradi. Albatta buning uchun dars mashg'ulotlarining vaqtı kamlik qiladi, shu sababli amaliy to'garaklar imkoniyatlaridan foydalanan tavsiya etiladi.

Estetik did – bu go'zallikdan zavqlanish, go'zallik va xunuklikni farqlash ko'nikmasidir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didi rivojlanish jarayonida bo'lishini hisobga olish lozim. Buning uchun o'quvchilarning go'shzallikni his qilishi, eng asosiysi ulardan zavqlanish tuyg'usini shakllantirish kutilgan samarani beradi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bulardan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarini go'zallik va xunuklikni farqlashga o'rgatish ularning estetik didini oqilona shakllantirishdagi muhim omillardan biridir. Bunda asosiye e'tibor o'quvchilar imkon qadar amaliy ishslashga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Estetik ong – bu shaxsning go'zallik va xunuklikni farqlashdagi hissiyotlari hamda didining majmui bo'lib, unda o'ziga xos fikr tarkib topadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ongida tasviriy san'at asarlarini fikrlash vositasida qabul qilish, voqeilik va xarakatni go'zallik yondashuvlari asosida qabul qilish hissiyotlari mavjud bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ongini munosib shakllantirish bugungi kundagi muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik madaniyatini his-tuyg'u, did va estetik ong majmui tashkil etadi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'ziga xos metodologiya bilan qurollanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib tasviriy san'at boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART – kreativlik ko'nikmasini shakllantirishi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bu vositaning imkoniyatlaridan foydalanan boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol voyaga yetkazishda keng imkoniyatlarni beradi.

<sup>23</sup> Карапг: Ҳасанбоев Ж. ва бошк. Педагогика фанидан изохли лугат. – Тошкент, 2009

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish deganda nimani tushunasiz?
2. Tasviriy san'at vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy idrokini tarkib toptirish asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha layoqatini rivojlantirish omillarini nimalar tashkil etadi?
4. Tasviriy san'atning o'quvchilar estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?

### **3.3. Tasviriy san'at bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining kryeativ layoqatini shakllantirish**

#### **Reja:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini asosiy va qo'shimcha ranglar bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish.
3. Tasviriy san'atning qalam tasvir va rang tasvir turlari bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini shakllantirish.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tasviriy san'at faoliyati bilan shug'ullanishga yo'naltirish.

**Tayanch tushunchalar:** *boshlang'ich sinf, tasviriy san'at, o'quvchilar, kreativ layoqat, anglash, rivojlantirish, yo'naltirish.*

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya va kreativ fikrlash layoqatini shakllantirishda ularning tasviriy san'at bo'yicha qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bu borada quyidagicha ish tutish kutilgan samarani beradi:

- 1) o'quvchilarining tasviriy san'at turlari bo'yicha qiziqishlarini aniqlash;
- 2) o'quvchilarining qiziqishlarini rivojlantirish metodikasini belgilab olish;
- 3) o'quvchilarining qiziqishlarini rivojlantirish bo'yicha reja tuzish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha aniq tizimni beradi. Kuzatishlar va qiziqishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p hollarda tasviriy san'atning rangtasvir va haykaltaroshlik turlariga qiziqishadi. Bunga sabab ular ta'limning keyingi bosqichlarida tasviriy san'atning grafika turini o'qishi bilan belgilanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining rangtasvir va haykaltaroshlik turlariga bo'lgan qiziqishini aniqlashda ularning mustaqil ishlanmalariga e'tibor berish,

maxsus testlar o'tkazish va mutaxassislar ishtirokida o'rganishlarga tayanish samarali hisoblanadi. Shundan keyin o'quvchilar o'z qiziqishlari bo'yicha tasviriy san'atning turlariga ko'ra guruhlarga ajratiladi hamda ular bilan individual ishslash bo'yicha mutaxassis yoki o'qituvchilar tanlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha qiziqishlarini rivojlantirish metodikasini aniq belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Bu borada mutaxassis-pedagoglar sinflar kesimida metodikani tanlash va amalga oshirishni tavsiya etishadi.<sup>24</sup> Unga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari tabiat va voqeilikni, ularni tasvirlashning muhim jihatlarini kuzatishga o'rgatiladi, 2-sinf o'quvchilari badiiy materiallardan o'rinni foydalanishga ko'niktiriladi, 3-sinf o'quvchilarida badiiy tasavvur shakllantiriladi va 4-sinf o'quvchilarida o'z qiziqishlari bo'yicha mustaqil tasviriy san'at ishlamnalari yaratish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bu metodika o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra tasviriy san'at asosida kreativ layoqatini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at turlari bo'yicha qiziqishlari aniqlanib, ular guruhlarga bo'lingach va guruhlar bilan ishslash metodikasi tanlanib olingach maxsus rivojlantirish Rejasi tuziladi. Unday rejada matabning aniq shart-sharoiti, o'quvchilarning imkoniyatlari va o'qituvchilarning tajribalariga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish hamda ularning samarasini baholash masalalari o'z ifodasini topadi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at turlari bo'yicha qiziqishlarini rivojlantirish tizimli asosda amalga oshiriladi. Buning uchun eng muhimi Tasviriy san'at o'quv fani mashg'ulotlari va amaliy tugaraklarning ta'sirchan omillaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarini asosiy va qo'shimcha ranglar bilan ishslash ko'nikmasini tarkib toptirish.** Ta'kidlab o'tilganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining rivojlanish xususiyatlari egaligi bilan tasviriy san'atning rangtasviriga bo'lган qiziqishini ustuvor darajada bildirishadi. Shu sababli bu o'rinda ularning *rang turlari* bilan ishslash ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga

<sup>24</sup> Искусство в жизни детей. –Москва, 1991, С. 52-54

ega. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. o'quvchilarni asosiy ranglar bilan tanishtirish;
2. o'quvchilarni qo'shimcha ranglar bilan tanishtirish;
3. o'quvchilarni asosiy va qo'shimcha ranglar uyg'unligida yangi ranglar tashkil etishga o'rgatish.

Tasviriy san'atda ranglarning asosiy turlari 3 ta bo'lib (qizil, yashil, sariq), mazkur ranglar va ularning xususiyatlari bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari yetarli darajada tanishtirilishi kerak. Kezi kelganda ta'kidlab o'tish lozimki, tadrijiy rivojlanish jarayonida ranglarning turlari o'zgarib turgan va bugungi kunda ana shu uchta rang asosiy rang sifatida e'tirof etiladi. Misol uchun, o'rta asrlarda (Kamoliddin Behzod davrida) qora rang ham asosiy rang turiga kiritilgan.<sup>25</sup> Umuman bu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarini yuqorida ta'kidlangan ranglarning asosiy turlari bilan tanishtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qo'shimcha ranglar turlaridan ham xabardorlar bo'lishi Tasviriy san'at o'quv fanining metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Qo'shimcha ranglar asosiy rang turlarining o'zaro qo'shilishi natijasida hosil qilinadi. Misol uchun, qizil va sariq rang qo'shilsa to'q qizil rang qo'shilsa.....

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining ranglar va ularning xususiyati bo'yicha tushuncha va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi uchun muhim omil hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur masalalar bo'yicha nazariy, metodik va texnologik ko'nikmalarni egallashi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosiy va qo'shimcha ranglar ishslash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda ular tasvirning qaysi o'rinnarida asosiy rang turlarini va qaysi jihatlarida qo'shimcha rang turlarini ishlatish bo'yicha tushunchaga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, qo'shimcha ranglar nisbatan yengilligi va o'ziga jalb etuvchanligi bilan ajralib turadi, asosiy ranglar esa quyuqligi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida

<sup>25</sup> Карапнг: Камолиддин Бехзод – Марказий Осиё бадиий маданияти таъмудидининг буюк вакили. Илмий маколалар тўплами. – Тошкент, 1999

munosabat uyg'otishi omillariga ega. Bu hol boshlang'ich sinf o'quvchilarining ranglar bilan ishlash ko'nikmasi shakllanish bosqichida ekanligi bilan belgilanadi. Umuman boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich ranglar bilan ishlashga o'rgatish muhim ahamiyatga.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ranglar bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish natijasida ularda kreativ, ya'ni ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmasining hosil bo'lishiga erishiladi. Bunda tasviriy san'at o'ziga xos vosita vazifasini bajaradi.

*Tasviriy san'atning qalamtasvir va rangtasvir turlari bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini shakllantirish.* ART texnologiya va kreativlik o'quv fanida tasviriy san'atning qalamtasvir va rangtasvir turlari bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. o'quvchilarning ranglar bo'yicha tushunchasini shakllantirish;
2. o'quvchilarni qalamtasvir bo'yicha tushunchasini shakllantirish;

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ranglar bo'yicha tushuncha berish muhim hisoblanadi. Ranglar asosiy va qo'shimcha turlarga bo'linadi. Asosiy ranglar qizil, sariq va zangori ranglardan iborat. Qo'shimcha ranglar ana shu asosiy ranglarni bir-birlari bilan aralashtirish orqali hosil qilinadi. Masalan, qizil va sariq ranglar aralashuvidan zarg'aldoq, sariq va zangori ranglar aralashuvidan yashil rang, qizil va zangori ranglar aralashuvidan esa binafsha ranglar olinadi. Bu o'rinda amaliyotdagi asosiy ranglarning lug'atiga e'tiboringizni tortamiz va boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularni shunday tushuntirish samarali hisoblanadi.

Oq – paxta rangi;

Qora – ko'mir rangi;

Kulrang – yongan o'tindan hosil bo'lgan kul rangi;

Qizil – anor gulining rangi;

Qirmizi – anor mevasi donalarining rangi;

Binafsha – binafsha gulining rangi;

Pushti – atirgul rangini eslatuvchi nim qizg'ish rang;

Lolaro'y – lola gulining rangi;

Zarg'aldoq – apelsin rangi;

Sariq – qoqi o't gulining rangi;  
Havorang – osmon rangi;  
Zangori – to'q osmon rangi va h.k.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ranglar to'g'risida shunday tushuncha berish, ularning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini orttiradi va layoqatini rivojlantiradi. Shuningdek, tasviriy san'at mutaxassislari ranglarning inson didi va estetikasiga ta'sirini ham farqlab qo'rsatishadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilariga iliq va sovuq ranglar to'g'risida ham ma'lumot berish maqsadgu muvofiq bo'ladi. Masalan, sariq, qizil, zarg'aldoq kabi ranglar iliq ranglar, zangori, havorang, moviy, yashil kabi ranglar esa sovuq ranglar hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va estetik xususiyatlari ranglar haqida ana shunday tushunchalar berishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qalamtasvir bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- qalamlar to'g'risida tushuncha berish;
- tasvirni dastlab qalamda chizish bo'yicha o'rgatish;
- rangli qalamlar bilan ishlashga ko'niktirish.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadi, boshlang'ich sinf o'quvchilari qalam vositasida tasvir yaratishda qulaylikka ega bo'ladi, lekin ular qalamlar bilan ishlashda murakkabliklarga duch keladi. Shu sababli o'quvchilarning rangli qalamlar bilan ishlashga ko'niktirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning ko'pchiligi oddiy (qora) qalamda rasm chiza oladi, chunki bunda o'chirish imkoniyatlari mavjudligi ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ayni paytda ular rangli qalam bilan ishlashda ko'nikmaga ega bo'lishi samarali hisoblanadi. Kuzatishlarga ko'ra, 3-4-sinf o'quvchilari rangli qalamlar bilan ishlash ko'nikmasini tez o'zlashtiradi va aynan mana shu sinflarda qalamtasvirga o'rgatish samarali hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rangtasvir ko'nikmasini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ularni ranglar bilan ishlash ko'nikmasiga o'rgatish, qo'shimcha ranglar hosil qilish malakasini tarkib toptirish va tasvirlash jarayonida ranglardan oqilona foydalanishga o'rgatish kerak bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatadi, tasviriy san'at bo'yicha layoqatga ega o'quvchilar

ko‘p hollarda ranglar bilan ishlash va rangtasvir namunalarini yaratishda qynalishmaydi, biroq qolgan ko‘pchilik o‘quvchilar ranglar bilan ishlash jarayonida murakkaablikka duch keladi. Bunda eng asosiysi o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘otish kutilgan samarani beradi. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning rangtasvir ishlanmalarini ishlashda bir martalik qoidasiga o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bunday tusdagi asarlarni ishlash jarayonida o‘chirish imkoniyati yo‘qligi ma’lum.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tasviriy san’at faoliyati bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish.** “Tasviriy san’at” o‘quv fanining asosiy vazifalaridan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tasviriy san’atga yo‘naltirishdan iborat. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak bo‘ladi:

- a) o‘quvchilarning tasviriy san’at bo‘yicha layoqatini aniqlash;
- b) imkonqadar o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- v) amaliy to‘garaklar vositasida o‘quvchilarning ijodkorligini tarkib toptirish.

O‘quvchilarning tasviriy san’at bo‘yicha layoqatini aniqlashda ularning turlarga qizqiqishiga e’tibor berish kerak. Bunda mustaqil ishlanmalar yaratish topshirig‘ini berish, maxsus testlar va suhbatlar vositasida o‘quvchilarning layoqatini aniqlash samarali hisoblanadi. Misol uchun, muayyan tasvirni chizish topshirig‘i berilganida o‘quvchilar ko‘p hollarda o‘z layoqatlari darajasidan kelib chiqib topshiriqlarni bajaradi. Shunda ularning tasviriy san’at turlari bo‘yicha ham qiziqishlari namoyon bo‘ladi. Aynan mana shunday mezon asosida o‘quvchilarning layoqatini aniqlash kutilgan samarani beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tasviriy san’at turlari bo‘yicha layoqatlari aniqlangandan keyin ular bilan yakka tartibda ishlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda maxsus reja tuzish va shu reja asosida o‘quvchilarning layoqatini shakllantirish va ularning tasviriy san’at turlari bo‘yicha ishlanma yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishga erishish muhimdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, eng muhim mashg‘ulotlardan hisoblangan yakka tartibda ishslash o‘qituvchilardan faollikni taqozo etadi. Shu sababli bunda Amaliy to‘garaklar tashkil etish va ularga mutaxassislarni jalg qilgan holda o‘quvchilar bilan yakkaa tartibda ishslash shakliga ega bo‘lish

samarali hisoblanadi. Aks holda maktab o‘qituvchisining o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishslash bo‘yicha imkoniyatlari yetmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 fevraldagi “Madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida Tasviriy san’at va Musiqa madaniyati o‘quv fanlari bo‘yicha Amaliy to‘garaklar tashkil vazifasi belgilangan. Mazkur vazifaning ijrosi 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab yo‘lga qo‘ylgan. Shu jihatdan layoqatli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bunday to‘garaklar vositasida tarbiyalash samarali hisoblanadi. Chunki amaliy to‘garaklarni olib boruvchilar eng avvalo amaliyotchi mutaxassislardan iborat bo‘ladi. Bunday mutaxassislar o‘quvchilarning amaliy ishlanmalarini ro‘yogba chiqarish va ularning o‘z layoqatlarini namoyon qilishlarida muhim maslahatchilar hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ART texnologiya va kreativlik asosida tasviriy san’at turlari bo‘yicha ijodkorligi, mustaqil fikrashi va estetik didining rivojlanishini ta‘minlash o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli mazkur masalalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan oliv pedagogik ta’lim jarayonida o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasviriy san’at bo‘yicha qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish deganda nimakni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini asosiy va qo‘srimcha ranglar bilan ishslash ko‘nikmasini tarkib toptirish qanday metodikaga asoslaniladi?
3. Tasviriy san’atning qalamtasvir va rangtasvir turlari bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini shakllantirishda nimalavrga asoslaniladi?
4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tasviriy san’at faoliyati bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish qanday amalgal oshiriladi?

### **3.5. Amaliy san'at boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART -kreativlik ko'nikmasini shakllantirish omili**

#### **Reja:**

1. Amaliy san'at turlari
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining naqsh san'ati bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ymakorlik san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kashtachilik san'ati asoslari bilan tanishtirish

**Tayanch tushunchalar:** amaliy san'at, boshlang'ich, o'quvchi, ART, kreativlik, ko'nikma, omil, metodika

**Amaliy san'at turlari.** Tasviriy san'atning muhim turlaridan biri amaliy san'atdir. Amaliy san'at – bu shaxs iste'dodining hosilasi bo'lib, unda asosan loyihibar tayyor mahsulotga aylantiriladi. Boshlang'ich ta'lif nazariyasi va metodikasiga ko'ra, amaliy san'atning boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos turlari o'qitilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hozirgi zamon insoniyat taraqqiyotida amaliy san'at turlari, nazariyasi va tarixi muhim o'rinn tutadi. Shu jihatdan mamlakatimiz amaliy san'ati Tasviriy san'atning tarkibi sifatida juda qadimiy tarixga ega. Misol uchun, tosh, yog'och, temir, suyak kabi ashylarga o'yib ishlangan amaliy san'at namunalari butun mamlakatimiz bo'ylab bugungi kunda ham milliy madaniy meros sifatida asrab-avaylab kelinmoqda. Misol uchun, Jizzax viloyatining Zarautsoy tog'larida toshga o'yib ishlangan amaliy san'at namunalari xalqimizning milliy qadriyatları, madaniy turmush-tarzi, san'ati hamda jamiyatning yuksak ifodasi sifatida YUNESKOning umuminsoniyat milliy madaniy merosi Ro'yxatiga kiritilgan. Natijada bu milliy san'atimiz namunalari insoniyatning bugungi kundagi fahri va g'ururi sifatida o'rganilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularning yosh, jismoniy, aqliy va estetik imkoniyatlariga mos san'at turlari o'rgatilishi metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Mamlakatimizda amaliy san'atning yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, kulolchilik, gilamdo'zlik,

kashtachilik, zargarlik, zardo'zlik kabi turlari mavjud. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, amaliy san'at turlariga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi:

1. muayyan halqning milliy qadriyatlarini ifodalaydi;
2. ayni paytda milliy qadriyat zamirida umuminsoniy qadriyatlarga xos mazmunlar mavjud bo'ladi;
3. bunday san'at turlarining tarbiyaviy ahamiyati milliy ruhga boyligi bilan belgilanadi.

Shu jihatdan amaliy san'at turlarida aks etadigan milliy qadriyatlar ruhi ularning qadimiyligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi va inson tafakkurining ifodasi ekanligi bilan belgilanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, biror xalqning amaliy san'at turlari o'z xalqlarning shunday san'at turlariga aynan mos bo'lmaydi, chunki amaliy san'at turlari bevosita o'zi mansub xalqning ruhini ifodalaydi. Mazkur san'at turlarida ifodalanadigan umuminsoniy qadriyatlar esa inson tafakkurining ifodasi va xalq turmush-tarzining xosilasi sifatida umumiy xususiyatlarga asoslanadi. Pedagogik tajribadan ma'lumki, hamisha tarbiyaviy jarayonda amaliy san'at turlarining ana shunday umuminsoniy xususiyatlaridan foydalanish metodik jihatdan tavsiya etiladi. Bunday san'at turlaridagi milliy ruh rus pedagog olimi K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek,<sup>26</sup> bevosita xalqning ruhi, orzu-umidlari va ideallarini ifodalaydi. Shu sababli amaliy san'at turlaridan yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda foydalanish pedagogik nazariyada e'tirof etilgan.

Xalqimiz amaliy san'ati o'zida Sharq xalqlari falsafasi, tarbiyaviy ideallari va ta'limiyy muddaolarini aks ettirgan. Misol uchun, yog'och o'ymakorligi amaliy san'at turi namunalarida ishlangan turli tasvirlar muayyan ma'nolarga ega. Yoki, qadimiy obidalarimiz devorlariga tasvirlangan naqshlarda ham o'ziga xos mazmunlar ifodalangan. Shu sababli bunday amaliy san'at namunalarini o'rganish, ularning lug'atini tuzish va ta'lif tizimida foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Oliy pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy san'at nazariyasi, metodikasi va undan tarbiyaviy jarayonda foydalanish amaliyoti bo'yicha ko'nikmalarni egallashi maqsadga

<sup>26</sup> Ушинский К.Д. Танланган педагогик асарлар. – Тошкент, 1959

muvofiq hisoblanadi.

*Boshlang'ich sinf o'quvchilarining naqsh san'ati bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish.* Boshlang'ich sinf o'quvchilariga amaliy san'atning bir necha turlari bo'yicha tushuncha va ko'nikmalar berish Tasviriy san'at o'quv fanining davlat ta'lif standartlari va malaka talablarida belgilangan. Shu jihatdan bu borada bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilariga amaliy san'atning quyidagi turlari bo'yicha tushuncha va ko'nikmalar berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. naqqoshlik amaliy san'ati;
2. o'ymakorlik amaliy san'ati;
3. kashtachilik amaliy san'ati.

Pedagog olimlarning umumiy fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilari *ijodiylikka* qiziqishadi.<sup>27</sup> O'quvchilarning mazkur xususiyatlardan unumli foydalangan holda ularga amaliy san'atning ta'kidlangan turlari bo'yicha ko'nikmalar berish metodik jihatdan to'g'ri, didaktik jihatdan qiziqarli va nazariy jihatdan samarali hisoblanadi. "Naqsh" tushunchasi arabcha bo'lib, "bezak", "gul", "tasvir" kabi ma'nolarni anglatadi, naqqoshlik atamasi esa ana shunday bezaklar amaliy mahsulotlarni yaratish mazmunida ishlatiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilariga naqqoshlik amaliy san'ati bo'yicha ko'nikma berishda ularning ijodiy, erkin va mustaqil harakat qilishlariga e'tibor berish kerak. Dastlab ularga naqqoshlik to'g'risida to'g'ri tushuncha berib, mazkur amaliy san'at bo'yicha yaratiladigan mahsulotlar jonli ravishda ko'rsatilib, ulardan foydalanish o'rgatiladi. Bunda o'quvchilarning erkin ijod qilishi metodikasiga asoslanish samarali bo'lishini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki ko'p hollarda bugungi kunga qadar naqqoshlik namunasi ko'rsatilib, uni yasash metodikasiga asosan mashg'ulotlar o'tkazilib kelinmoqda. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar namuna asosida naqqoshlik mahsulotlarini yasaganlarida ko'p hollarda aynan namunaga o'xshatish uchun harakat qilishadi. Lekin erkin va ijodiy mavzuda naqqoshlik namunalarini yaratish topshirig'i berilganida ularning nisbatan ijodiy yondashuvi yaqqol namoyon bo'ladi.

<sup>27</sup> Львов М.Р. Речь младших школьников и пути её развития. – М.: "Просвещение". 1975. – С. 110

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga nashq san'ati bo'yicha ko'nikmalar berish tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli har bir mamlakatda pedagog mutaxassislar o'z halqining amaliy sakn'at turlari bo'yicha o'quvchilarga ko'nikma berish metodikasiga asoslaniladi. Bizning halqimizga xos bo'lgan amaliy san'at turlari, jumladan, nashq san'ati milliy va umuminsoniy ruhga boyligi bilan muhim madaniy hodisa hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur imkoniyatlardan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

*Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ymakorlik amaliy san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish.* Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'ymakorlik amaliy san'ati bo'yicha ko'nikmalar berish hozirgi boshlang'ich ta'lif nazariyasi va metodikasining muhim masalalaridan hisoblanadi. Chunki bu bilan milliy qadriyat-larga asoslangan amaliy san'at turi bilan o'quvchilar tanishtiriladi va ularning estetik didi hamda qarashlari dastlabki bosqichda shakllantiriladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, o'ymakorlik amaliy san'atimiz bugungi kunda insoniyatning madaniy meros tarkiblardan birini tashkil etadi. Mazkur masalalar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining nazariy bilim va metodik ko'nikmalarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'ymakorlik amaliy san'ati bo'yicha ko'nikmalar ham berish muhim ahamiyatga ega. "O'ymakorlik" tushunchasi o'zbekcha bo'lib, ma'nosi biror buyum yoki narsaga aniq predmet vositasida bezak berib berib ishslash demakdir. O'ymakorlikda ko'p hollarda yog'och, mahsus gipslar kabi ashylardan foydalaniladi. O'ymakorlik amaliy san'ati namunalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatlarga mos bo'lib, ularda ijodiy fikrlash va erkin yondashish ko'nikmalarini tarkib toptiradi. O'ymakorlik amaliy san'at turlarini yasashda boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatlardan kelib chiqib ashylar tanlash metodikasiga tayanish lozim. Chunki o'ymakorlikda ko'p hollarda o'tkir tig'li predmetlardan foydalaniladi. Shu jihatdan misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bu san'at namunalarini yasashga o'rgatishda yumshoq yog'ochlardan foydalanish yoki turli ashylardan (loy, plastilin kabilardan) foydalanish maqsadga

muvofig bo'ldi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kashtachilik san'ati asoslari bilan tanishtirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kashtachilik amaliy san'atimiz turi bilan tanishtirish ham muhim amaliy amaliy ahamiyatga ega. Chunki buguni kunda mazkur san'atimizning noyob turlari nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoning barcha mamlakatlarida qiziqish bilan o'rganilmoqda. Misol uchun, eramizdan avvalgi asrlarda yaratilgan shoxona to'n kashtachilik bilan bezalgan bo'lib, u bugungi kunda Indoneziyaning noyob durdonalar muzeyida saqlanmoqda va insoniyatning umummilliy madaniy merosi hisoblanadi. Mazkur kashtachilik san'ati namunasi 2022 yil avgust oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan halqaro madaniyat forumida namoyish etildi va dunyoning san'atshunos ekspertlari tomonidan yuksak baholandi. Mazkur masalalar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakaga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Kashtachilik amaliy san'at turi o'quvchilarining estetik didi va ijodiy layoqatini kutilgan darajada shakllantirish xususiyatlariga ega. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini mazkur amaliy san'at turi bilan tanishtirish, ularga uning namunalarini yaratishga o'rgatish va ularning yaratgan namunalarini yuqori baholash muhim ahamiyatga ega. Avvalo ta'kidlash lozimki, "kashtachilik" atamasi forscha bo'lib, bezakli gul yasayman ma'nosini anglatadi. Chunki kashta namunalarining har bir chiziqlari va hatto gullaridagi ranglari ham muayyan ma'noni anglatadi. Shu jihatdan kashtachilik nafaqat amaliy san'atning namunasi, balki inson hayoloti va estetik didining ifodasi ham hisoblanadi. XV asrda yashab o'tgan Husain Voiz Koshify "Futuvvatnoma" (Mardnama) asarida kashtachilikdagi ba'zi gullarning ma'nolarini ta'kidlab ko'rsatadi. Misol uchun, atirgulga o'xhash gul shakli olamni, gullarning shohi inson umrini va gullarning yaprog'i insonning orzu-umidlarini bildirishini alohida izohlab o'tgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilariga amaliy san'atning mazkur turi bo'yicha ko'nikmalar berish ularning go'zallikka muhabbat, ijodiylikka layoqat va nafosatni his qilish ko'nikmalarini shakllantirishda vositalardan biri bo'lib hizmat qiladi.

E'tibor berilsa amaliy san'atning mazkur eng asosiy turlarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish bevosita estetik tarbiya

bilan bog'liq jarayondir. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilariga amaliy san'at turlari bo'yicha chuqurlashtirilgan ko'nikmalar hosil qilish tavsiya etiladi.

Shunday qilib amaliy san'atning nazariy, metodik va amaliy ahamiyati boshlang'ich ta'limda muhim o'rinni tutadi. Mazkur masalalar bo'yicha nazariy bilim va metodik ko'nikmalarni egallash bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiradi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Amaliy san'at turlari nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining naqsh san'ati bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish qanday metodikaga asoslanadi?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ymakorlik san'ati bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirishda nimalarga ahamiyat berish lozim?
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kashtachilik san'ati asoslari bilan tanishtirish uchun qanday metodikaga asoslanish samarali hisoblanadi.

### **3.5. Boshlang‘ich sinflarda ART texnologiya va kreativlikning metodlari**

#### **Reja:**

1. ART texnologiya – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining san’at turlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmasini shakllantirish asosi.
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik, badiiy va musiqiy madaniyatini shakllantirishda ART texnologiya vositalari.
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy layoqatini shakllantirishda kreativ metodlar.
4. Kreativ texnologiyalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik tarbiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** ART, texnologiya, kreativlik, boshlang‘ich, sinf, metod, bilim, ko‘nikma.

**ART texnologiya – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining san’at turlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmasini shakllantirish asosi.** Hozirgi zamон insoniyatning rivojlanish jarayonida texnika va texnologiyalarning taraqqiy etib borayotganligi shaxsning estetik didi, ongi va madaniyatini talab darajasida shakllantirishni taqozo etadi. Chunki texnika va texnologiyalarning rivojlanishi shaxs ongida texnokratik fikrlash, ya’ni go‘zallik hissining susayishi va aksincha reallikning ustuvor bo‘lishi tarkib topadi. Shu sababli pedagog mutaxassislar keyingi yillarda ART texnologiya vositasida ta’lim oluvchilarining ongini shakllantirish va ularning kreativ fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirishga alohida e’tibor berishmoqda. Mazkur masala bo‘yicha ham mamlakatimizda maxsus pedagogik fanlar ta’sis etilib, ulardan birini “ART texnologiya va kreativlik” o‘quv fani tashkil qiladi. Mazkur o‘quv fani vositasida oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

ART texnologiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining san’at turlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim asoslaridan biri sifatida amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu masala quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) ART texnologiya vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining

estetik tarbiyasini amalga oshirish;

2) ART texnologiya vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining san’at bo‘yicha ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

3) ART texnologiya vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy yondashuvini rivojlantirish.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar kompyuter kabi o‘quv-texnik vositalardan keng foydalanmoqda. Ayniqsa, kompyuter vositasida juda ko‘p yangi ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Shu sababli ularda texnokratik fikrlashning tarkib topishini susaytirishda ART texnologiyaning ahamiyati muhim. Chunki ART texnologiya so‘z san’ati vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini, musiqa san’ati vositasida ularning estetik tuyg‘ularini va tasviriy san’at vositasida esa ularning estetik didini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatiga ega. Bu borada ayniqsa, o‘quvchilarning kitobxonlik, musiqa tanlay olish va tasviriy san’at namunalarini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki kitobxonlik ART texnologiyasining so‘z san’ati negizini tashkil etadi, musiqa tanlay olish ko‘nikmasi esa musiqa san’atining muhim asosidir va tasviriy san’at namunalarini esa mazkur san’atning tarbiyaviy ahamiyachtini belgilaydi. Shu sababli texnologik rivojlanish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ART texnologiya asoslari vositasida tarbiyalash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanish jarayonida bo‘lganligi aynan ART kabi texnologiyalar vositasida tarbiyalash kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z va uning ma’nolaridan zavqlanish, musiqaning estetik ta’siridan ruhlаниш hamda tasviriy san’at namunalaridan estetik ruh olishi tarbiyaviy jarayonning muhim komponentlarini tashkil qiladi. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha mutaxassislar o‘quvchilarning niyoyatda keng ma’lumotlar olamida yashayotganligi va ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilayotganligi muammosi qiziqtirmoqda. Axborot olamida turli-tuman ma’lumotlarning mavjud bo‘lishi ART texnologiya kabi tarbiya vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Chunki bunday texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘rinsiz asabiylik, tushkunlik, o‘ziga ishonchsizlik kabi illatlardan himoya qiladi.

Aksincha, ularning fazilatlarini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik, badiiy va musiqiy madaniyatini shakllantirishda ART texnologiya vositalari.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik madaniyati asosini ularning go'zallik tuyg'usini shakllantirish, badiiy madaniyati negizini esa ularda badiiy idrokni tarkib toptirish va musiqa madaniyati asosini esa musiqadan ruhiy ta'sirlanish tashkil qiladi. Shu sababli bu borada ART texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vositalarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- 1) tasviriy san'at namunalari asosida estetik madaniyatni shakllantirish;
- 2) so'z san'ati namunalariga binoan badiiy madaniyatni shakllantirish;
- 3) musiqa san'ati namunalari vositasida musiqa madaniyatini shakllantirish.

Tasviriy san'at namunalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda ularning rasm chizish, o'z ishlanmalarini tahlil qila olish va ularda ijodkorlikni tarkib toptirishga e'tibor berish samarali hisoblanadi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchilar tasviriy san'at namunalariga qiziqsa, ularning go'zallik tuyg'ulari kutilgan darajada shakllanadi va natijada o'quvchilarining kompyuter kabi texnik vositalardan o'rinsiz foydalanishlari susayib boradi. Aslida kompyuter kabi texnik vositalardan foydalanishda manba sifatida yondashish muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar kompyuter texnologiyalari imkoniyatlariga suyangan holda o'quvchilarining tasviriy san'at namunalarini yaratish ko'nikmalarini shakllantirish ham metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Bu metod o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularni tasviriy san'at olamiga olib kirishning eng maqbul yo'llaridan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ART texnologiyaning so'z san'ati vositasida badiiy madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda badiiy madaniyat deganda kitobxonlik, so'z ma'nolarini tushunish, lug'at boyligiga ega bo'lish va adabiy tilda

yozish ko'nikmalarini egallah kabilar nazarda tutiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini so'z san'ati vositasida tarbiyalashda yangicha metodlarga asoslanish dolzarb bo'lib turibdi. Misol uchun, dastlabki bosqichda so'z ma'nolarini o'zlashtirish, nutq asoslarini egallah yoki kitobxonlik ko'nikmasini tarkib toptirishda kompyuter texnologiyalariga asoslanish mumkin. Bu bilan o'quvchilarda qiziqish hosil qilinadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, tavsiya etiladigan kitoblarning elektron kompyuterli variantini o'qish vositasida o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmasini tarkib toptirib, ularni bosqichma-bosqich bevosita kitob o'qishga o'rgatish maqbul metodlardan biridir. Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchisi turli yondashuvlar va yangiliklarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa san'ati namunalarini vositasida musiqa madaniyatini shakllantirish ART texnologiyaning eng muhim imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarining musiqa, qo'shiq va raqs ijrochiligi ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki olmon faylasufi Fridrix Gyote aytganidek, "daholarning ko'pchiligi boshlang'ich sinflarda paydo bo'ladi"<sup>28</sup>. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy, ashula va raqs ijrochiligi ko'nikmalarini shakllantirish ularni chinakkam musiqa madaniyatiga yo'naltirishning muhim imkoniyatlaridan biridir.

ART texnologiyasi mana shunday imkoniyatlarga egaligi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik, badiiy va musiqiy madaniyatini shakllantirishda muhim metodik hamda amaliy ahamiyatga ega. Mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar tomonidan idrok etilishi, ularning asos o'zlashtirilishi va ayniqsa, yangiliklarga intilish ko'nikmasini egallah bugungi kunda dolzarb masalardan biri bo'lib turibdi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini shakllantirishda kreativ metodlar.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqati tabiiy vositalar asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagi kreativ metodlarga asoslanish tavsiya etiladi:

<sup>28</sup> Гёте Ф. Танланган асарлар. – Тошкент, 1989

- 1) o‘quvchilarning ijodiy ishlanmalarini ustuvor bilish;
- 2) o‘quvchilarning o‘z ijodiy layoqatlarini namoyon qilishlari uchun sharoitlar yaratish;
- 3) o‘quvchilarni o‘z ijodi namunalari bilan fahrlanishga o‘rgatish.

Pedagog olimlarning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ishlanmalarini past darajada baholash metodik jihatdan o‘zini oqlamaydi.<sup>29</sup> Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilar ko‘p hollarda o‘z ishlanmalarini mukammal deb tasavvur qilishadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy layoqatini shakllantirishda ularning ishlanmalarini ustuvor bilish kreativ metodi muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu metodga ko‘ra, o‘quvchilarning ijodiy ishlanmalarini nisbiy tarzda yuqori baholanadi va ulardagi kamchiliklar individual asosda o‘quvchining o‘ziga tushuntiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy ishlanmalaridagi kamchiliklarni ommaviy va oshkora tarzda e’lon qilish o‘quvchilarda ikkilanish, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi hamda ijodiylikning sustlashuvi tarkib topishiga olib keladi. Shu sababli ularning ijodiy ishlanmalarini yuksak baholash o‘quvchilarga ruh bag‘ishlaydi va o‘zining ijodiy imkoniyatlarga bo‘lgan ishonchini tarkib toptiradi.

O‘quvchilarning ijodiy layoqatlarini namoyon qilishlari uchun sharoit yaratish kreativ metodi ham bu borada maqbul yo‘nalishlardan hisoblanadi. Mazkur metodga ko‘ra, o‘quvchilarga ijodiy muhit, texnik imkoniyatlar va ijod uchun vositalar majmui yaratilishi kerak. Misol uchun, o‘quvchilarda ijodiy layoqatni tarkib toptirish yoki ularni mazkur ko‘nikmaga yo‘naltirish uchun ko‘rgazmali vositalar, namunalar va kompyuter kabi o‘quv-texnik imkoniyatlardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Bu borada shunday yondashish kerakki, o‘quvchilar tabiiy ravishda o‘z layoqatlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘z ijodiy ishlanmalari namunalari bilan fahrlanishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu bilan o‘quvchilarda ijodni qadralash, ijodiy asosda yaratilgan asarlarga mehr bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalarining

ishlanmalarini hurmat qilish kabi ko‘nikmalarning shakllanishiga erishiladi. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, 1-2-sinflarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoa bo‘lib o‘z ijodiy namunalaridan fahrlanish hissi kuzatiladi, 3-4-sinflarda esa bu masala individualsha boshlaydi. Shu sababli e’tibor berilsa, bu o‘rinda umumiylikdan individuallikka tamoyili mazkur kreativ metodning asosi hisoblanadi. Amaliy tajribalarga ko‘ra, o‘zining ijod namunalari bilan fahrlangan o‘quvchilarda umuman ijod namunalariga nisbatan ijobji yunosabatning shakllanganligi namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur masalada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kreativ metodlarning turli ko‘rinishlariga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kezi kelganda ta‘kidlash lozimki, kreativ metodlar ko‘p hollarda o‘quvchilarga erkinlik, ijodiylik va mustaqillik imkoniyatlarini beradi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi muntazam ravishda ta‘lim muhiti va imkoniyatlaridan kelib chiqib, kreativ metodlarning turli shakllari va ko‘rinishlaridan foydalanib borishi maqsadga muvofqi bo‘ladi. Aslida har bir o‘qituvchi o‘zining kreativ metodini tajribalari asosida kashf etadi. Shu sababli kreativ metodlar mazmunida noan’anaviylikka asoslanish ustuvor hisoblanadi.

*Kreativ texnologiyalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik tarbiyasi.* Kreativ texnologiyalar – bu zamonaviy texnologik imkoniyatlari asoslangan va pedagogik tajribalarga tayangan holda ishlab chiqilgan yondashuvar, vositalar hamda omillar majmui hisoblanadi.<sup>30</sup> Bu o‘rinda “kreativ” tushunchasining ijodiylik, ijodkorlik va yaratuvchanlik ma’nolariga e’tibor berish lozim bo‘ladi. Chunki kreativ texnologiyalarga quyidagi xususiyatlar xos bo‘lishini ta‘kidlab o‘tish lozim:

- 1) ijodiy yondashuv asosida tartibga solinganlik;
- 2) texnologiyani ishlab chiquvchining ijodkorligi namoyon bo‘lganligi;
- 3) muayyan texnologiyaning qayta yaratilganligi.

Shu jihatdan kreativ texnologiya deganda asosiy e’tibor ijodiy yondashishga imkon beradigan xususiyatlarga qaratilishi

<sup>29</sup> Беленский Г.И. Приобщение к искусству. – М.: «Просвещение». 1990. -С. 45

<sup>30</sup> Жуманова Ф. ва бошк. Умумий педагогика асослари. – Тошкент, 2020. 547-бет.

kerak. Misol uchun, o'ymakorlik amaliy san'at turini o'rgatishda ta'lif beruvchining faolligi ustuvor turadi va bu metodika yillar tajribasidan o'tganligi bilan an'anaviy hisoblanadi. Endi, shu an'anaviy metodikani kreativ texnologiyaga aylantirish uchun oddiy yondashuv, ya'ni ta'lif oluvchiga erkinlik berish va uni ijodiy yondashuv asosida o'ymakorlikni o'rganishga yo'naltirish lozim bo'ladi, mahsulot tayyor bo'lgach ta'lif oluvchi va ta'lif beruvchi mazkur ishlanmani muhokama qiladi. Agar ishlanma metodik jihatdan to'g'ri bajarilgan bo'lsa, u e'tirof etiladi va kamchiliklar bo'lsa Ustoz-shogird an'anasiiga binoan tuzatiladi. Huddi mana shunday yondashuv kreativ texnologiya mazmunini ifodalaydi.

Kreativ texnologiyani tarkib toptirishning yana bir usuli quyidagicha: ta'lif oluvchiga amaliy san'at turi bo'yicha o'z qiziqishi va layoqatiga binoan ishlanmalar yaratish vazifasi beriladi, bunda ta'lif beruvchining vazifasi unga sharoit yaratib berishdan iborat bo'ladi xolos. Ta'lif oluvchi tomonidan yaratilgan ishlanma o'quvchilar guruhi tomonidan muhokama qilinib baholanadi. Demak, bunda ta'lif beruvchining ijodkorligi asosiy vazifani bajaradi. Bunday yondashuv ham kreativ texnologiya hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini krayetiv texnologiyalar asosida estetik tarbiyalash muhim xususiyatlarga ega. Buning uchun quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchisi tomonidan mustaqil yaratilgan ishlanmaning ijodiy xususiyatini aniqlash;
- 2) yaratilgan ishlanmaning estetik jihatlariga e'tibor berish;
- 3) bunday yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchisining estetik tarbiyalanganlik darajasini aniqlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi tomonidan mustaqil yaratilgan amaliy san'at turi bo'yicha ishlanmalarning ijodiy xususiyatini aniqlashda ularning erkin yondashuv asosida yaratilganligiga e'tibor berish kerak. Misol uchun, oddiy ishlanma ham did, tasavvur va diqqat-e'tibor bilan yaratilgan bo'lsa, unda ijodiylik mavjud bo'ladi. Shuningdek, yaratilgan ishlanmaning estetik jihatni uning go'zalligi, jozibadorligi va o'ziga jalb etuvchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi. Ayni paytda, aynan ishlanmaning ijodiy va nafis yaratilganligini aniqlash bilan boshlang'ich sinf o'quvchisining estetik tarbiyalanganlik darajasini belgilash mumkin. Chunki estetik

tarbiyalanganlik shaxsnинг go'zallikni his etishi, nafis munosabati va yangiliklarga intiluvchanligi bilan belgilanadi. Aksincha, palapartish yaratilgan ishlanmalarda estetik jozibadorlik bo'lmaydi va bu hol o'quvchi bilan individual tarzda estetik tarbiya masalasida ishlashni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashda asosiye e'tibor ularda jozibadorlik, nafosatlik va go'zallikka muhabbat uyg'otishga qaratiladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didi, tasavvuri va idroki shakllanish jarayoniga kiradi. Bunda amaliy san'at turlarining g'oyatda tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda ART texnologiya va kreativlikning metodlari o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur masala bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining imkonqadar mustaqil o'qib o'rganishlari, ijodiy izlanishlari va hamisha yangiliklarga intilish ko'nikmasini egallashlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. ART texnologiya – boshlang'ich sinf o'quvchilarining san'at turlari bo'yicha bilim va ko'nikmasini shakllantirish asosi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik, badiiy va musiqiy madaniyatini shakllantirishda ART texnologiya vositalarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini shakllantirishda kreativ metodlari qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?
4. Kreativ texnologiyalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik tarbiyasi qanday amalgalash oshiriladi?

### **3.6. ART texnologiyasi va kreativlikda amaliy to'garaklar**

#### **Reja:**

1. Sinf amaliy to'gaklari
2. Maktab amaliy to'gaklari
3. Maktabdan tashqari amaliy to'garaklar
4. Maxsus amaliy to'garaklar.

**Tayanch tushunchalar:** amaliy to'garaklar; ART texnologiya, kreativlik, yondashuv, bilim, ko'nikma.

**Sinf amaliy to'gaklari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldag'i "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida umumiy o'rta ta'lim maktablarida *amaliy to'garaklar* tashkil etish va ular vositasida ta'lim-tarbiya jarayonining amaliyotini kuchaytirish vazifasi qat'iy belgilangan. Shu sababli 2022-2023 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida gumanitar fanlar turkumi bo'yicha Amaliy to'garaklarni tashkil etish jarayoni yo'lga qo'yilmoqda. Unga ko'ra, amaliy to'garaklar – bu sinfdan o'zlashtirilgan nazariy tushunchalar va bilimlarni bevosita amaliy shart-sharoitlar asosida tajribaga aylantirish tizimidir. Shu ma'noda amaliy to'garaklar metodikasi ham takomillashtirilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ART texnologiya va kreativlikda amaliy to'garaklar vositasida tarbiyalash muhim va dolzarb hisoblanadi. Bu borada sinf amaliy to'garaklarni tashkil etish va ular vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya va kreativlik bo'yicha ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) boshlang'ich sinflarda ART texnologiyasi va kreativlikning asoslaridan biri bo'lgan so'z san'ati bo'yicha amaliy to'garaklar tashkil etish;

b) ART texnologiyasi va kreativlikning negizlaridan bo'lgan musiqa san'ati bo'yicha boshlang'ich sinflarda amaliy to'garaklar tashkil etish;

v) boshlang'ich sinflarda ART texnologiya va kreativlikning muhim omillaridan bo'lgan tasviriy hamda amaliy san'at turlari bo'yicha amaliy to'garaklar tashkil etish.

Diqqat qilinsa, bunday yondashuv boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlar turkumlarini o'qitishda integrativ jarayonni ta'minlaydi va o'quvchilarining tarbiyalanish jarayonini kuchaytiradi. Shu jihatdan so'z san'ati bo'yicha tashkil etiladigan amaliy to'garaklarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'zni his qilish, ma'nosini anglash va so'zlar tizimidan oqilona foydalanishni o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki so'z san'ati vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashning kreativ asoslari o'ziga xos bo'lib, uning negizini milliy yondashuvlar tashkil etadi. Shu sababli so'z san'ati va uning imkoniyatlardan foydalangan holda amaliy to'garaklar mashg'ulotlarini tashkil etish, ularda imkon qadar shoirlar va adiblarning uchrashuvlari, suhbatlari hamda treninglarini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilar ko'p hollarda ko'rgan narsasiga ishonadi va tasavvur xosil qiladi. Bu hol so'z san'ati bo'yicha tashkil etiladigan amaliy to'garaklarning butunlay yangi tadbirlar vositasida amalga oshirilishini taqozo etadi. Eslatib o'tish joizki, mamlakatimizning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablariga mashg'ul yozuvchilar, shoirlar va adiblar biriktirilgan. Bunday imkoniyatlardan to'garaklar mashg'ulotlarida oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi.

ART texnologiya va kreativlikning muhim asoslaridan biri musiqa san'atidir. Shu sababli musiqa san'ati vositasida tarbiya jarayonini tashkil etish uchun boshlang'ich sinflar kesimida amaliy to'garaklar tashkil etish ularda o'quvchilarining kuy hamda qo'shiq ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki kuy va qo'shiq ijrochiligining o'zi kreativlik, ya'ni ijodiylikdan iborat. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflarda raqs san'ati bo'yicha amaliy to'garaklar 3-sinfdan boshlab tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki mazkur yoshda o'quvchilarining paylar va mushaklari quvvatlanadi. 1-2-sinflarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining pay va mushaklari cho'ziluvchan xususiyatga ega bo'ladi, shu sababli ularning tez zararlanishi extimoli yuqori hisoblanadi. Ayni paytda, musiqa san'ati bo'yicha tashkil etiladigan amaliy to'garaklarda bolalar musiqa san'ati namusnalariga asosan

mashg'ulotlarni olib borish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ishq muhabbat g'oyasi ustuvor bo'lgan qo'shiqlarni kuylatish xatodir. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda Musiqa madaniyati o'quv fanining mashg'ulotlari va amaliy to'garaklarini tashkil etish metodikasini takomillashtiirishga ehtiyoj mavjud. Masalan, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning xor ijrochilagini shakllantirish nazarda tutilgan, bundan maqsad o'quvchilarni jamoa bo'lib ijro etishga o'rgatishdan iborat xolos. Lekin bu xol bevosita xor janridagi asarlarni kuylash ekanligini ko'rsatmaydi. Shu ma'noda Musiqa madaniyati o'quv fanining metodikasini yangilash va unda aniq atamalarni ishlashishni joriy etish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Tasviriy va amaliy san'at ART texnologiya va kreativlikning muhim omillaridan biridir. Shu jihatdan boshlang'ich sinflar kesimida tashkil etiladigan tasviriy va amaliy san'at bo'yicha to'garaklarda ko'proq e'tibor bolalarning mustaqil ishlashi hamda ijodiy ishlanmalar yaratishiga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarning o'z tashabbuslari asosida ijod qilishlari shakllantirilishi va ularning ijodiy layoqatini rivojlantirishga e'tibor berilishi kutilgan samarani beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Tasviriy san'at o'quv fanining metodikkasini ham bugungi ehtiyojlar asosida takomillashtirish zaruriyat bo'lib turibdi. Misol uchun, mazkur fanning hozirgi o'qitish metodikasida o'qituvchining faolligi ustuvor hisoblanadi va shu jihatdan ushbu fan bo'yicha tashkil etiladigan amaliy to'garaklarda o'quvchilarning faolligi ustuvor bo'lishiga asoslanish lozim. Shunda o'quvchilarning tasviriy va amaliy san'at turlari bo'yicha layoqatlari kutilgan darajada shakllanadi hamda ularning ijodiy ishlanmalarga ishlanmalari ortib boradi.

Bularning barchasi boshlang'ich sinflarda musiqa, so'z va tasviriy san'at turlari bo'yicha tashkil etiladigan amaliy to'garaklar hamda ulardan o'quvchilarni tarbiyalashda foydalanish bo'yicha metodikani ishlab chiqishni taqozo etadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliy to'garaklar metodikasi" maxsus kursini tashkil etish va uni oliy pedagogik ta'lim jarayonida tanlov fani sifatida o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining, umuman bo'lajak o'qituvchilarning ART texnologiya va kreativlik asoslari bo'yicha

professional ko'nikmalarga ega bo'lishiga erishiladi.

**Maktab amaliy to'g'aklari.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ART texnologiya va kreativlik bo'yicha maktab zamonaviy amaliy to'garaklarini tashkil etish dolzarb bo'lib turibdi. Bizningcha, bunday zamonaviy amaliy to'garaklarni tashkil etishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) boshlang'ich sinflar uchun maktab amaliy to'garaklari;
- b) tayanch o'rta ta'lim (5-9-sinflar) uchun maktab amaliy to'garaklari;
- v) to'liq o'rta ta'lim (10-11-sinflar) uchun maktab amaliy to'garaklari.

Chunki maktab amaliy to'garaklari sinflar amaliy to'garaklarini kengaytiruvchi va kuchaytiruvchi tizim hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflar uchun tashkil etiladigan so'z, musiqa va tasviriy san'at turlari bo'yicha amaliy to'garaklarda mazkur bosqich o'quvchilarning xususiyatlari hamda imkoniyatlari hisobga olinib, keng ko'lamli mashg'ulotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun maktab amaliy to'garaklarida bevosita san'at sohalarining mutaxassislari ishtirok etishi samarali hisoblanadi.

Tayanch o'rta ta'lim (5-9-sinflar) uchun tashkil etiladigan maktab amaliy to'garaklarida mashg'ulotlar ko'laming kengayishi, o'quvchilarning nisbatan ijodiy va ijodiy ishlanmalar yaratishi, ularning layoqatini maxsus rivojlantirilishi o'ziga xos xususiyatlar hisoblanadi. Bunday to'garaklarda ham amaliyotchi mutaxassislarga o'quvchilarni biriktirib qo'yish samarali hisoblanadi. Misol uchun, tasviriy san'at amaliy to'garagi mashg'ulotlarida asosiy e'tibor bevosita amaliy asarlar namunalarini yaratishga qaratiladi. Bunda rassomlarning o'quvchilar bilan hamkorlik qilishi kutilgan samarani beradi.

To'liq o'rta ta'lim (10-11-sinflar) uchun tashkil etiladigan maktab amaliy to'garaklarida o'quvchilar bevosita kasnga yo'naltiriladi. Bunda o'quvchilarning layoqatiga asosan ularni musiqa, so'z hamda tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlariga yo'naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun o'quvchilar tomonidan yaratilgan mustaqil ishlanmalar mutaxassislar ishtirokida o'rganib chiqilishi va shunga asosan o'quvchilarning mazkur sohalar bo'yicha

mutaxassislikka yo'naltirish metodikasiga asoslanish kutilgan samarani beradi.

E'tibor berilsa, maktab amaliy to'garaklarini umumiy o'rta ta'limg bosqichlariga asosan tashkil etish va ular asosida o'quvchilarning ART texnologik va kreativlik ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarda san'at sohalari bo'yicha tushunchalar, layoqatlarning tarkib topishi va ularda kreativ tafakkurning shakllanishiga qaratilishi dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli oliy pedagogik ta'limg jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy to'garaklar metodikasi asoslarini chuqur egallashi taqozo etiladi.

**Maktabdan tashqari amaliy to'garaklar.** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ART texnologiya va kreativlik bo'yicha ko'nikmalar berish hamda mazkur imkoniyatlardan foydalangan holda ularni tarbiyalash bugungi innovasion jamiyatning eng muhim extiyojlaridan hisoblanadi. Shu jihatdan maktabdan tashqari amaliy to'garaklar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday to'garaklarni hududlardagi quyidagi imkoniyatlardan kelib chiqib tashkil etish samarali hisoblanishini ta'kidlash lozim:

- a) umumiy o'rta ta'limg maktabiga yaqin bo'lgan mahalla fuqarolar yig'inlari guzarlarida tashkil etiladigan amaliy to'garaklar;
- b) umumiy o'rta ta'limg maktabiga nisbatan yaqin bo'lgan tuman (shahar) Madaniyat markazlarida tashkil qilinadigan amaliy to'garaklar;
- v) tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan moslashtirilgan binolarda tashkil etiladigan amaliy to'garaklar.

Keyingi besh yil davomida barcha mahalla fuqarolar yig'inlari guzarlarida kutubxonalar va klublar tashkil etish jarayoni amalga oshirilmoqda. Shu sababli mahalla guzarlarining binolari bunday faoliyatga moslashtirilmoqda. Ana shunday zamonaviy mahalla guzarlarida musiqa, so'z va tasviriy san'at bo'yicha o'quvchilar uchun amaliy to'garaklarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday to'garaklarda turli maktablarda ta'limg olayotgan o'quvchilar ommaviy tarzda tengdoshlari bilan hamkorlikka kirish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuningdek, bunday to'garklarning shart-sharoitlari mahalla faollari tomonidan kengaytirib boriladi va nazorat qilinadi.

Bugungi kunda barcha tuman markazlari va shaharlarda zamonaviy Madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Ularda turli to'garaklar, klublar va xarakatlar amaliyotchi mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Shu sababli bunday markazlarda tashkil etilgan to'garaklarda ishtirok etadigan o'quvchilarning faoliyati Sinf rahbarlari va maktab jamoasi tomonidan nazorat qilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday to'garaklarning mashg'ulotlarida o'rganiladigan asarlar umumiy o'rta ta'limg maktablari, ayniqsa, boshlang'ich ta'limg o'quv dasturlariga mos kelishi kerak.

2020 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan tadbirkorlar maktabgacha va umumiy o'rta ta'limg muassasalari yaqinlarida Madaniyat maskanlarini tashkil etishi amalga oshirilmoqda. Bunday maskanlardagi to'garaklar mashg'ulotlarning dasturlari umumiy o'rta ta'limg maktablarining tajribali o'qituvchilari tomonidan hamkorlik asosida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari bunday madaniyat maskanlarining moddiy va ijtimoiy imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda, o'zlarining amaliy to'garaklarini tashkil qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday to'garaklarda asosiy e'tibor amaliyotchi mutaxassislar bilan hamkorlik qilishga qaratilishi kutilgan samarani beradi.

E'tibor berilsa, maktabdan tashqari tashkil etiladigan amaliy to'garaklar muayyan tizim va metodikaga asoslanishi shart. Chunki bundan asosiy maqsad o'quvchilarning ART texnologik va kreativlik ko'nikmalarini amaliy jihatdan rivojlantirishdan iborat. Shu sababli oliy pedagogik ta'limg jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining maktabdan tashqari amaliy to'garaklar metodikasi asoslari bilan qurollanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kezikelganda ta'kidlash lozimki, mashhur va yirik shaharlarimizda o'ziga xos muzeylar, obidalar majmui va madaniyat maskanları mavjud. Ularda amaliy to'garaklarni tashkil etish imkoniyatlari keng. Shu sababli nafaqat boshlang'ich sinf o'qituvchilarining, balki umuman pedagog kadrlarning bunday maskanlarda amaliy to'garaklarni tashkil etish va ular vositasida o'quvchilarni tarbiyalash metodikasi bilan qurollantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Maxsus amaliy to'garaklar.** ART texnologiya va kreativlik

bo'yicha amaliy to'garaklarni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilar tarkibini qamrab olish taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun quyidagi shakllarda maxsus amaliy to'garaklar tashkil etish taqozo etiladi:

- a) jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maxsus amaliy to'garaklar;
- b) inklyuziv ta'limga muhtoj o'quvchilar uchun maxsus amaliy to'garaklar;
- v) o'quvchilarni yo'naltiruvchi maxsus amaliy to'garaklar.

Jismoniy imkoniyati cheklangan (jismoniy nuqsoni mavjud, nutqiy kamchiliklarga ega kabi) o'quvchilarning ta'limga olish huquqini ro'yobga chiqarish mamlakatimiz ta'limga siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maktabda, oilada yoki ular davolanadigan muassasalarda individual shakldagi amaliy to'garaklarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ruhiy his etish, idrok qilish va ijodkorlik tuyg'ulari nisbatan kuchli bo'ladi. Aynan mana shu asoslar bunday toifa o'quvchilar uchun maxsus amaliy to'garaklarni tashkil etish va ularning kreativ layoqatlarini maqsadli rivojlantirish imkonini beradi. Misol uchun, ko'p hollarda jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar she'riyat, tasviriy va amaliy san'at asarlari yaratishga juda qiziqishadi. Shu sababli ularning mana shu layoqatlarini rivojlantirish uchun maxsus amaliy to'garaklarning ahamiyati katta.

Inklyuziv, ya'ni oilada yakka tartibda ta'limga olishga muhtoj o'quvchilar uchun maxsus amaliy to'garaklar tashkil etish kutilgan samarani beradi. Bunday to'garaklarning asosiy faoliyatini boshlang'ich sinf o'quvchilarining rasm chizish, she'r yodlash, ijod qilish yoki amaliy san'at namunalarini yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limga oluvchilar bilan yakka tartibda amaliy to'garaklar tashkil etish o'quvchilarning layoqatini rivojlantiradi, o'zi va o'zgalarga bo'lgan ishonchni shakllantiradi, ijod vositasida hayot kechirish ko'nikmalarini tarkib toptiradi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari inklyuziv ta'limga oluvchilar uchun yakka tartibdagi maxsus amaliy to'garaklarni tashkil etish metodikasidan xabardor

bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maxsus ta'limga ehtiyoj sezuvchi o'quvchilar uchun yakka tartibda takshkil etiladigan maxsus amaliy to'garaklarning umumlashmasi shaklida o'quvchilarni yo'naltiruvchi to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra, jismoniy imkoniyati cheklangan va inklyuziv ta'limga muhtoj o'quvchilar uchun umumiyligiga ta'limga maktabi joylashgan hududlarda umumlashgan maxsus amaliy to'garaklar tashkil etilishi o'quvchilarni yo'naltirishda muhim imkoniyatlarni beradi. Bunday to'garaklar jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun umumiyligiga maxsus to'garak va inklyuziv ta'limga oluvchi o'quvchilar uchun umumiyligiga maxsus to'garak shakllarida tashkid etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday to'garaklarda o'quvchilar o'zlarini mansub toifalar asosida ART texnologiya va kreativlik sohalariga yo'naltiriladi. Chunki ko'p hollarda o'quvchilarni tofasiga ko'ra yo'naltirish muhim amaliy samaralarni beradi.

Shunday qilib ART texnologiya va kreativlikda amaliy to'garaklar tashkil etish, ularning imkoniyatlardan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash va layoqatlarini rivojlantirish muhim xususiyatlarga ega. Buning uchun oliy pedagogik ta'limga jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinflar kesimida, maktab, maktabdan tashqari va maxsus amaliy to'garaklar tashkil etish metodikasi bilan qurollantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sinf amaliy to'gaklari deganda nimani tushunasiz?
2. Maktab amaliy to'gaklarini tashkil etish asoslarini nimalardan iborat?
3. Maktabdan tashqari amaliy to'garaklar metodikasi asoslarini nimalar tashkil etadi?
4. Maxsus amaliy to'garaklar qanday tashkil etiladi?

### **3.7. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIVLIK LAYOQATINI SHAKLLANTIRISH**

#### **Reja:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqati xususiyatlari
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativ layoqatini shakllantirishda sahna san'atining o'rni
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativ layoqatini shakllantirishda tasviriy va amaliy san'atning ahamiyati
4. Kreativ layoqatlilik boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakalik asosi sifatida

**Tayanch tushunchalar:** *ta'lim, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, kreativlik, layoqat, bilim, ko'nikma.*

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqati xususiyatlari.** ART texnologiya va kreativlik asoslaridan biri texnologik rivojlanish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqatini shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan *kreativ layoqat* deganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik, mustaqil fikr lash va ijodiy namunalar yaratish ko'nikmasini tarkib toptirish tushuniladi. Mazkur masalada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) o'quvchilarda kreativ layoqatning tabiiy mavjud bo'lishi;
- b) kreativ layoqat o'quvchilarining rivojlanishiga mos ravishda shakllanishi;
- v) o'quvchilarda kreativ layoqatning darajalarga bo'linishi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ layoqat tabiiy mavjud bo'ladi, chunki u insonning tug'ma iste'dodi tarkibiga kiradi. Buyuk mutafakkir pedagoglar Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Konstantin Dimitreyevich Ushinskiy kabilar bolalarda iste'dodning tug'ma bo'lishini pedagogik jihatdan asoslab berishgan va mazkur masala Pedagogika fanida yakdillik bilan e'tirof etilgan.<sup>31</sup> Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ, ya'ni ijodkorlik

layoqati tabiiy ravishda mavjud bo'lishini hisobga olib, uni rivojlantirish mumkinligi ta'kidlanadi. Nimaki tabiiy holda mavjud bo'lsa, u rivojlanish xususiyatiga ega bo'ladi. Ayni paytda, Sharq pedagog mutafakkiri Abu Hamid G'azzoliy (XI asr) layoqatning tug'ma bo'lishi uning yetukligini anglatmaydi, layoqat yetuklikka aylanishi uchun rivojlantirilishi lozim, - deb tavsiya beradi. Mazkur metodik tavsiyaga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ layoqatini rivojlantirish ishiga ishonch bilan kirishish kutilgan samarani beradi.

Pedagogik tajribalardan ma'lumki, kreativ layoqatlilik o'quvchilarining yoshiga mos ravishda shakllanadi va rivojlanib boradi. Shu jihatdan 1-2-sinf o'quvchilarida kreativ layoqatlilikni tartibga solish va 3-4-sinflarda maxsus yondashuvlar asosida uni rivojlantirish metodik jihatdan samarador hisoblanadi. Chunki kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar yoshining xususiyatlari ko'ra ma'lumotlarni tez qabul qiluvchi va tez unutuvchi bosqichlarda bo'ladi. Shu sababli 3-4-sinflarda o'quvchilarining kreativ layoqatini o'quv fanlarini o'qitish jarayonida, amaliy to'garaklar vositasida va individual yondashuv asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, inson tabiatan bir-biriga o'xshamaydigan mayjudot hisoblanadi. Shu jihatdan o'quvchilarida kreativ layoqat quyi, o'rtalig' va yetuk darajalarda bo'lishi pedagogik tajribalardan ma'lum. Aynan mana shu xususiyatlarga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat ko'nikmasini quyi va o'rtalig' darajadan yetuk darajaga olib chiqish pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilar va Sinf rahbarlari qulay, oson hamda maqbul metodlar, yondashuvlar va texnologiyalarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir xolatni ta'kidlash lozimki, maxsus shug'ullanish vositasida har qanday o'quvchining didi, shuuri va ongida yashirin bo'lgan kreativ layoqatni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ layoqat ko'nikmasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u albatta rivojlanish jarayonida bo'ladi. Bu omilga nazariy va metodik jihatdan e'tibor berish kutilgan samarani beradi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativ layoqatini shakllantirishda sahna san'atining o'rni.** ART texnologiya va kreativlikning

<sup>31</sup> Каранг: Ўзбек педагогикаси антологияси. 1-Том. –Т.: “Ўқитувчи”, 1996

asoslaridan biri bo‘lgan so‘z san’ati va uning turlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ layoqatini shakllantirishda muhim asoslardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda mazkur san’atning muhim turlaridan biri sahna san’ati bo‘lib, uning tarbiyaviy va ta’limiy ahamiyati estetik jihatdan yuksak baholanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ layoqatini shakllantirishda sahna san’atidan foydalanish uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) o‘quvchilarini kichik sahna asarlari tashkil etishga o‘rgatish;
- b) o‘quvchilarini kichik sahna asarlari yaratishga yo‘naltirish;
- v) imkon qadar o‘quvchilarini teatr asarlari bilan tanishtirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kichik sahna asarlari, ya’ni ko‘rinishlar, pes’alar va dramalarni sahnaga olib chiqishga o‘rgatish ularning kreativ layoqatini shakllantirishdagi muhim omillardan biridir. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi 1-2-sinflarga kichik sahna asarlari tanlab berishi va 3-4-sinflarda o‘quvchilarning mustaqvil ravishda sahna asarlari tanlashiga yordam berishi taqozo etiladi. Shuningdek, aksarlarni sahnalashtirish uchun o‘quvchilarini obrazlarga tayyorlashda o‘ziga xos san’atkorona yondashish tavsiya etiladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har qanday obrazni qiziqish, ilhom va hayajon bilan ijro etishadi. Aynan sahna asarlarining obrazlari bolalarning ijodkorligini amaliy jihatdan rivojlantiruvchi muhim vositadir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kichik sahna asarlari yaratishga o‘rgatish ham ularning ijodkorligini rivojlantirishdagi amaliy vositalardan biri hisoblanadi. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘phollarda 3-4-sinf o‘quvchilarini o‘rtoqlari xarakteri, maktab hayoti, o‘z oilasi va ustozlari to‘g‘risidagi mavzularda o‘ziga xos kichik sahna asarlari (2-3 sahifali) yaratishga juda qiziqishadi. Aynan mana shu qiziqish ularni mavzu tanlash, so‘zlardan o‘rinli foydalanish va voqeilikni ifodalash kabi ko‘nikmalarini shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Rossiyalik pedagog olima L.Ye. Strelseva 30-yillik faoliyat davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tomonidan yaratilgan kichik sahna asarlarini to‘plab, nashr ettirgan va ularda voqeilikning yorqin ifodalananishini katta yoshli ijodkorlar uchun namuna sifatida talqin

qilib bergan.<sup>32</sup> Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kichik sahna asarlari yaratishga o‘rgatish ularning kreativlik layoqatini rivojlantirishdagi muhim tayanchlardan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimizning har bir hududiga professional teatrlar faoliyat ko‘rsatmoqda va hududlardagi Madaniyat markazlarida Havaskor drama studiyalari turli-tuman sahna asarlarini jamoatchilikka taqdim etmoqda. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini imkon qadar har chorakda bir marotaba teatrga olib borilishi va o‘ziga xos sahna asarlarini tamosha qilish tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan o‘quvchilarning estetik ongi yuksaladi, madaniyatlik ko‘nikmalari shakllanadi va ayniqsa ularda kreativlik, ya’ni ijodga qiziqish hislatlari paydo bo‘ladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ahloqiy va estetik tarbiyasini amaliy jihatdan samarali tashkil etish imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ layoqatini shakllantirishda sahna san’atining amaliy ahamiyati yuqoridir. Shu sababli bu borada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini muayyan reja asosida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

*Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ layoqatini shakllantirishda tasviriy va amaliy san’atning ahamiyati.* Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ layoqatini shakllantirishda tasviriy va amaliy san’atning ahamiyati estetik hamda pedagogik jihatdan muhimdir. Bu borada quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- a) o‘quvchilarning tasviriy san’at asarlariga e’tibor berish;
- b) o‘quvchilarning amaliy san’at ishlanmalarini rag‘batlantirish;
- v) o‘quvchilarning tasviriy va amaliy san’at bo‘yicha izlanishlarini yo‘lga qo‘yish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tomonidan yaratilgan tasviriy san’at asarlarini o‘qituvchilar, maktab jamoasi va imkon qadar mutaxassislar tomonidan baholab borilishi kerak. Chunki ijodkorga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri o‘z asarlarining baholanishini kutishidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil ravishda yaratgan tasviriy san’at asarlarini o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘quvching ichki dunyosidan darak beradi. Bunday

<sup>32</sup> Искусство в жизни детей. Сборник. – Москва, 1990. – С. 102-120

namunalarni baholashda murosa metodiga asosan haqqoniy yo'l tutish va kamchiliklarini muhokama metodi asosida tushuntirish metodik jihatdan to'g'ri buladi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar yaratgan tasviriy san'at asarlari namunalari hech qachon xunuklik yoki salbiy xususiyatlarga ega bo'lmaydi. Aynan bunday asarlarni baholab borish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ilxomlantiradi. Bunda ijodning e'tibor talab qilishi tamoyiliga asoslanish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini amaliy san'at namunalarini ishlashda ham o'zlarining mustaqil ijodkorlik ko'nikmalariga tayanadi. Ba'zilari oddiy loydan shunday mukammal amaliy san'at namunalari ishlasa, ayrimlari yog'och o'ymakorligi bo'yicha o'ziga xos ko'nikmalarga ega bo'ladi. Umuman san'at nazariysi va metodikasiga ko'ra, shaxsning san'at namunalari yaratishi bevosita uning iste'dodiga bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini amaliy san'at namunalari yaratayapdimi, demak ularda iste'dod uchquni bor. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bunday ko'nikmasini rivojlantirish uchun Amaliy to'garaklar imkoniyatlariga tayanish tavsiya etiladi. O'quvchi aynan bunday to'garaklarda ham ijod bilan shug'ullanadi, ham o'zining kreativlik layoqatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda ta'limgarayonida o'quvchilarini o'z qiziqishlari bo'yicha izlanishlarga jalb qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tasviriy va amaliy san'at bo'yicha izlanishlarga yo'naltirish muhimdir. Bunda o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga tegishli adabiyotlarni topishda yordam berishi, amaliy san'at turlari bo'yicha ishlanmalar yaratish uchun kerakli ashyolarni izlash va topish, tasviriy san'at asarlari yaratish uchun jihozlar bilan ta'minlash ishlarining amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada maktab laboratoriyalari imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy va amaliy san'at vositasida kreativ layoqatini rivojlantirishda muhim imkoniyatlar mayjud. Mazkur masalalar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi taqozo etiladi.

#### *Kreativ layoqatilik boshlang'ich sinf o'quvchilarining mala-*

***kalik asosi sifatida.*** Bugungi kunda oliy ma'lumotli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uchun malakalar ko'lami kengayib bormoqda. Buning sababi innovasion jamiyat sharoitida ta'limgarayonida asoslarining yangilanib borayotganligi va milliy ta'limgarayonida tizimimizning halqaro baholash ta'limgarayonida moslashtirilayotganligidadir. Shu sababli bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ layoqatlik malakasiga ega bo'lishi dolzarb hisoblanadi. Mazkur malakanegi egallash uchun individual izlanish va mustaqil ta'limgarayonida quyidagi amal qilish tavsiya etiladi:

- a) so'z san'ati asoslari bo'yicha malaka egallash;
- b) musiqa san'ati negizlari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;
- v) tasviriy san'at metodikasi bo'yicha bilimni egallash.

So'z san'ati asoslari badiiy va ilmiy kitoblarni o'qish bilan egallanadi. Buning uchun talabalar har bir kitobni pedagogik tahlil vositasida o'qishi tavsiya etiladi. Bunday pedagogik tahlilning negizini so'z san'ati vositasida o'quvchilarini qanday tarbiyalash mumkin, degan savolga javob topish tashkil qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida har bir obrazning o'ziga xos nutqi mavjud va bu nutq xususiyatlarini o'rganish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kelgusi faoliyatida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yoki, ilmiy adabiyotlarda bolalar adabiyoti metodikasi turkumiga oid kitoblarni o'qish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aynan kitobxonlik madaniyatini o'zlashtirishda so'z san'ati vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash malakasiga ega bo'linadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, kitoblarning bosma va elektron variantlari kitobxonlik uchun muhim asos hisoblanadi. Chunki keyingi paytlarda kitoblarning elektron variantiga nisbatan ikkilanish paydo bo'ldi. Unutmaslik lozimki, kitoblarning elektron varianti bosma nashrga nisbatan ixchamlashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Lekin bizning yondashuvimizga ko'ra, kitoblarning bosma va elektron variantlarini o'qish tavsiya etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining musiqa san'ati asoslardan xabardor bo'lishi ham taqozo etiladi. Buning uchun asosiy e'tiborni bolalar musiqasi, bolalar qo'shiqlari va bolalar raqslarini o'rganishga qaratish tavsiya etiladi. Professor Ilyos Akbarovning 1997 yili nashr etilgan "Musiqa lug'ati" kitobida bolalar musiqa san'ati asoslari bo'yicha yetarli darajada ma'lumotlar berilgan.

Mazkur kitobda tavsiya etilishi ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tavsiya etilgan har qanday kuylarni, qo'shiqlarni va raqslarni kutilgan darajada o'zlashtira oladi hamda ijro qiladi. Demak, bolalar musiqa san'ati asoslarini o'zlashtirish bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini musiqa san'ati bo'yicha malakaga ega bo'lish mumkin.

Hozirgi zamonda oliy pedagogik ta'lim jarayonida tasviriy san'at metodikasi bo'yicha tegishli malakalarni egallash nazarda tutilgan. Bu borada ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakaga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Tasviriy san'at metodikasini egallash uchun tasviriy va amaliy san'atning biror turi bo'yicha individual shug'ullanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki aynan individual shug'ullanish bo'lajak o'qituvchi uchun muhim bo'lib, uning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkoniyatlarini beradi. Bu borada oliy pedagogik ta'lim jarayonining mavjud imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ layoqatini shakllantirish hozirgi zamonda boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasida muhim o'rinni tutadi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual izlanishlar vositasida kreativ layoqatlik bo'yicha malakaga ega bo'lishi maqsmadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan bugungi oliy pedagogik ta'lim jarayoni faqat izlanishni taqozo etadi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqati xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ layoqatini shakllantirishda sahna san'atining o'rni nimalar bilan belgilanadi?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ layoqatini shakllantirishda tasviriy va amaliy san'atning ahamiyati deganda nimani tushunasiz?
4. Kreativ layoqatlilik boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakalik asosi sifatida qanday xususiyatlarga ega?

#### **14-mavzu: ART texnologiyasi va kreativlik bo'yicha o'qituvchilkarning individual mashg'ulotlari**

##### **Reja:**

1. O'qituvchilarining ART texnologiyasi bo'yicha individual mashg'ulotlari.
2. O'qituvchilarining kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlari.
3. O'qituvchilarining individual mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar.
4. O'qituvchilarining ART texnologiyasi va kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlarining ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** ART, kreativlik, o'qituvchi, individuallik, mashg'ulot, bilim, ko'nikma, malaka.

**O'qituvchilarining ART texnologiyasi bo'yicha individual mashg'ulotlari.** Hozirgi zamonda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ART texnologiyasi bo'yicha malakaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktabalarining boshlang'ich sinflarida musiqa, so'z va tasviriy san'at bo'yicha o'quv fanlari amalda bo'lib kelmoqda. Mazkur fanlar ART texnologiyasining negizi bo'lib, ular bo'yicha malakaga ega bo'lish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini kengaytiradi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ART texnologiyasi bo'yicha individual mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar 4+2 tizimi asosida ta'lim olmoqda. Shu jihatdan ularning haftalik amaliyoti davrida ART texnologiyasi bo'yicha individual mashg'ulotlarini tashkil qilish kutilgan samarani beradi va bunday mashg'ulotlar ularning ushbu yo'nalish bo'yicha malakalarini amaliy tarkib toptirishga asos bo'ladi. Bunday individual mashg'ulotlarni quyidagi tartibda tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- a) "Ona tili va o'qish savodxonligi" o'quv fani bo'yicha So'z san'ati mavzusida amaliy mashg'ulotni tashkil etish;
- b) "Musiqa madaniyatasi" o'quv fani bo'yicha Musiqa san'ati

mavzusida amaliy mashg'ulotni tashkil etish;

v) "Tasviriy san'at" o'quv fani bo'yicha Tasviriy va amaliy san'at mavzusida amaliy mashg'ulotni tashkil etish.

Bunday individual mashg'ulotlar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarida va qo'shimcha shaklda tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda maktab hisobidagi o'quv soatlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Shu jihatdan So'z san'ati mavzusida tashkil etiladigan individual mashg'ulot muhim ahamiyatga ega. Musiqa san'ati bo'yicha ham o'qituvchilarning individual mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ART texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quvchilarning musiqa ijrochilagini va cholg'u ijrochilagini shakllantirishga asosiy e'tibor berish metodik jihatdan samarali hisoblanadi. Shuningdek, Tasviriy va amaliy san'at bo'yicha o'qituvchilarning mashg'ulotlarini tashkil etish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning individual ishslashiga qaratilishi kutilgan samarani beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil individual mashg'ulotlarni tashkil qilish bilan o'quvchilarning kreativlik ko'nikmasini amaliy shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Buning uchun umumiyl o'rta ta'lim maktablarida imkoniyatlar yetarli, ayni paytda muktab laboratoriyalari yangi texnologiyalar asosida jihozlanayotganligini eslatib o'tish joiz. Bunday imkoniyatlardan foydalanish va ular vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya va kreativlik bo'yicha ko'nikmalarini talab darajasida shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

**O'qituvchilarning kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlari.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlarini tashkil etish bugungi kunda dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

a) gumanitar fanlar bo'yicha o'qituvchilarning individual mashg'ulotlarini tashkil etish;

b) aniq fanlar bo'yicha o'qituvchilarning individual mashg'ulotlarini tashkil etish;

v) san'atkor mutaxassislar ishtirokida individual mashg'ulotlarni tashkil etish.

Gumanitar fanlar bo'yicha tashkil etiladigan o'qituvchilarning individual mashg'ulotlarida "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Musiqa madaniyati" va "Tasviriy san'at" o'quv fanlari bo'yicha chuqurlashtirilgan saboqlarni amalga oshirish muhimdir. Bunda faqat o'quvchilarning ART texnologiyasi bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratish va albatta ularda kreativlikni tarkib toptirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki kreativlik ko'nikmasi o'quvchilarning fikrlash va ijod qilish layoqatini kutilgan darajada tarkib toptiradi.

Aniq fanlar bo'yicha tashkil etiladigan individual mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirishda muhim hisoblanadi. Misol uchun, Matematika o'quv fani bo'yicha o'qituvchilarning individual mashg'ulotlari o'quvchilarda matematik tafakkurni, fikrlashni va o'zining layoqatini namoyon eta olish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Shu sababli o'rta asrlarda va hozirgi zamon xorij Pedagogikasida Matematika o'quv fani san'at fanlari tarkibiga kiritilgan. Shu sababli mazkur fan bo'yicha o'qituvchilarning individual mashg'ulotlarini tashkil etish so'z, musiqa, tasviriy va amaliy san'at asoslarini idrok etish uchun qo'shimcha ko'nikma vazifasini bajaradi.

Boshlang'ich ta'limda san'atkor (musiqachi, ashulachi, raqqos, rassom) mutaxassislar ishtirokida o'qituvchilarning individual mashg'ulotlarni tashkil etish ham muhim masalalardan hisoblanadi. Bunday yondashuv individual mashg'ulotlarning amaliy jihatlarini kuchaytiradi va o'quvchilarning faolligiga asos bo'ladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, mutaxassisl ishtirokida tashkil etiladigan o'qituvchilarning individual mashg'ulotlari haftasiga ikki marotaba amalga oshirilishi yetarli hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirish uchun individual mashg'ulotlar tashkid etishi amaliy va metodik jihatdan keng imkoniyatlarni beradi. Bunda o'qituvchilarning faolligiga extiyoj seziladi. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining individual mashg'ulotlarini tashkil etish asoslari bilan qurollanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**O'qituvchilarning individual mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar.** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ART texnologiya

va kreativlik ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha tashkil etiladigan o'qituvchilarning individual mashg'ulotlariga bir necha talablar qo'yiladi. Bunday talablarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) o'quvchilar uchun qulay vaqt va imkoniyatlar mavjud sinf xonalarining (laboratoriyalarning) tanlanishi;
- b) individual mashg'ulotlarda asosiye tibor amaliyotga qaratilishi va mashg'ulotlarning o'quvchilarini mustaqil ishlashga yo'naltirilgan bo'lishi;
- v) individual mashg'ulotlarning samarasini kuzatib borish va tahlil qilish.

O'qituvchilarning individual mashg'ulotlari o'quvchilar uchun qulay vaqtarda tashkil etilishi shart. Buning uchun eng maqbul sinf xonalar tanlanishi, kerakli uskunalar va jihozlarning mavjud bo'lishi, individual mashg'ulotlarning reja asosida olib borilishi taqozo etiladi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida nisbatan shart-sharoitlar mavjud va faqat bunday sharoitlardan o'qituvchilarning ustamoniq bilan foydalaniishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Individual mashg'ulotlar o'quvchilar uchun qulay vaqt va sharoitlarda tashkil etilmasa, ular kutilgan samarani bermaydi.

Individual mashg'ulotlarni tashkil etishdan asosiy maqsad o'quvchilarning mustaqilligiga asoslangan amaliy saboqlarni berishdir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, har bir o'quvchida layoqat mavjud va bunday layoqat aynan individual mashg'ulotlar vositasida amaliy rivojlantiriladi. Chunki individual mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zaro tajriba almashishadi, biridan o'rganishadi va o'zlarining mustaqil ishlanmalarini taqdim etishadi. Shu sababli individual mashg'ulotlarni olib borishda o'qituvchilar deyarli har bir mashg'ulotda ijodiy yondashuvlarga asoslanishi kerak.

Individual mashg'ulotlarning samaradorligiga har bir mashg'ulotni kuzatib borish bilan erishiladi. Buning uchun har bir mashg'ulot o'ziga xos va original tashkil etilishi kerak, shu sababli bunday mashg'ulotlar individual deb ataladi. Individual mashg'ulotlarning bir-biriga o'xshashi metodik jihatdan kamchilik hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilar tomonidan har bir mashg'ulot tahlil qilinishi, uning yutuq va kamchiliklari aniqlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa ART texnologiyasi va kreativlik bo'yicha tashkil etiladigan

individual mashg'ulotlar yangicha asoslarga ega bo'lishi pedagogik talablardan biridir, chunki bu masala ijod bilan bog'liq hodisa hisoblanadi.

Pedagogikamiz tajribasida individual mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi an'anaviy xarakterga ega. Bugungi rivojlanish jarayoni esa mazkur metodikani innovation yondashuv asosida takomillashtirib borilishi taqozo etmoqda. Shu jihatdan kompyuter kabi axborot-kommunikacion vositalardan unumli foydalangan holda ART texnologiya va kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlarni tashkil etish asoslari ishlab chiqilishi kerak. Misol uchun, biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuter vositasida musiqa san'ati ijrochilagini, so'z san'atining asoslarini, tasviriy va amaliy san'atning turlari bo'yicha namunalarni yaratishini tabiiy qabul qilamiz. Chunki hozirgi zamon innovation rivojlanish sharoitida mavjud texnologiyalardan foydalanish dolzarb bo'lib bormoqda. Bizning kuzatishimizga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijodiy asarlar yaratish ko'nikmalarini tarkib toptirishda kompyuterga asoslangan zamonaliv texnologiyalardan keng foydalilmoqda. To'g'ri, kompyuter vositasida yaratilgan san'at asarlari inson his-tuyg'usini yuz foiz darajada aks ettirmaydi. Biroq, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqa, so'z va tasviriy san'at olamiga olib kirish, ularni bu sohalarga qiziqtirish uchun kompyuter texnikasiga asoslangan metodikalar kutilgan samarani beradi. Natijada o'quvchilarning qiziqishi ko'nikmaga aylanib boradi. Shu jihatdan kompyuterli texnologiyalardan foydalanish uchun aniq va samarali metodikalarga tayanish tavsiya etiladi.

*O'qituvchilarning ART texnologiyasi va kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlarining ahamiyati.* Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ART texnologiya va kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlari muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagi imkoniyatlarga ega bo'linadi:

- a) o'quvchilar bilan individual ishslash va hamkorlik qilish jarayoni kuchayadi;
- b) o'quvchilarning mustaqil ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ega bo'linadi;
- v) ART texnologiya va kreativlik bo'yicha o'quvchilarning

ishlanmalarini realizasiya qilish yuzaga keladi;

- g) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faolligi oshadi;
- d) o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini maktabda tashkil etish jarayoniga erishiladi.

Bunday imkoniyatlarga ega bo'lish boshlang'ich ta'limda o'quv jarayoni va tarbiyaviy tadbirlarning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy faolligi oshadi, ular o'rtasidagi o'ziga xos hamkorlik asosida ART texnologiyasi va kreativlik bo'yicha ko'nikmalarni kutilgan darajada egallash yuzaga keladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bu o'rinda ART texnologiyasi va kreativlik masalasining amaliy ahamiyatiga e'tibor berish lozim. Chunki san'at va ijod o'quvchilarning ahloqiy fazilatlarini kuchaytiradi, ularni turli illatlardan himoya qiladi va o'quvchilarda ijodiy faollikni tarkib toptiradi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim pedagogikasida mazkur masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki 3-4-sinf o'quvchilari kompyuter imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda. Aynan mana shu jarayonni tartibga solish uchun "Kompyuter savodxonligi" o'quv fani kiritilgan. Gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida mazkur o'quv fanining imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, ART texnologiya va kreativlik boshlang'ich ta'limda "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Musiqa madaniyati" hamda "Tasviriy san'at" o'quv fanlarini o'qitish jarayonini kuchaytiradi. Shu sababli bu borada o'qituvchilarning o'z individual mashg'ulotlariga ega bo'lishi taqozo etilmoqda. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'kidlangan fanlar bo'yicha yangiliklarga asoslangan individual mashg'ulotlarni tashkil etish ko'nikmasini egallashi kerak.

Mutaxassislik (pedagogik) majburiy fanlar va tanlov fanlarining dasturlariga Individual mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi mavzusining kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday mavzuni nazariy o'zlashtirish hamda talabalarning haftalik amaliyoti davrida tajribalardan o'tkazish imkoniyatlari mavjud. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari individual mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha o'ziga xos ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Shunday qilib ART texnologiya va kreativlik bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mashg'ulotlari nazriy, metodik va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalada oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirilishi va imkon qadar har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z individual metodiga ega bo'lislighiga erishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'qituvchilarning ART texnologiyasi bo'yicha individual mashg'ulotlari qanday tashkil etiladi?
2. O'qituvchilarning kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlari mazmunini nimalar tashkil qiladi?
3. O'qituvchilarning individual mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. O'qituvchilarning ART texnologiyasi va kreativlik bo'yicha individual mashg'ulotlarining ahamiyati deganda nimani tushunasiz?

## **15-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA ART TEKNOLOGIYA VA KREATIVLIKNI O'ZLASHTIRGANLIK DARAJASINI BAHOLASH**

### **Reja:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya tushunchalari va ko'nikmalarini baholash indikatorlari.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqati shakllanganlik darajasini baholash mexanizmlari.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya va kreativlik ko'nikmalarining shakllanganligini tashhislash tizimi.

**Tayanch tushunchalar:** *boshlang'ich, ta'lif, ART, texnologiya, kreativlik, o'zlashtirganlik, bilim, ko'nikma, baholash.*

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya tushunchalari va ko'nikmalarini baholash indikatorlari.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiyasi tushunschalarini o'zlashtirish va u bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishini baholash indikatorlari (mezonlari) shakllantirilishi lozim. Pedagogik adapiyotlar, metodik tavsiyalar, ta'limga oid me'yoriy hujjatlar va tajribamizga tayangan holda bunday indikatorlarning asosiyлари sifatida quyidagilarni belgilab ko'rsatish mumkin:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi rivojlanganligi;
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqs ijrochiligi bo'yicha tushunchalarga ega bo'lganligi;
- v) boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasviriy va amaliy san'at namunalarini yaratish ko'nikmasining tarkib topganligi.

Bu indikatorlar asosida o'quvchilarining ART texnologiyasi bo'yicha ko'nikmalarini baholash imkoniyati mavjud. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi va ularidan foydalana olish ko'nikmasini aniqlash uchun Bayon yoki Insho yozish uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan ular o'zlarida mavjud so'zlarning ko'lami, fikrini bayon eta olish ko'nikmasi va adapiy tilda yozish uslubini namoyon qiladi. Shuningdek, ular tomoindan yozilgan bayon yoki inshoning mazmunini ularning o'zлari tomonidan so'zlab berishi o'quvchilarda

og'zaki nutqning shakllanganligini bildiradi. Aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutq darajasi ularning so'z san'ati bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lganligini namoyon qiladi. Shu sababli mazkur masalada ushbu indikatorga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqslarini ijro etish ko'nikmasini aniqlash uchun har bir o'quvchining individual ijrosini kuzatish hamda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqa san'atining mazkur uch turidan qaysi birida layoqatga ega ekanligini aynan ijro jarayonida namoyon etadi. Shu sababli musiqa san'ati bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmasini shakllanganlik darajasini aniqlashda amaliy ijrochilik uslubiga tayanish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy va amaliy san'at bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lganligini aniqlashda ularning mustaqil ishlammalariga e'tibor berish kutilgan samarani beradi. Aynan mustaqil ishlammalar o'quvchilarining ijodiy layoqati, estetik didi va ijodkorlik ko'nikmalarini yaqqol ko'rsatadi. Mustaqil ishlammalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiyasi bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishini aniqlash metodik jihatdan samarali hisoblanadi. Aynan mustaqil ishlammalar o'quvchilarining kreativ tafakkurini ham namoyon etadi.

E'tibor berilsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya va kreativlik bo'yicha ko'nikmalarini baholash indikatorlarida eng maqbul hamda qulay metodlarga asoslanish kerak. Aks holda bu boroda murakkab metodlarni tanlash kutilgan samarani bermaydi. Eng asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa, so'z va tasviriy san'at bo'yicha tushunchalarga ega bo'lganligiga qaratilishi kerak. Mazkur yondashuv o'quvchilarining keyingi ta'lif bosqichida ART texnologiyasi va kreativlik bo'yicha faol bo'lishiga asos yaratadi. Ayni paytda, o'quvchilarining tushunchalarini baholash indikatorlarida amaliy masalalarga diqqat qilinishi kerak. Bunday indikatorlarni shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini, maktab jamoasi va amaliyotchi mutaxassislarining hamkorligi taqozo etiladi. Mazkur masalalar oliy pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tomonidan chuqr o'zlashtirilishi

maqsadga muvofiq bo'ladi.

*Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqati shakllanganlik darajasini baholash mexanizmlari.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqati shakllanganlik darajasini baholashning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish extiyoji mavjud. Bunday mexanizmlarning oqilona belgilanishi o'quvchilarining kreativlik layoqatini va uning darajasini to'g'ri baholash imkonini beradi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, bunday mexanizm yozma va og'zaki shaklda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tibor bering:

1. *Yozma shakl.* Bunda quyidagilarga asoslanish samarali hisoblanadi:

- so'z san'ati layoqati bo'yicha o'quvchilarga mustaqil kichik hikoyalar, she'rlar va sahna asarlari yozishni tavsiya qilish;
- musiqa san'ati layoqati bo'yicha musiqa, qo'shiq va raqs tahlili bo'yicha insho yozishni tavsiya qilish;
- tasviriy va amaliy san'at layoqati bo'yicha mustaqil ishlanmalar yaratishni tavsiya qilish.

Amalga oshirilgan yozma shakllar o'qituvchilar yoki maxsus tuzilgan hay'at tomonidan baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. *Og'zaki shakl.* Bunda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarga o'qigan kitoblarini hikoya qilib berishni tavsiya etish va ularning nutqiga e'tibor berish;
- o'quvchilarga o'zi o'rgangan musiqa, qo'shiq va raqs to'g'risida so'zlab berishni tavsiya etish va ularning tahviliga diqqat qilish;
- o'quvchilarga tasviriy va amaliy san'at bo'yicha o'zлari yasagan ishlanmalarni tahlil qilib berishni tavsiya etish hamda ularning mustaqil fikrashiga e'tibor berish.

Yozma shakl asosida amalga oshirilgan aniqlash ishlari albatta, maxsus hay'at tomonidan baholanishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ layoqati shakllanganlik darajasini baholash mexanizmlarida ularning ijodiy faolligi, mustaqil fikrashi va qiziqish ko'lamiga ham diqqat qilishg tavsiya etiladi. Tajribalar shuni ko'rsatadi, ba'zi o'quvchilarining yozma nutqi va ayrim o'quvchilarining og'zaki nutqi nisbatan rivojlangan bo'ladi. Shu sababli ularning kreativ layoqati darajasini baholashda o'rta yo'l,

ya'ni yozma va og'zaki shakllarda bajarilgan ishlarning balansiga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyinchalik o'quvchilar bilan ularning yozma yoki og'zaki nutqlarini rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqati shakllanganlik darajasini baholashda choraklik muddatlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir chorakda mazkur layoqatning tadrijiy rivojlanishiga e'tibor berish imkoniyatiga ega bo'linadi va shuningdek, o'quvchilar bilan individual ishlash yo'nalishlari belgilab olinadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, baholash mexanizmlarida shaffoflik va holistik tamoyillariga asoslanish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Ayni paytda, baholashni to'g'ri mexanizmlar asosida amalga oshirish qaysi o'quvchining qaysi san'at turi bo'yicha layoqatga ega ekanligini namoyon qiladi. Shu sababli bu borada butunlay yangi uslublar va yondashuvlar ustida izlanishlar olib borish tavsiya etiladi. Oliy pedagogik ta'llim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarining baholash mezonlari bo'yicha tushuncha, bilim va metodlarni o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday o'zlashtirishga ko'p hollarda mustaqil ta'llim vositasida erishiladi. Buning uchun o'qituvchilar talabalarni to'g'ri yo'naltirishi, metodik tavsiya berib borishi va ularning faoliyatini tahlil qilishi tavsiya etiladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'quvchilarining kreativlik darajasini baholash mexanizmlari kutilgan darajada o'zlashtiriladi.

*Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya va kreativlik ko'nikmalarining shakllanganligini tashxislash tizimi.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya va kreativlik bo'yicha o'zlashtirganlarini tashxislash metodikasi umumiy pedagogik qonuniyatlar va metodologiyasiga asoslanadi. Chunki tashxislash boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'llimning keyingi bosqichida san'at va ijodiylik bo'yicha shakllangan ko'nikma asosida faoliyat berishish uchun asoslarni yaratadi.

Bugungi kunda ART texnologiya va kreativlik yangi yo'nalish bo'lganligi uchun ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Xorijiy pedagogik tajribalar, milliy pedagogik tadqiqotchiligidizda tavsiya etilgan tavsiyalar va ta'llimga oid me'yoriy hujjatlar asosida

tashhislashning asoslarini shakllantirish mumkin. Bu borada quyidagilar tavsiya etiladi:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida san'at va ijodiylikka bo'lgan qiziqishning mavjudligini aniqlash;
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkurning shakllanganligini aniqlash;
- v) boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijod qilish ko'nikmasining rivojlanganligini aniqlash.

Mazkur mezonlar bo'yicha tashhislashni amalga oshirishda bizningcha, test va ko'rik-tanlov tadbirdaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki test boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini pedagogik-psixologik jihatdan namoyon qilsa, ko'rik-tanlov esa mazkur o'quvchilarining ijodiy ishlanmalarini yaqqol ko'rsatadi. Natijada tashhislash jarayoni xolis, shaffof va ommaviy ravishda amalga oshiriladi.

Hozirgi zamон texnologik rivojlanish jarayonida Test imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tashhislashning haqqoniyligini belgilaydi va shu sababli olingen test natijalarini kompyuter vositasida baholash tavsiya etiladi. Chunki bunday yondashuv test natijalarining haqqoniy bo'lishi imkonini beradi. Shuningdek, tashhislashning ko'rik-tanlov shaklida esa albatta mutaxassislardan iborat maxsus hay'atning bo'lishi metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Bularidan asosiy maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologik va kreativlik bo'yicha layoqatini shakllanganlik darajasini to'g'ri tashhislashdir, bunda individual yondashuv yoki xususiy mulohazalarga metodik jihatdan noto'g'ri hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda ART texnologiya va kreativlikni o'quvchilarining o'zlashtirganlik darajasini baholashda o'ziga xos indikatorlar, mexanizmlar va tashhislash jarayoniga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya tushunchalari va ko'nikmalarini baholashning asosiy indikatorlarini nimalar tashkil qiladi?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik layoqati shakllanganlik darajasini baholash mexanizmlari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ART texnologiya va kreativlik ko'nikmalarining shakllanganligini tashhislash tizimi qanday asoslarga tayanadi?

### 1-Amaliy mashg'ulot mavzusi

**Mavzu:** So'z san'ati ART texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining notiqlik ko'nikmasini shakllantirish.

#### Reja:

1. So'z san'ati omillari
2. "Ona tili" so'z san'atining asosi sifatida
3. Notiqlik ko'nikmasini shakllantirish

**Tayanch tushunchalar:** san'at, so'z, asos, til, mutq, o'quvchi, badiiylik, ong, bilim, ko'nikma.

ART inglizcha atama bo'lib, so'z san'ati, musiqa san'ati, tasviriy san'at va texnologik yondashuvlarning uyg'unligiga asoslangan san'at tushunchasini anglatadi



So‘z san’ati – bu so‘z vositasida fikrni badiiy ifodalash bo‘lib. unda inson va jamiyat hayoti obrazlar vositasida tasvirlanadi . So‘z san’ati til va adabiyotning uyg‘unlashgan shakli bo‘lib unda badiiyat qonuniyatlariga asoslaniladi

„Ona tili“ so‘z san’atining asosi sifatida .Har bir xalqning so‘z san’atida ona tili asosiy negiz hisoblanadi . Chunki ona tilining inson ruhiyati va onggiga ta’siri ilmiy isbotlangan bo‘lib ,unga ko‘ra,inson aynan ona tili vositasida ma’naviy shakllanadi . Uning natijasida ijtimoiy hayot va jamiyatda faoliq ko‘rsatadi . Bu borada siz san’ati o‘zining asoslariga ega bo‘lib 2 jihatdan muhim imkoniyatlarni beradi

### 1. Ona tilining keng imkoniyatlarini namoyon qiladi va uning targ‘ibotini amalga oshiradi.

### 2. Ona tilining lug‘at boyligini kuchaytiradi

Ona tili so‘z san’atining asosi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. So‘z boyligini (lug‘atini) taqdim qiladi
2. Tasvirlar vositalarini bercadi
3. Fikrni ikkinchi shaxsga yetkazadi

### NOTIQLIK SAN’AT TARIXI

Notiqlik bu — so‘z san’ati, so‘z san’ati bo‘lganda ham ohangdan libos kiyib talaffuz bilan jilolangan so‘z san’atidir. Madomiki, “so‘z” quadratini chuqur anglagan, “so‘z” ne’matining Alloh tomonidan faqatgina insonga in’om etilganligini his etgan buyuk allomalargina uni qadrlaganlar va e’zozlashga undaganlar. Shu ma’noda notiqlik san’ati boshqa san’at turlari orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingen haqiqatdir. Qadimda mohir notiqlargina lashkarboshlik va davlat arboblari lovozimlariga saylab tayinlanganliklari ham bu haqiqatga aniqlik kiritadi. Tarix bizga hamisha saboq bergen, saboq bermoqda va bundan keyin ham saboq beradi.

### Savollar?

1. So‘z san’ati bu nima?
2. So‘z san’atining asosiy omillari qaysilar?
3. Obrazlilik bu ?
4. Ma’naviy ta’sir bu nima ?

### 2-Amaliy mashg‘ulot mavzusi

**Mavzu:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmasi asoslari.

### Reja:

1. O‘qish ko‘nikmalari va uning texnik tomonlari.
2. O‘qishning o‘rganish bosqichlari.
3. So‘zlarni o‘qishning usullari

**Tayanch tushunchalar:** san’at, so‘z, asos, til, mutq, o‘quvchi, badiiylik, ong, bilim, ko‘nikma.

1. O‘qish bu ma’lum bir til tizimiga muvofiq grafik kodlangan axborotni idrok etish va faol qayta ishlash jarayoni; matnni idrok etish va tushunishdan iborat murakkab analitik va sintetik faoliyat va eng mukammal o‘qish bu ikki jarayonning uyg‘unlashuvni va diqqatni mazmunning semantik tomoniga jamlash bilan tavsiflanadi.

### O‘qish qobiliyatları

- o‘qish texnikasi ko‘nikmalari - vizual tasvirlarni ularning nutq-motor tasvirlari bilan bog‘lash ko‘nikmalari (matnni ovozli qilish);
  - eshitish -motor tasvirlarini ularning ma’nolari bilan bog‘lash ko‘nikmalari ;
    - 1) so‘zlarning tovushli tasvirlarini ularning ma’nolari bilan bog‘lash ko‘nikmalari (leksik ko‘nikmalar);
    - 2) grammatik tuzilmalarni ularning ma’nolari bilan bog‘lash ko‘nikmalari (grammatik ko‘nikmalar);
    - gaplarda mantiqiy mavzu va mantiqiy predikatni topish malakalari;
    - matndan bir butun sifatida ma’lumot olish ko‘nikmalari.

O'qish qobiliyati ko'rgan narsasi va nimani nazarda tutayotgani o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishni anglatadi:

vizual tasvirlar --- eshitish-motor tasvirlar (ichki nutq) --- tanib olish (ishchi xotira, kutish - semantik ishlov berish) --- tushunish.

#### Tushunish darajaları:

1. Ma'no darajasi - faktlarni tushunish (nima, qaerda, qachon).
2. Ma'no darajasi - mualifning niyatini tushunish va matn mazmunini baholash.

#### So'zlarni o'qishni o'rgatish usullari

1. alifbo tartibida;
2. Ovoz;
3. Butun so'z usuli;
4. ibora usuli;
5. Taklif usuli;
6. Ovozli analitik-sintetik usul;
7. Fonema-grafema usuli.

#### O'qish texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar:

- 1) Yodlangan maqol, matallarni ovoz chiqarib o'qish;
- 2) Alifboga bo'lingan holda so'z va gaplar tuzish;
- 3) Bo'sh joylarni etishmayotgan harflar bilan to'ldiring;
- 4) Matndagi sinonim, antonim so'zlarni topish;
- 5) Ushbu takliflarga qo'shimchalar.

O'qish turlari:

- o'zingizga o'qish
- ovoz chiqarib o'qish.

- Mantiqiy operatsiyalardan foydalanish bo'yicha:

- 1) analitik;
- 2) sintetik.

- Matn mazmunini tushunish chuqurligiga ko'ra:

- intensiv;
- keng qamrovli.

- Maqsadni belgilash bo'yicha:

- 1) o'qish;
- 2) kirish;
- 3) qidirmoq;
- 4) ko'rish.

#### 3-Amaliy mashg'ulot mavzusi

**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni idrok etish ko'nikmasi xususiyatlari.

#### Reja:

1. O'qish – boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish asosi sifatida.
2. O'qib tushunish – badiiy asarning mazmuni va badiyatini idrok etish omili.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tushunish va tahlil qilish layoqatini shakllantirish.
4. O'qish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy ijodkorlik ko'nikmasini tarkib toptirish.

**Tayanch tushunchalar:** san'at, so'z, asos, til, nutq, o'quvchi, badiylilik, ong, bilim, idrok, fikr, ko'nikma.


**O'qish – boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish asosi sifatida.** Boshlang'ich sinflarda "ART texnologiya va kreativlik" fanining muhim tarkibiy qismi bo'lgan so'z san'ati negizlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu bilan o'quvchilarining his-tuyg'ulari, estetik ongi va orzu-maqsadlarini to'g'ri shakllantirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda o'qitulayotgan O'qish o'quv fanining mazkur masaladagi nazariy va amaliy ahamiyati muhim hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini ushbu o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini so'z san'ati omillari bilan tanishtirish nazariyasi va metodikasini o'zlashtirishi taqozo etiladi.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tushunish va tahlil qilish layoqatini shakllantirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilar nafaqat badiiy matnning mazmunini tushunishi, balki ularni o'z imkoniyatlari darajasida tahlil qila olishi kerak. Bu borada pedagog olimlar yakdil fikrga ega ekanliklarini ta'kidlash lozim. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi matn mazmunini tahlil vositasida tushuntirib bera olishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishda quyidagilarga

e'tibor berish kutilgan samaranı beradi:

- 1) o'quvchilarni so'zlar ma'nosini his qilishga o'rgatish;
- 2) o'quvchilarni matnning tuzilishini tushunishga o'rgatish;
- 3) o'quvchilarni o'z tahlillarini so'zlab berishga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini so'zlar ma'nosini *his qilishga* o'rgatish muhim amaliy masalalardan biridir. Unga ko'ra, o'quvchilar badiiy matndagi har bir so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lishi kerak va shunda ular so'zlarining mazmunini his qilishga o'rganadi. Masalan, agar o'quvchi "go'zallik" so'zini beparvo va shunchaki o'qisa u mazkur so'zning ma'nosini his qilmaydi, aksincha, ushbu so'zni his-hayajon bilan va e'tibor bergen holatda o'qisa, shu so'z zamiridagi ma'noni to'liq his qiladi hamda bundan zavqlanadi. Yoki, "bahor" so'zini ko'pchilik o'quvchilar zavq bilan o'qiydi va talaffuz qiladi, bunga sabab ularning bahorni tasavvur qilishidir.



So'z san'atining muhim asoslardan biri matndan *taassurot* olishdir. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari har qanday matndan yaxshiri va estetik taassurot oladi. Ayni paytda ular matndagi yomonlik va yomonlikka undovchi obrazlarni tez sezadi. Shu sababli o'quvchilar badiiy asardan yaxshi taassurot olish va undagi salbiy jihatlarni farqlash ko'nikmasiga ega bo'lishi taqozo etiladi. Bu borada ayniqsa, ertaklar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining taassurot ko'nikmasini kutilgan darajada shakllantirish mumkin. Misol uchun, mashhur "Ur to'qmoq" ertagidan boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'g'ri taassurot olishi

kuzatildi. Bunga sabab o'quvchilarning ertak matnini o'qiganligi va u asosda ishlangan multfilmning ko'rganligidir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning badiiy asardan to'g'ri taassurot olishi ko'nikmasini shakllantirishi taqozo etiladi.

#### 4-Amaliy mashg'ulot mavzusi

**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.

##### Reja:

1. O'qish – boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish asosi sifatida.
2. O'qib tushunish – badiiy asarning mazmuni va badiyatini idrok etish omili.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tushunish va tahlil qilish layoqatini shakllantirish.
4. O'qish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy ijodkorlik ko'nikmasini tarkib toptirish.

**Tayanch tushunchalar:** *san'at, so'z, asos, til, mutq, o'quvchi, badiiylik, ong, bilim, idrok, fikr, ko'nikma.*

#### Kitob haqida fikrlar

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to'plab avlodlarga yetkazadi. Oybek

Odamlarning ong-u tafakkuri, dunyoqarashini, o'zgartirish, ma'naviy savyasini yuksaltirish vositasib - bu kitob. Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q.

Sh.Mirziyoyev.

O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk ,intellectual salohiyatlari barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan.O'qish va "kitobxon" milliy qadriyat sifatida toboro ko'proq tan olinmoqda.Hammamiz bilamizki,kitob o'qiydigan xalqlar o'qishni yaxshi ko'radigan bolalardan paydo bo'ladi. Kitobxon xalq –rivojlanayotgan xalqdir.Bolalar kitobxonligini

maqsadli tashkil etish matabning asosan boshlang‘ich matabning ustivor vazifalaridan biri bo‘lishi kerak.

1. Vazirlar mahkamasining “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qaror loyihasi e‘lon qilindi.Bunga ko‘ra yurtimizda barcha sohada kitobxonlikni targ‘ib etish,turli xil loyihamlar va tanlovlardan ishlab chiqish,u orqaliyoshlarda kitob mutolaasiga qiziqish uyg‘otishmaqsad qilib qo‘yildi.

2. Kitob o‘qish inson dunyoqarashini kengaytirib,bilimini oshiradi,fikrlash qobiliyatini yuksaltiradi.Yosh avlod bizning vatanimizning ertangi egalari,ularning bilimli aqli,manan yetukqilib tarbiyalashda ota-onalarning ,ustozlarning o‘rni beqiyosdir.

3. Bolalarga kitob o‘qitishda ularga qiziqarli bo‘lgan kitoblarni tanlash muhim ahamiyatga ega.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hayvonlarga qiziqish bildirsa,hayvonlar hayoti haqida ertaklar o‘qib berish.Vaqtni ayamasdan kitob o‘qib berilsa,bola ham asta-sekin o‘zi muntazam mustaqil tarizda kitob o‘qiy boshlaydi.

4. Bolajonlarni tez-tez kutubxonaga olib borish lozim.Bolalarda doimiy ravishda kitob o‘qish malakasini shakillantirish maqsadida haftasiga hech bo‘limganda bir marta kutubxonaga olib bormoq lozim.Kitoblarni birgalikda ko‘rib chiqib,birgalikda tanlab,birgalikda o‘qish samara beradi

## NIMA UCHUN KITOBNI KO‘Z QORACHIG‘IDEK ASRAYMIZ



## 5-Amaliy mashg‘ulot mavzusi

**Mavzu:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini so‘z san’ati asoslarini o‘rganishga yo‘naltirish.

### Reja:

1. Boshlang‘ich sinflarda so‘z san’ati asoslari sifatida.
2. Boshlang‘ich sinflarda so‘z san’atini o‘rganishning ahamiyati

**Tayanch tushunchalar:** san’at, so‘z, asos, til, nutq, o‘quvchi, badiiylik, ong, bilim, idrok, fikr, ko‘nikma.

So‘z san’ati – bu so‘z vositasida fikrni badiiy ifodalash bo‘lib, unda inson va jamiyat hayoti obrazlar vositasida tasvirlanadi. So‘z san’ati til va adabiyotning uyg‘unlashgan shakli bo‘lib, unda badiiyat qonuniyatlariga asoslaniladi. Uning asosiy ob‘yekti inson ruhi, ongi, ahloqi va hayoti hisoblanadi. Mazkur san’at vositasida insonning ideal orzulari, baxtga intilish xarakatlari va hayotining mazmuni ifodalanadi. Shu sababli so‘z san’atining inson hayotidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, uning vositasida insonning odamiylik madaniyatni rivojlantiriladi. Pedagog olimlarning fikrga kelishicha, so‘z san’ati inson hayotida umrbod hamrohlik qiladi. Haqiqatan ham inson yoshligidanoq so‘z san’atining devochasi bo‘lgan alla tinglab voyaga yetadi. Aynan allada musiqiylik, ohang, mazmun va obrazlilik mujassam bo‘lgan. Shu sababli alla so‘z san’atining ilk ko‘rinishi sifatida insonning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**So‘z san’atining asosi sifatida.** Har bir xalqning so‘z san’atida Ona tili asosiy negiz hisoblanadi. Chunki ona tilining inson ruhiyati va ongiga ta’siri ilmiy isbotlangan bo‘lib, unga ko‘ra, inson aynan ona tili vositasida ma’naviy shakllanadi. Uning natijasida ijtimoiy hayat va jamiyatda faoliyk ko‘rsatadi. Bu borada so‘z san’ati o‘zining asoslari ega bo‘lib, ikki jihatdan muhim imkoniyatlarni beradi: birinchidan, ona tilining keng imkoniyatlarini namoyon qiladi va uning targ‘ibotini amalga oshiradi; ikkinchidan, ona tilining lug‘at boyligini kuchaytiradi. Shu jihatdan Ona tilining so‘z boyligi shevalar va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarni vositasida ko‘payib boradi, bunda so‘z san’ati muhim vazifani bajaradi.

Ona tili so‘z san’atining asosi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) so‘z boyligini (lug‘atni) taqdim qiladi;
- 2) tasvirlash vositalarini beradi;
- 3) fikrni ikkinchi shaxsga yetkazadi.

So‘z san’atining asoslaridan birni *tasvirlashdir*. Unga ko‘ra, mazmunni ifodalashda o‘quvchi uchun qulay, oson, tushunarli va hayajonli shakllarga tayanilishi kerak. Bunda Ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalaniladi. Shu sababli so‘z san’atida qiyoslash, o‘xshatish, namuna qilib ko‘rsatish kabi tasvir vositalaridan foydalanishga asosiy e’tibor beriladi. Biror narsaga qiyos qilinganida fikr ishonchli chiqishi kerak, masalan, Quyoshni Alisher Navoiy nonvoyning tandiriga qiyoslaydi va bunda Quyoshning issiqligiga etiborni qaratadi. Chunki o‘quvchi uchun tandirning issiqligi tanish hodisa.

**So‘z san’atini o‘rganishning ahamiyati.** Ta’lim tizimi vositasida so‘z san’atini o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinflarda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” o‘quv fani vositasida so‘z san’atining ilk asoslari bilan tanishiladi.

Boshlang‘ich sinflarda so‘z san’atini o‘rganishning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini shakllantirish;
- 2) o‘quvchilarning estetik ongini tarkib toptirish;
- 3) o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.

Boshlang‘ich sinflarda so‘z san’ati o‘quvchilarning *his-tuyg‘ularini* shakllantirish omili hisoblanadi. Chunki aynan hissiyot, tuyg‘u va ruhiy kechinmalar o‘quvchilarning ahloqi, aqli va ongingin shakllanishi uchun asos hisoblanadi.

## 7-Amaliy mashg‘ulot mavzusi

**Mavzu:** Musiqa san’ati ART texnologiyasi vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik ongini tarkib toptirish.

### Reja:

1. Boshlang‘ich sinflarda so‘z san’ati asoslari sifatida.
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqa tinglash va ijro

etish ko‘nikmasini shakllantirish.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy-estetik layoqatini rivojlantirish.

**Tayanch tushunchalar:** *musiqa, san’at, qo’shiq, raqs, o‘quvchi, o‘qituvchi, ko‘nikma, cholg‘u, ijrochilik, malaka*.

“Musiqa” tushunchasi yunoncha bo‘lib, san’at ma’budi Muza nomidan olingan va o‘zbek tilida u tarona deyiladi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur masala bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Ushbu o‘quvchilarga musiqa *ijrochiligin* o‘rgatish ham muayyan xususiyatlarga ega. Unda o‘quvchilar cholg‘ular bilan tanishtiriladi, cholg‘ularning xususiyatlarini o‘rganadi va ijrochilik asoslarini o‘zlashtiradi. Masalan, milliy cholg‘ularimiz bo‘lgan Dutor, Rubob, Tor kabi chertma-torli cholg‘ular ijrochiligin tez o‘zlashtirish mumkin va ayni paytda o‘quvchilar ko‘proq qiziqadigan Nay, Surnay, Bulomon kabi puflama cholg‘ular ijrochiligin o‘zlashtirish nisbatan murakkab hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda imkon qadar urma-zarbli va cherta-torli cholg‘ular ijrochiligin o‘rgatish samarali hisoblanadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari musiqa *tinglashga* ham o‘rgatilishi mazkur fanning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunday ko‘nikma yosh xususiyatlariga mos musiqalarni tanlay olish, ularni tinglash vaqtlarini belgilash, tinglaganda musiqa ohanglariga e’tibor berish, musiqani diqqat bilan tinglash va musiqa ohanglaridan zavqlanish kabilarni o‘zlashtirish natijasida tarkib topadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflar “Musiqa” o‘quv fanida nisbatan vaqt musiqa tinglashga ajratilgan

Cherma torli cholg‘u  
Dutor  
Rubob  
Tor

Puflama cholg‘u  
Nay  
Surnay  
Bulomon

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining *estetik ongi* darajasini aniqlashda ularning musiqa, qo'shiq yoki raqsga bo'lgan qiziqishlari aniqlanadi. Aniqlangan ma'lumotlarga asosan o'quvchilar bilan tarbiyaviy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday tadbirlarning negizini o'quvchilarining o'z qiziqishlari bo'yicha musiqa, qo'shiq yoki raqs ijro etishi tashkil etadi.

Musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqiyyotida xususan cholg'u ijrochiligidagi milliy musiqa cholg'ularining ham o'ziga xos o'rni bo'lib cholgu ijrochiligi musiqa asarlarini paydo bo'lishida asosiy omil hisoblanadi.

- 1) Tanbur, dutor, doira, rubob, sunray, karnay, g'ijjak, nog'ora, chang, qobuz va hokazo.
- 2) Shu qatori ayrim viloyatlarning o'ziga xosmusiqa cholg'ulari bo'lgan, Xorazmda bulomon, garmon, tor.
- 3) Buxoroda -Afg'on rubobi
- 4) Farg'ona viloyatida -qoshnay, dutor musiqa cholg'ulari bor.

#### **8-Amaliy mashg'ulot mavzusi**


**Mavzu:** Musiqa san'ati ART texnologiyasi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ongini tarkib toptirish.

##### **Reja:**

1. Boshlang'ich sinflarda so'z san'ati asoslari sifatida.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik layoqatini rivojlantirish.

**Tayanch tushunchalar:** musiqa, san'at, qo'shiq, raqs, o'quvchi, o'qituvchi, ko'nikma, cholg'u, ijrochilik, malaka.

O'quvchilarga musiqli o'rgatishda quyidagi metodikalar samarali yordam beradi






*Raqs haqida  
tushuncha berish*

*Raqs ijrochiligin  
örgatish*



*Raqs bойicha Iste'dodi  
bor öquvchilarini  
individual tayyorlash*

# Musiqa asboblari



## 9-Amaliy mashg'ulot mavzusi

**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash madaniyatini shakllantirish.

### Reja:

1. "Musiqa madaniyati" boshlang'ich sinflarda asosiy fan sifatida.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa san'ati asoslarini o'rgatish xususiyatlari.
3. "Musiqa madaniyati" fanining boshlang'ich sinf o'quvchilari estetik ongini shakllantirish ahamiyati
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** musiqa, san'at, qo'shiq, raqs, o'quvchi, o'qituvchi, ko'nikma, cholg'u, ijrochilik, malaka.

Mamalakatimiz boshlang'ich ta'limida -musiqa madaniyati fani asosiy va tayanch fanlardan biri hisoblanadi.

Xalqimizning musiqa san'ati ijodi namunalari bilan o'quvchilarni tanishtirish muhim ahamiyatga ega

Musiqa madaniyatining asosini musiqa, qo'shiq(ashula) va raqs tashkil etadi.

Xalqimizning musiqa san'ati ijodi namunalari  
bilan tanishtirish

Jahon xalqlarining musiqa san'atidagi eng  
yaxshi asarlar togrisida ma'lumot berish

O'quvchilarni musiqiy asarlarni ijro  
etishga o'rgatish

## 10-Amaliy mashg'ulot mavzusi


**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash madaniyatini shakllantirish.

### Reja:

- 1."Musiqa madaniyati " boshlang'ich sinflarda asosiy fan sifatida
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa san'ati asoslarini o'rnatish xususiyatlari .
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** musiqa, san'at, qo'shiq, raqs, o'quvchi, o'qituvchi, ko'nikma, cholg'u, ijrochilik, malaka.

**"Musiqa madaniyati" – boshlang'ich ta'limming asosiy o'quv fanlaridan biri sifatida.** Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida "Musiqa madaniyati" o'quv fani asosiy va tayanch fanlardan biri hisoblanadi.



Musiqa tinglash badiiy ta'limming muhim vositalaridan biri bo'lib u darsning barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Tinglash bolalarda hayotni, borliqni anglash va bilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.Tinglash qoidalari sinfda jumlilikni ta'minlab,o'quvchilarni musiqani diqqat-e'tibor bilan eshitishga o'rnatib,onglilik va faollikni rivojlantiradi hamda musiqa madaniyatini shakllantiradi.

## MUSIQA TINGLASH

DVD diskda milliy cholg'ularda ijro etilgan kuylardan namunalar eshittiriladi.





### 11-Amaliy mashg'ulot mavzusi

**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bolalar musiqa asarlarini o'rganishga ko'niktirish..



#### Reja:

1. "Musiqa madaniyati" boshlang'ich sinflarda asosiy fan sifatida.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa san'ati asoslarini o'rgatish xususiyatlari.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** musiqa, san'at, qo'shiq, raqs, o'quvchi, o'qituvchi, ko'nikma, cholq'u, ijrochilik, malaka.

### Musiqa asari quyidagilar yordamida vujudga keladi



## 12-Amaliy mashg'ulot mavzusi

**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bolalar musiqa asarlarini o'rganishga ko'nkitirish..

### Reja:

1. Musiqaning o'ziga xos xusuiytatlari va turlari.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy asarni tinglash ko'nikmasini shakllantirish
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy asarni ijrochilik ko'nikmasini shakllantirish

**Tayanch tushunchalar:** musiqa, san'at, qo'shiq, raqs, o'quvchi, o'qituvchi, ko'nikma, cholg'u, ijrochilik, malaka.

**Musiqa – bu cholq'ularda ijro etiladigan muayyan ohang, ritm va mazmunga ega bo'lgan asardir, qo'shiq – bu she'riy matn asosida ohang va kuyga solib ijro etiladigan asar (ashula – keng hajmli, qo'shiqqa nisbatan avj nuqtalari ko'p bo'lgan asar hisoblanadi**

Musiqa san'atimizdagi qo'shiqlarda o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ularning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

- ohangdorlik;
- kuychanlik;
- jo'shqinlik.

Xalqimizning qo'shiqlariga xos bo'lgan bu xususiyatlar o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Unga ko'ra, masalan, bolalar qo'shiqlari musiqiy ohanglariga juda boy bo'lishi, ularda kuychanlikning, ya'ni musiqa tuzilmalarining ravon bo'lishi va albatta, qo'shiqlar g'oyasida jo'shqinlik mavjud bo'lishi taqozo etiladi. Shu sababli jahon musiqa san'ati mutaxassislari o'zbek qo'shiqchilik an'analarining uslublari, ijrochiligi va ta'sirchanligini yuksak baholaydi

### BOLALAR MUSIQIY ASARLARI

Bolalar musiqa san'atining *musiqa* asarlarida ohanglar yengil, mazmunli va kishini harakatlarga boshlovchi ritmlar boy bo'ladi. Butun dunyo kompozitorlari bolalar musiqa asarlarini yaratishga

muhim e'tibor beradi va o'zlarining iste'dodlarini aynan ana shunday asarlar bilan baholashga xarakat qilishadi Mamlakatimizda bolalar musiqasining ikki turi mavjud:

- xalq musiqa og'zaki ijodi namunalari;
  - kompozitorlarimiz tomonidan yaratilgan bolalar musiqa asarları.
- Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "Musiqa madaniyati" o'quv fani darsliklarida mazkur janrlardagi eng yorqin va serxarakatga boy musiqalar kiritilgan. Bunday musiqalar o'quvchilarning tinglashi, ijro etishi va ular asosida raqslargaga tushishiga mo'ljallangan. Misol uchun, 2-sinfda "Andijon polkasi" musiqasi berilgan bo'lib, u tinglash va raqs tushish uchun belgilangan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarga musiqa asarlarini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

1. **musiqaning tuzilishi haqida tushuncha berish;**
2. **musiqaning mazmunini tushuntirish**

Musiqa asarining mazmunida turli ma'nolar – ruhlantirish, xarakatga da'vat qilish, zavqlantirish kabi xususiyatlar ifodalanadi. Musiqa tinglash ko'nikmasida o'quvchilarning o'z yosh, ruhiy va estetik xususiyatlariga mogs asarlarni tinglashga o'rganishi muhim o'rinn tutadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lif jarayonida eng avvalo o'quvchilarning musiqa tinglash ko'nikmasini shakllantirish metodikasini o'zlashtirishlari taqozo etiladi. Chunki bugungi kunda axborot-kommunikasion vositalari asosida turli musiqa asarları targ'ibyu qilinmoqda va ularning ko'pchiligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydi.

#### Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

- 1) Musiqy asar nima va uning xususiyatlarini aytib berin?
- 2) Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmasini shakllantirishda nimalarga e'tibor beriladi?
- 3) Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy asar ijrochiligi ko'nikmasini shakllantirish qanday asoslarga ega?

### 13-Amaliy mashg‘ulot mavzusi

**Mavzu:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy-estetik layoqatini rivojlantirish.

#### Reja:

1. Musiqaning o‘ziga xos xusuiyatlari va turlari.
